

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

**D.B.ABDURAXMANOVA, I.H.ABDULLAYEV,
P.RAHIMOV**

MA‘MURIY GEOGRAFIYA

*Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
kasb-hunar kollejlarining «Pochta aloqasi» mutaxassisligi
yo‘nalishida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun o‘quv
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti
Toshkent — 2014

UO‘K: 91(075)

KBK: 26.89

A 15

Abduraxmanova D.B.

A 15 Ma‘muriy geografiya: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / D.B.Abduraxmanova, I.H.Abdullayev, P.Rahimov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi; O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi. — Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. — 168 b.

UO‘K: 91(075)

KBK: 26.89

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘MKHTM ta‘limi muassasalarida «Ma‘muriy geografiya» o‘quv fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarda DTSiga muvofiq bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularni o‘z kasbiga yo‘naltirish orqali yuqori bilimli barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalalariga qaratilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

L.N.Nagayeva — Toshkent Aloqa KHK yetakchi o‘qituvchisi,

H.N.Abdullayeva — Toshkent Gidrometeorologiya KHK yetakchi o‘qituvchisi.

KIRISH

Inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning rivojlaniishi keyingi yillarda tobora ortib bormoqda. Kishilik jamiyatining rivojlanishi insonning tabiat va uning boyliklaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Natijada tabiiy geografik landshaftlar inson tomonidan keng foydalaniladi va o'zgartiriladi. Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiiy resurslarni muhofaza qilish chora-tadbirlarining geografik jihatlarini o'rganish hozirgi kunda muhim sanaladi. Chunki geografik hududlarni o'rganish, ularni tadqiq qilish insoniyatning dastlabki tarixiy davrlaridanoq boshlangan. Bundan tashqari ushbu ma'lumotlarni tarqatish, ularni saqlash va turli joylarga yetkazish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etgan va rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan.

Insoniyat tarixida turli hududlarni o'rganish, kashf etish, o'zlashtirish hamda hududiy, iqtisodiy, geosiyosiy masalalarni hal etish uchun mavjud ma'lumotlarni saqlash, ularni kerakli manzillarga yetkazish masalalari bilan band bo'lgan turli xizmatlar tashkil qilingan. Ana shu xizmatlardan biri bu aloqa va pochta xizmati hisoblanadi. Qadimgi manbalarga qaraganda birinchi xabarlar Misr, Yunon mifologiyalarida o'z aksini topgan va unda xabarlarini yetkazuvchi elchilar va xizmatchilar bo'lgan. Qadimgi yunon xabarlari birinchi Olimpiya o'yinlaridan bo'lib, unda uzoqqa yuguruvchilar, asosan, aloqa xizmatchilaridan bo'lishganligi yozilgan. Eng qadimgi tashkil qilingan pochta xizmati Sin imperiyasida tashkil qilingan bo'lib, u «Xalq pochta jamiyati» deb yuritilgan va unga har bir fuqaro murojaatini yuborish imkoniyatiga ega bo'lgan. Yevropa va Rossiya davlatlarida pochta xizmati XV–XVI asrlarda vujudga kelgan. Ushbu xizmatlar otliq va qayiqda yuruvchilardan tashkil qilingan. Keyinchalik pochta xizmati jahon hamjamiyatining rivojlanishiga qarab temiryo'l, telegraf, havo transportidan foydalanish darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kunga kelib pochta xizmati barcha transport turlaridan keng foydalanayotganligi, internet aloqa tizimi ham unga xizmat qilayotganligi ma'lum.

Barcha davrlarda pochta xizmatining rivojlanishida geografik belgilar muhim rol o'ynagan. Chunki aloqa qiluvchilar doimo kim

va qaysi hudud bilan aloqa qilishini bilishi, barcha hududlarning alohida belgilari bo'lgan. O'rta davrlarda Yevropada deyarli har bir shahar va manzilgoh o'zining gerbiga ega bo'lishi ham shunga bog'liq bo'lgan. Pochta xizmati bilan birga joylarning belgilanishi va xaritalarga tushirilishi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa doimo xizmatchilardan chuqur geografik bilimlarni talab qilgan. Mamlakatlar, ularning turli qismlarga bo'linishi pochta xizmatchilarining doimiy e'tiborida turgan. Shuning uchun ham bugungi kunda pochta xizmatini rivojlantirishda turli geografik bilimlar alohida o'ringa ega, ayniqsa, ma'muriy geografiyaning roli juda katta. Dunyo mamlakatlarining geografik o'rni, ularning regionlarga va qismlarga bo'linishi, siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganuvchi ma'muriy geografiya pochta va aloqa xizmatchilari uchun huquqiy, iqtisodiy va ma'muriy masalalarni hal etish uchun zaruriy bilimlardan hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston ta'lim tizimiga ma'muriy geografiya fanining kiritilishi jahon mamlakatlarining sharoitini o'rganishda, pochta aloqalari, jo'natma va buyurtmalar o'z vaqtida va aniq manzili-ga yetib borish muammosini hal etishda ilmiy, texnik, iqtisodiy, huquqiy va tarbiyaviy jihatlarini o'rganish uchun muhimdir.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning talablarini inobatga olgan holda mamlakatimizda aloqa tizimini rivojlantirish maqsadida maxsus aloqa KHKlari tashkil etilib, ularda «Ma'muriy geografiya» kursi o'tiladi. Ushbu o'quv kursi «Xalqaro aloqalar», «Pochta aloqa xizmatlarini tashkil etish» kabi yo'nalish guruh-lari uchun maxsus fan sifatida o'qitilishi O'zbekiston aloqa xizmatining faoliyatini yanada yuqori darajalarga olib chiqishga xizmat qiladi.

I bob. XALQARO ALOQA XIZMATI

1.1. Xalqaro aloqa xizmati va uning ish faoliyati

Mamlakatlar va shaharlar bilan o'tgan davrlarda o'zaro aloqalar o'rnatish, xabar, axborotlar almashish va tarqatish ishlari ni amalga oshirish masalalari insoniyat tarixida chuqur ahamiyatga ega bo'lgan. Qadimdan xabar almashuvining har xil turlari bo'lib, jumladan, ovozli va nog'ora sadolari orqari, olovli, tutunli, yorug'lik nurlaridan foydalanish, choparlar xizmati, kabutarlar hamda karvonlar orqali kerakli xabarlar ni yetkazish tashkil etilgan.

O'tgan asrlarda davlatlar, hududlar, shaharlar va boshqa zarur aholi manzilgohlari bilan aloqa o'rnatish, axborot almashish, xabar yuborish, o'zaro muloqot ishlarini tashkil etish o'lkamizda Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumotlar qadimgi qo'lyozmalarda o'z ifodasini topgan.

Davlatlararo kelishilgan holda birgalikda umumjahon pochta xizmatlarining to'g'ri ishlashini yo'lga qo'yish maqsadida 1874-yil 9-oktabrda Bern shahrida (Shveysariya) «Umumjahon Pochta Ittifoqi» tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda unga 191 ta mamlakat kiradi.

1994-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi «Umumjahon Pochta Ittifoqi»ning to'la huquqli a'zosi hisoblanadi. 2012-yil «Umumjahon Pochta Ittifoqining» tashkil topganiga 138 yil, O'zbekistonning «Umumjahon Pochta Ittifoqi»ga a'zo bo'lganiga 18 yil to'ldi.

«Umumjahon Pochta Ittifoqi» o'z faoliyatida quyidagi masalalarni hal qilish vazifasini bajaradi:

- bir xil xalqaro pochta aloqasini ta'minlash va xalqaro pochta mahsuloti almashuvini muvofiqlashtirish. Bunda «Umumjahon Pochta Konvensiyasi» va boshqa o'zaro kelishilgan hujjatlardan foydalaniladi;

- davlatlararo pochta ittifoqi a'zolari ishlarining rivojlanishiga yordam berish;

- davlatlararo pochta aloqasi tarifini belgilash (bunda tranzit xarajati ham hisobga olinadi);

— pochta aloqasi xizmatlari bilan ro'y bergan kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

«Umumjahon Pochta Ittifoqi» tashkiliy strukturasi 4 qismdan iborat:

1. Umumjahon pochta kongressi (yuqori organ).
2. Ma'muriyat kengashi.
3. Pochta ekspluatatsiyasi kengashi.
4. Xalqlararo byuro, doimiy kotibiyat va rahariyat (Bern shahrida).

Umumjahon pochta ittifoqiga a'zo bo'lish uchun unga kiruvchi davlat rahbariyati ittifoqning «Nizomi» va boshqa zarur hujjatlarjni imzolashi lozim. U pochta kongressi qarorlari, pochta xodimlarining huquqiy asoslarini, iqtisodiy ta'minotini, tashkiliy xizmatini yurituvchi korxonalar va pochta xizmatidan foydalanuvchilar orasidagi muomalalarni tartibga soluvchi tizim hisoblanadi.

1969-yili Tokio shahrida kongress tomonidan Pochta Ittifoqi 9-oktabrni «Umumjahon pochta kuni» deb e'lon qildi va BMT tomonidan ushbu qaror tasdiqlandi. Umumjahon pochta kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida nishonlanadigan xalqaro bayram kunidan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Pochta aloqasi ma'lumotlar va materiallar jo'natmalarini qabul qilish, ishlov berish hamda pochta jo'natmalari, nafaqa pullar, matbuot nashrlarni yetkazib berishda bir-biri bilan o'zaro uzluksiz bog'langan pochta aloqasi obyektlari va uning yo'nalishlarini o'z ichiga olgan.


Pochta aloqasining milliy tizimi «O'zbekiston pochtasi» ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan geografik qoidalarga asoslangan holda tashkil qilingan.

Umumjahon Pochta Ittifoqida (UPI) ish yuritish hujjatlari fransuz va ingliz tilida olib boriladi. Umumjahon Pochta Ittifoqi hujjatlari («Pochta Ittifoqi» jurnali ham) Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) asosiy tillarida: arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan, portugal va rus tillarida chop etiladi.

1957-yildan boshlab Shveysariya pochtasi Umumjahon Pochta Ittifoqiga bag'ishlangan maxsus markalarni ishlab chiqarmoqda. «O'zbekiston pochtasi» OAJ hamda O'zbekiston aloqa ax-

boratlashtirish agentligi bilan hamkorlikda Umumjahon Pochta kunining logotipi tasviri bilan maxsus xotira tamg'asi tayyorlandi va amalga kiritildi. Maxsus xotira tamg'asining birinchi tomonida pochtaning umumiy ramzi hisoblangan ikkita markada pochta jo'natmalarini almashinayotgan odamlar tasvirlangan. Ushbu tasvirda ular chegarani kesib o'tayotgandek, bu bilan pochta almashuvi nafaqat hududiy chegaralar doirasida, balki undan tashqarida ham umujahon xizmati ekanligini namoyish etishmoqda. Maxsus xotira tamg'asida «9-oktabr — UMUMJAHON POCHTA KUN» yozuvi va tamg'asining kerakli rekzivitlari, «O'ZBEKISTON» deb yozilib, davlat nomi ko'rsatilgan.

«Umumjahon Pochta Ittifoqi» tashkiliy strukturasi



Mavzu yuzasidan savollar:

1. Qadimda odamlar xabar almashuvida qanday vositalardan foydalanishgan?
2. Umumjahon Pochta Ittifoqi qachon tashkil qilingan?
3. Umumjahon Pochta Ittifoqi tashkiliy jihatdan necha qismdan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasi Umumjahon Pochta Ittifoqiga qachon a'zo bo'lgan?

1.2. Aloqa informatsiyasini ta'minlash.

Aloqa turlari va vositalari

Davlatlararo aloqalar bo'lmasa, ular rivojlana olmaydi. Har qanday mamlakat aholi turmushini, o'z xo'jaligini yangi darajada rivojlantirish va yaxshilash maqsadida uni yuqori pog'onalarga

ko'tarish uchun xalqaro aloqaga va jahon bozoriga chiqishi dar-kor. Hozirgi paytda xalqaro iqtisodiy aloqalar bir qancha shakl-larda amalga oshirilmoqda: xalqaro ishlab chiqarish, xalqaro xiz-mat ko'rsatish, xalqaro tashqi savdo, moliya-kredit munosabatlari, ilmiy-texnik aloqalar, xalqaro pochta xizmati, xalqaro sayyohlik va boshqalar.

O'zbekiston xalqaro iqtisodiy aloqalar to'g'ri yo'lga qo'yilgan-ligi va ulardan samarali foydalanilganligi tufayli qisqa vaqt ichida avtomobil sanoati barpo qilindi (Andijon, Samarqand), Buxoro-da yirik neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi, qimmatbaho metallar ishlab chiqarish Amerika qo'shma korxonasi (Zarafshon) qurib bitkazildi va ishga tushirildi. Xalqaro ishlab chiqarishni ri-vojlantirish maqsadida boshqa davlatlar bilan birgalikda qo'shma korxonalar qurilib, jahon bozorining talablariga javob beradi-gan mahsulotlar ishlab chiqarilib, tovarlar eksport qilinmoqda. Shu qatorda O'zbekistonning xalqaro iqtisodiyotini rivojlantirish uchun «O'zbekiston Pochtasi» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi.

Umumjahon Pochta Ittifoqining statistik ma'lumotlariga ko'ra jahon pochta bozorida xat-xabarlar segmenti 450 mlrd pochta jo'natmalarini tashkil etadi. Bulardan 440 mlrd ichki rejim va 10 mlrd xalqaro rejim jo'natmalaridir. Ushbu bozorda pochta posil-kalari segmenti 5 milliardni tashkil etadi.

Mamlakatlar ushbu jo'natmalarni mo'tadil jo'natilishini ta'minlash maqsadida 650 mingdan ortiq doimo amaldagi pochta tashkilotlarini o'z ichiga olgan Ittifoq a'zolari yagona tarmoqni tashkil etishdi. Bu bo'linmalarda 5,5 million ishchilar ishlaydi. Pochta maydoni faqatgina Onlayn rejimida xarid va taklif qi-luvchilarga ham, yangi texnologiyalardan foydalanishni bilmay-diganlarga, tashqi dunyo bilan aloqada bo'lish hayotida zarur ahamiyatga ega bo'lganlarga ham kerakli xizmatlarni ko'rsatadi.

Qadimda pochta aloqa xizmati choparlar yordamida Buyuk Ipak yo'li orqali axborot almashinish ishlari yo'lga qo'yilgan. Ushbu karvon yo'li bo'ylab har 15–20 kilometr oraliqda alohi-da pochta stansiyalari (rovotlar) bo'lib, ushbu stansiyalar max-sus harbiylar tomonidan qo'riqlangan. Maxsus choparlik xiz-matini o'tovchilar xonlikning maxsus kumush yoki bronzadan

yasalgan 3–6 santimetrli egalari nomi ko'rsatilgan tamg'alar bilan ta'minlangan. Mazkur tamg'alar choparlarga karvon yo'llari va belgilangan yo'nalishlarda erkin harakatlanishlari, xonlik pistirmalaridan bemalol o'tish, pochta stansiyalarida ovqatlanish, otlarni almashtirish, dam olish va o'zidagi barcha axborotlarni keyingi choparga uzatish imkoniyatlarini bergan.

Mo'g'ul-tatar hukmronligi davrida qo'llanilgan ushbu es-tafeta orqali axborot almashish ishlari qulay, ishonchli va sifatli bo'lganligi sababli uzoq muddatlargacha, ya'ni Temuriylar davridan to XIX asrgacha qo'llanilib kelingan hamda ushbu yo'nalish pochta xizmatining rivojlanishiga asos bolgan. O'rta davrlarda, shu jumladan, XVIII asrga kelib pochta jo'natmalari ot-arava yoki piyodalar bilan, ayrim holatlarda esa savdo karvonlari orqali yetkazib berilgan.

O'tgan davrlardagi oddiy aholi qatlami bir-birlari bilan faqat og'zaki xabar almashib turganlar. XIX asr oxiriga kelib O'rta Osiyoda yozma yoki og'zaki ma'lumotlarni yuborish juda qiyin ahvolda bo'lib, qo'llanilayotgan imkoniyat va choralarga moslashish ham juda murakkab edi. Pullik xizmatning asosini yozma jo'natmalar va ularni joylarga yetkazish tashkil etadi. Aholiga xizmat ko'rsatadigan maxsus aloqa korxonalari, pochta xizmati uchun mo'ljallangan pochta qutilari ish hajmining juda kamligi sababli ochilmagan. Pochta almashuvi, asosan, hukumat korrespondensiyalarini yetkazib berish bo'yicha ishlarni amalga oshirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston harbiy okrugining tashkil etilishi iqtisod va ma'lumotlar almashish ishlari hamda elektr aloqa sohasining yanada rivojlanishiga asos bo'ldi.

Turkistonda iqtisodiy munosabatlari bilan ajralib turgan aholi yashash mazilgohlari bilan shaharlari o'rtasida yangi pochta traktlari qurildi. Shuning uchun pochtni yetkazish maqsadida, asosan, otli, tuyali aravalardan foydalanilgan. Aravalar orqali yuborilayotgan korrespondensiyalarning maxsusligi, muhimligi va qiymatiga qarab 2 tadan 10 tagacha qurollangan soqchilar aravalarni qo'riqlab borishgan. Bu xizmat turi bilan 1865-yildan 1888-yilgacha pochta aloqa xizmatlari ko'rsatilgan. O'zbekiston hududida 1988-yildan boshlab pochta aloqasi temiryo'l transport orqali amalga oshirilgan.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'zbekistondagi sanoat turlarini ayting.
2. XVIII asrda pochta jo'natmalarini yuborish qanday amalga oshirilgan?
3. Shahar va qishloqlarda pochta almashuvi qanday farqlanardi?
4. Elektr aloqa sohasining vujudga kelishiga nima sabab bo'ldi?

1.3. O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi

Mustaqillik yillarida «O'zbekiston pochta» OAJ pochta aloqasi sohasida faoliyat yuritayotgan davlatlararo va xalqaro tashkilotlar bilan hududiy, texnologik va moliyaviy aloqalarni o'rnatishga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri Umumjahon Pochta Ittifoqining standartlariga asoslangan holda pochta jo'natmalariga sifatli ishlov berishni tashkil qilish va mijozlarning o'sib kelayotgan talablarini qondirishdir.

«O'zbekiston pochta» OAJ O'zbekiston Respublikasi milliy operatori hisoblanib, arzon narxlarda dunyoning barcha mamlakatlari bilan barcha turdagi pochta jo'natmalari almashinuvini amalga oshiradi va Respublika Umumjahon Pochta Ittifoqining majburiyatlarini bajaradi. 2009-yilda dunyo mamlakatlarining 98 davlati bilan xalqaro pochta almashuvi amalga oshirilib, eng ko'p hajmdagi pochta almashuvi Rossiya, Ukraina, AQSH, Germaniya, Turkiya va Birlashgan Arab Amirli davlatlari o'rtasida amalga oshirilmoqda.

Pochta jo'natmalarining muntazam ravishda tashilishini ta'minlovchi 1 ta temiryo'l, 34 ta avia, 485 ta avtomobil yo'nalishlari yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi korxonalarida 6537 ta yetkazib berish uchastkalari mavjud bo'lib, shundan shahar va shahar tipidagi posyolkalarda 2442 ta, qishloq joylarda esa 4095 taga to'g'ri keladi. Respublika bo'yicha xat-xabarlarini yig'ib olish maqsadida 5264 ta pochta qutilari o'rnatilgan bo'lib, shundan 3369 tasi qishloq joylarda o'rnatilgan (2010-yil).

Pochta aloqasi korxonalarida 15000 dan ortiq xodim faoliyat yuritib, ular tomonidan har kuni minglab xat-xabarlar, pul o'tkazmalari, posilkalarga ishlov beriladi hamda millionlab obunachilarga gazeta va jurnallar, pensiya va nafaqa pullari yetkazib

beriladi. Shuningdek, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish, telefon to'lovi, sug'urta polislari, lotoreya biletlarini sotish, elektron pochta va internet xizmatlari ko'rsatiladi (1, 2-ilovalar).

Davlat qurilishida yuz bergan global o'zgarishlar aloqa sohasiga ham o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini tug'dirdi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.07.1997-yildagi «Axborot tizimlari sohasini qayta tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi RF-1823-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.07.1997-yildagi «O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 380-son Qaroriga asosan Respublikada «O'zbekiston pochta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.07.2004-yildagi «Pochta aloqasi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 339-sonli Qaroriga asosan «O'zbekiston pochta» davlat aksiyadorlik kompaniyasi «O'zbekiston pochta» ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2005-yildagi 128-sonli Qarori bilan «2010-yilgacha pochta aloqasi shoxobchalarini zamonaviylashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida xizmatlarning yangi turlarini joriy etish va rivojlantirish davlat Dasturi» tasdiqlandi.

Dasturning asosiy maqsadi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish asosida xizmatlarning yangi turlarini rivojlantirish, O'zbekistonning barcha hududida pochta aloqasi universal xizmatlarining kafolati va sifati ko'rsatilishini ta'minlash hisoblanadi. «Xalqaro pochta» filiali «O'zbekiston pochta» ochiq aksiyadorlik jamiyatining xalqaro pochta almashuv punkti markazi hisoblanadi. «Xalqaro pochta» filiali xorij mamlakatlaridan kirib keluvchi va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketuvchi barcha turdagi pochta jo'natmalariga ishlov beradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'zbekiston nechta davlat bilan xalqaro pochta almashuviga ega?

2. O‘zbekiston Respublikasi pochta aloqasi rivojlanishi qanday omillarga bog‘liq?

3. Mamlakat pochta markazi qayerda joylashgan?

4. O‘zbekistonda nechta pochta aloqasi korxonalari bor?

Qo‘shimcha ma’lumotlar

1-ilova

Pochta jo‘natmalari turlari va o‘lchamlari

T/r	Jo‘natma turi	Og‘irligi (kg)	O‘rovdagi o‘lchamlari
1	Xat	2	229 x 324 mm; 162 x 229 mm; 110 x 220 mm; 114 x 162 mm
2	Pochta varaqchasi	—	105 x 148 mm
3	Banderol, shu jumladan, bitta kitob joylangan	2 3	Eng ko‘p: uzunligi, eni va qalinligi yig‘indisi 900 mm, shu bilan birga eng katta o‘lcham 2 mm og‘ish bilan 600 mm dan oshmasligi kerak; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi — 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og‘ish bilan 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og‘ish bilan 90 x 140 mm; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi 170 mm, shu bilan birga eng katta o‘lchami 100 mm dan oshmasligi kerak
4	Sekogramma	7	Eng ko‘p: uzunligi, eni va qalinligi yig‘indisi 900 mm, shu bilan birga eng katta o‘lcham 2 mm og‘ish bilan 600 mm dan oshmasligi kerak; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi — 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og‘ish bilan 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: o‘lchamlar 2 mm og‘ish bilan 90 x 140 mm dan kam bo‘lmasligi kerak; o‘ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig‘indisi 170 mm, shu bilan birga eng katta o‘lchami 100 mm dan oshmasligi kerak

5	Mayda paket	2	O'rovdagi o'lchamga bo'lgan talablar banderollarga qo'yiladigan talablarga mos keladi
6	Posilka: a) bo'linadigan joylanma bilan	10	Eng ko'p: o'lchamlardan biri uchun 1,50 m yoki uzunligi va uzunlikdan boshqa yo'nalishda olingan eng katta aylana yig'indisi 3 m.
	b) bo'linmaydigan joylanma bilan	15	Eng kam: 2 mm og'ish bilan, 90 x 140 mm (eng kam qalinligi 50 mm bo'lganda)
7	Tezkor pochta jo'natmasi: a) hujjatlar bilan; b) tovarlar bilan	2 20	Har qanday o'lchami — 1500 mm dan ko'p emas. Uzunligi va eng katta ko'ndalang kesimi perimetrining yig'indisi 3000 mm dan ko'p emas
8	Tegishli o'rovdagi bosma nashrlar	2	Eng ko'p: uzunligi, eni va qalinligi yig'indisi 900 mm, shu bilan birga eng katta o'lcham 2 mm farq bilan 600 mm dan oshmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunlik va ikkilangan diametr yig'indisi 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm farq bilan 900 mm dan oshmasligi kerak; eng kam: o'lchamlar 2 mm farq bilan 90 x 140 mm dan kam bo'lmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi 170 mm, shu bilan birga eng katta o'lchami 100 mm dan oshmasligi kerak

2-ilova

Pochta jo'natmalari va pul jo'natmalarini manzillash tartibi

Pochta jo'natmalari, posilkalarga ilova qilinadigan blanklar, shuningdek, pul o'tkazmalarining blanklarida jo'natuvchi va adresat manzillari jo'natuvchi tomonidan yoziladi. Manzilda qisqartirilgan nomlar, shuningdek, manzilga taalluqli bo'lmagan belgilar bo'lmasligi kerak. Manzil rekvizitlari quyidagi tartibda yoziladi:

- adresatning nomi (fuqarolar uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi; yuridik shaxslar uchun — to‘liq nomi);
- ko‘chaning nomi, uy raqami, xonadon raqami;
- aholi punktining (shahar, posyolka va shu kabi) nomi;
- tuman nomi;
- respublika, viloyat nomi;
- mamlakat nomi (xalqaro pochta jo‘natmalari uchun);
- pochta indeksi.

Oluvchining manzili pochta konverti, pochta varaqchasi yoki pochta jo‘natmasi o‘rovining pastki o‘ng qismida, jo‘natuvchining manzili esa yuqori chap burchakda yoziladi.

Yuridik shaxs tomonidan pul o‘tkazmalari jo‘natilganda jo‘natuvchining blankdagi manzilida yuridik shaxsning nomi, uning bank rekvizitlari va joylashgan yeri (pochta manzili), uning nomidan qatnashadigan vakolatli shaxsning pasport ma‘lumotlari (familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy va yoki vaqtinchalik yashash joyi, pasport seriyasi va raqami) ko‘rsatiladi. Pochta jo‘natmalari, posilkalarga ilova qilinadigan blanklar, shuningdek, pul o‘tkazmalari blanklarida barcha manzil ma‘lumotlari siyoh bilan (agar imkoni bo‘lsa, bosma harflar bilan) aniq qilib yoziladi yoki bosmaxona usulida yozuv mashinkasida yoki zarur aniqlik bilan boshqa texnik vositalardan foydalanib yoziladi. Pul o‘tkazmasi blankida tuzatish, o‘chirib tashlash, raqamlar va harflarning ustidan takror bo‘yash, shuningdek, xalqaro pul o‘tkazmalari manzilida qisqartirib yozishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tezkor pochta jo‘natmalarida, pul o‘tkazmalari blanklarida, posilkalarga ilova qilinadigan manzil blankalarida ular kelganligi to‘g‘risida xabar berish uchun adresatlarning telefon raqamlari ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida yuboriladigan pul o‘tkazmalarining blanklaridagi va pochta jo‘natmalaridagi manzillar davlat yoki rus tillarida rasmiylashtiriladi.

Xalqaro pochta jo‘natmalarida va xalqaro pul o‘tkazmalari blanklarida manzil lotin harflari va arab raqamlari bilan yoziladi. Manzilni mo‘ljallangan mamlakat va aholi yashash joyi nomini davlat tilida yoki fuqarolarning istagiga binoan belgilanadi.



3-ilova

Jo'natilishi taqiqlangan va cheklangan predmetlar va moddalar ro'yxati

1. Ichki va xalqaro pochta. Kuryerlik jo'natmalarida quyidagilarning jo'natilishi taqiqlangan:

a) o'qotar, signalli pnevmatik, gazli qurollar, o'q-dorilar, sovuq qurollar (jumladan, otiladigan), elektroshok qurilmalari va uchqunli razryadlilar, shuningdek, o'qotar qurollarning asosiy qismlari, jihozlanmagan portlash qurilmalari va o'q-dorilar, shu jumladan, jihozlanmagan granatalar, snaryadlar va boshqa shunga o'xshash predmetlar, shuningdek, shunday qurilmalar va predmetlarning mulyajlari;

b) giyohvandlik vositalari, psixotrop, kuchli ta'sir etadigan, radioaktiv, portlaydigan, zaharli, o'yuvchi, oson alangalanadigan va boshqa xavfli moddalar;

d) O'zbekiston Respublikasining pul belgilari va xorijiy valyuta (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari tomonidan yuboriladiganlaridan tashqari);

e) axloqsizlik yoki buzuvchi xususiyatidagi predmetlar;

f) kontrafakt va qaroqchilik predmetlari;

g) olib kirish yoki muomalada bo'lishi tayinlangan mamlakatda taqiqlangan predmetlar (xalqaro pochta jo'natmalari uchun);

h) o'zining xususiyatiga yoki o'rovlashiga ko'ra pochta xodimlari yoki oddiy aholi uchun xavf tug'dirishi, boshqa jo'natmalarni va pochta uskunasini iflos qilishi yoki buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan predmetlar.

2. Ma'lum shart-sharoitlarda xalqaro pochta, kuryerlik jo'natmalarida jo'natish ruxsat etilgan predmetlar:

a) madaniy boyliklar — O'zbekiston Respublikasi Hukumati-ning maxsus qarorlari bilan va boshqa vakolatli organlar tomonidan shunday huquq berilgan tashkilotlar tomonidan;

b) O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi tangalar va banknotlar, xorijiy banklar bilan valyutalar namunalarini almashinish tartibida va numizmatika maqsadlarida;

d) tashkilotlar, vakolatli organlar tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bo'yicha quyidagilarni jo'natishga ruxsat etiladi:

e) ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari, nou-xau, ixtirolar— O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan; san'at asarlari — O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan; O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan;

f) dorivor vositalar, tibbiyot maqsadlaridagi mahsulotlar (buyumlar) va tibbiyot texnikasi — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Dori vositalari va tibbiy texnikalar sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tomonidan; giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni tibbiyot yoki ilmiy maqsadlarda, ularni jo'natish ruxsat etiladigan mamlakatlarga va rasmiy kelishuvga muvofiq sog'liqni saqlash organlari tomonidan milliy xavfsizlik xizmati, ichki ishlar idoralari bilan kelishilgan holda beriladigan sertifikatlar asosida va giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasining tegishli ruxsatnomasi bilan;

g) ov qilish cheklangan yoki vaqtinchalik taqiqlangan o'simliklar va hayvonlar — O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi, Davlat veterinariya bosh boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan tegishli taqiqlar va cheklovlar amal qilishi davrida;

h) madaniy boyliklar bo'lgan pochta, kuryerlik jo'natmalarini jo'natishda jo'natuvchi pochta aloqasi obyektiga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy boyliklarni chet ellardan olib kelish va chet elga olib ketish nazorati bo'yicha badiiy ekspertizalar boshqarmasining ruxsatnomasini taqdim etishlari kerak. Bu ruxsatnoma pochta, kuryerlik jo'natmasining ichiga qo'yiladi.

3. Xalqaro xatlar va qiymati e'lon qilinmagan posilkalarda tangalar, bank chiptalari, kredit chiptalari yoki da'vogarning biror-bir qimmatbaho buyumlari, yo'l cheklari, platina, oltin yoki kumushdan yasalgan buyumlar yoki ishlov berilmagan ko'rinishdagi qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari va boshqa qimmatbaho predmetlarni jo'natish taqiqlanadi.

4-ilova

Xalqaro Pochta jo'natmalari turlari va o'lchamlari

	Jo'natma turi	Og'irligi (kg)	O'rovdagi o'lchamlari
1	Xat	2	229 x 324 mm; 162 x 229 mm; 110x220 mm; 114 x 162 mm
2	Pochta varaqchasi	—	105 x 148 mm
3	Sekogramma	7	Eng ko'p: uzunligi, eni va qalinligi yig'indisi 900 mm, shu bilan birga eng katta o'lcham 2 mm og'ish bilan 600 mm dan oshmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og'ish bilan 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og'ish bilan 90 x 140 mm; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi 170 mm, shu bilan birga eng katta o'lchami 100 mm dan oshmasligi kerak
4	Mayda paket	2	O'rovdagi o'lchamga bo'lgan talablar sekogrammalarga qo'yiladigan talablarga mos keladi
5	«M» belgili qop	20	Tekis qoplar uchun: eng ko'p — 1600 x 1200 mm; eng kam — 800 x 500 mm. Tagi to'g'ri burchakli qoplar uchun: eng ko'p — 1660 x 600 x 400 mm; eng kam — 1200 x 600 x 400 mm

6	Posilka	20	Eng ko'p: o'lchamlardan biri uchun 1,50 m yoki uzunligi va uzunlikdan boshqa yo'nalishda olingan eng katta aylana yig'indisi 3 m. Eng kam: 2 mm og'ish bilan 90 x 140 mm (eng kam qalinligi 50 mm bo'lganda)
7	T e z k o r pochta jo'- natmasi: a) hujjatlar bilan; b) tovarlar bilan	2 31,5	Har qanday o'lcham 1500 mm dan ortiq emas. Uzunligi va eng katta ko'ndalang kesimi perimetrlarining yig'indisi 3000 mm dan ortiq emas
8	T e g i s h - li o'rovdagi b o s m a nashrlar	2	Eng ko'p: uzunligi, eni va qalinligi yig'indisi 900 mm, shu bilan birga eng katta o'lcham 2 mm og'ish bilan 600 mm dan oshmasligi kerak; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi 1040 mm, shu bilan birga eng katta diametri 2 mm og'ish bilan 900 mm dan oshmasligi kerak. Eng kam: 2 mm og'ish bilan 90 x 140 mm; o'ramlar uchun: uzunligi va ikkilangan diametri yig'indisi 170 mm, shu bilan birga eng katta o'lchami 100 mm dan oshmasligi kerak

II bob. OSIYO QIT'ASI MAMLAKATLARI MA'MURIY GEOGRAFIYASI

2.1. Osiyo qit'asi mamlakatlarning ma'muriy bo'linishi

Jahondagi eng yirik qit'aning Osiyo deb atalishi uning joylashgan geografik o'rni bilan bog'liq. Qadimiy ossuriyaliklar (Mesopotamiya pasttekisligining shimoliy qismi) tilida u «Sharq» ma'nosini beradi. Tabiiyki, bu qadimiy davlatdan sharqda joylashgan keng hududlar «Osiyo» deb nom olgan.

Osiyoning umumiy maydoni 44 mln km² (Rossiyaning Osiyo qismidagi hududini hisoblamaganda 31 mln km²)ni tashkil qiladi, aholisi esa 4,5 mlrd kishiga yetmoqda. Hozirgi vaqtda uning siyosiy xaritasida 49 ta mustaqil davlat va mamlakatlar bor. Ularning ko'pchiligi jahonning eng ko'hna va eng yirik davlatlari hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotida Osiyoning o'rni beqiyos. Uning cheksiz kengliklarida bir qator qadimiy yuksak moddiy va ma'naviy sivilizatsiya o'choqlari yuzaga kelgan. Birgina Yer yuzining 4 ta buyuk «daryo bo'yi» madaniyatlaridan uchtasining (Xitoy, Hindiston va Iroqdagi daryo vodiylari) joylashganligi uning ulug'vorligini tasdiqlaydi.

Osiyo jahonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ham muhim o'rin tutadi. Garchi unda, asosan, rivojlanayotgan davlatlar ko'pchilikni tashkil qilsa-da, yaqin kelgusida ularning jahon ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnining kuchayishi kutiladi. Osiyoda 5 ta subregion yaqqol ajralib turadi. Bular O'rta, Janubi-G'arbiy, Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyodir.

Iqtisodiy-geografik o'rnining ikki muhim tomoni yaqqol ko'zga tashlanadi. **Birinchidan, aksariyat mamlakatlarning bevosita dengiz bo'ylarida joylashganligi.** Bu holat ularning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan to'g'ri chiqishiga imkon beradi. Osiyo davlatlarining bir qismi serqatnov dengiz yo'llari, bo'g'ozlari ustida (Turkiya, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi kabilar) joylashgani ularning iqtisodiy taraqqiyotida juda katta omil bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qit'a mamlakatlardan 12 tasining quruqlik ichkari-sida joylashganligi va dengiz savdo yo'llariga bevosita chiqish imkoniyatidan mahrumligi.

Osiyoning tabiiy resurslari ham ancha boy va xilma-xil. U tabiiy mineral boyliklar bilan, ayniqsa, yaxshi ta'minlangan. Jahon neft zaxiralarining 70% i, gazining 80,2% dan ko'pi, ko'mirining 54% i uning hissasiga to'g'ri keladi. Neft va tabiiy gazga Fors qo'ltig'i bo'yi mamlakatlari, Rossiyaning Sibir hududlari, O'rta Osiyoning g'arbiy tekisliklari, Hindi-Xitoy yarimorolining dengiz sayozliklari ancha boy. Xitoy, Hindiston platformalari, Qozog'istonning qadimiy tog'li o'lkalari bo'ylab asosiy toshko'mir, marganes, qora va rangli metall konlari Tinch okean bo'yi hududlari (Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari) bo'ylab mashhur «qalay belbog'i» joylashgan. Jahonning eng yirik qalay konlari Osiyoning ana shu hududlarida uchraydi. Osiyoda boshqa turdagi tabiiy resurslar (suv, tuproq, o'rmon, rekreatsiya kabilar) tarqalishida ham katta tafovutlar bor. Jumladan, bir tomondan, oqar suv bilan yaxshi ta'minlangan hududlarning bo'lishi (Janubiy-Sharqiy Osiyo) bilan birga, ikkinchi tomondan, keng qurg'oqchil cho'llar ham borki, ularda suv haqiqiy muamodir. Bu holat qadimdan Sharq mamlakatlarida har tomchi suvdan unumli foydalanishga undagan, Osiyoni sun'iy sug'orish dehqonchiligining beshigiga aylantirgan. Haqiqatan ham tarixiy ma'lumotlar O'rta, Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyoda sug'oriladigan dehqonchilik bilan 4–5 ming yillardan buyon faol shug'ullanib kelinayotganini tasdiqlaydi. Ko'plab qadimiy sug'orish inshootlari Eron, Iroq, O'zbekiston va boshqalarda yuzlab yillar davomida saqlanib kelmoqda.

O'rmon boyliklari bilan Sibir va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalari yaxshi ta'minlangan. Ikkinchi tomondan esa tabiiy sharoiti tufayli ulkan cho'l va chalacho'l maydonlar o'simlik qoplamiga juda kambag'al. Xuddi shunga o'xshash katta tafovutlar tuproq, tabiiy namlik, ishlov beriladigan (haydaladigan) yerlar, rekreatsiya kabi resurslarning taqsimlanishida ham ko'zga tashlanadi. Bularning bari ulardan foydalanishda ikki jihatni e'tiborga olishni talab etadi.

Birinchidan, tirikchilikning asosiy manbayi hisoblanadigan yer resurslari (avvalo, ekin ekiladigan maydonlar) yetishmaydi. Asosiy maydonlari katta-katta tog' massivlari, qurg'oqchil cho'llar, cheksiz qumli va toshli hududlardan iborat bo'lganligi uchun ish-

lov beriladigan maydonlar ancha cheklangan. Bu muammo Osiyoning ko'pchilik mamlakatlaridagi eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ikkinchidan, bir-biriga teskari xususiyatli agroiklim imkoniyatlari. Osiyo hududining katta qismida quyosh tafti, uning isiqlik imkoniyatlari o'simliklarning vegetatsiya mavsumining davomli, hatto yil bo'yi davom etishiga imkon beradi. Ammo tabiiy namlik unda nihoyatda notekis taqsimlangan. Shu sababli ko'pchilik qishloq xo'jalik mintaqalarida dehqonchilik, asosan, sug'orish asosida (musson iqlimli rayonlarda qishda, boshqa qurg'oqchil rayonlarda yozda) olib boriladi. Osiyoda dehqonchilik ishlari, asosan, sug'orish asosida olib borilganligi sababli Yer yuzasidagi barcha sug'oriladigan yerlarning $\frac{3}{4}$ qismi uning hissasiga to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarning katta taligiga ko'ra jahonda Xitoy birinchi, Hindiston esa ikkinchi o'rinda turadi.

2.2. Osiyo mamlakatlari aholisi

Osiyo mintaqada jahon aholisining 60% idan ko'prog'i yashaydi. Osiyo aholisi ancha tez o'smoqda. Ammo aholisining ko'payish sur'ati davlatlar o'rtasida turlicha. Yaponiy, Gruzija, Isroil, Kipr, Xitoy kabi ayrim mamlakatlarni hisobga olmaganda, aksariyat davlatlarda tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari ancha yuqori. Har 1000 kishi hisobiga Afg'oniston, Yaman, Kambojja davlatlarida yiliga o'rtacha 50 tagacha tug'ilish to'g'ri keladi. Bu dunyo davlatlar orasidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Urbanizatsiya darajasiga ko'ra Osiyo alohida xususiyatga ega. Bu jihatdan uni «dunyo qishlog'i» deyishadi. Zero, unda shahar aholisining salmog'i (38,3%) ancha past. Urbanizatsiya jarayoniga xos Osiyoning yana bir xususiyati: unda yirik shaharlar, ayniqsa, «millioner» shaharlar ancha tez o'smoqda. Bu jarayon, ayniqsa, aholisi zich rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchayib bormoqda.

Ammo Osiyo ko'hna shaharlar o'lkasi hamdir. Unda qadimiy shaharlar bundan 3–4 ming yillar oldin paydo bo'lgan. Qadimiy shaharlar orasida eng dastlab Vavilon (Babil) miloddan avval-

gi VII asrdayoq «millioner» bo'lgan. Hozirgi paytda Qadimgi Troya (Turkiya), Palmira (Suriya), Balbek (Livan), Maxenjo-Daro (Pokiston), Varaxsha (O'zbekiston) kabi mashhur shaharlardan vayronalar ayrim qoldiq tarixiy yodgorliklar sifatidagina saqlanib qolgan. Bu «o'lik» shaharlar hozirgi kunda «tirik», ayni chog'da juda ko'hna hisoblanadigan Pekin, Dehli, Istanbul, Iyerusalim (Quddus), Bag'dod kabi shaharlar bilan birgalikda Osiyoning sayyohlarni ko'plab o'ziga jalb qiluvchi asosiy ziyoratgohlari hisoblanadi.


Aholi zich yashaydigan hududlarda qishloqlar ham deyarli bir-birlariga tutash, zich joylashgan. Ammo aholisi siyrak o'lkalar (Mo'g'iliston, Afg'oniston, ko'pchilik arab mamlakatlarning qurg'oqchil hududlari)da hamon ko'chmanchi hayot tarzi saqlanib qolgan. Bunday o'lkalarda aholi, asosan, yig'ma o'tov uylarda yashaydilar. Muqim joylashgan qishloqlarni uchratish qiyin.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. «Osiyo» atamasi qanday ma'noni bildiradi?
2. Osiyoda migratsiya jarayonlari qanday kechmoqda?
3. Osiyoda transport tizimi qanday darajada rivojlangan?
4. Osiyoda aloqa tizimlari rivojlanish istiqbollari qanday?

2.3. Osiyo davlatlarining ma'muriy bo'linishi

Osiyo mamlakatlari uzoq tarixiy rivojlanishga va o'ziga xos geografik xususiyatlariga ega. Ushbu region juda katta hududiy, tabiiy geografiq tafovutlarga ega va unda qadimdan yirik mamlakatlar va sivilizatsiyalar rivojlanib kelgan. Ularning rivojlanishida birinchi navbatda boy tabiiy resurslar, aholining tarixiy rivojlanishi, mehnat resurslari bo'lsa, ikkinchidan, ularning o'zaro aloqalari ham katta ahamiyat kasb etgan. Chunki rivojlanish uchun turli imkoniyatlar orasida mamlakatlarning geosiyosiy o'rni va ularning o'zaro aloqalari muhim rol o'ynaydi. Quyidagi chizmada mamlakatlarning rivojlanish darajalariga ta'sir etuvchi omillarning o'rni aniq ko'rsatilib o'tilgan.



2.4. Osiyo mamlakatlarining rivojlanish omillari va unda aloqa tizimining oʻrni

Osiyo davlatlari qitʼa boʻyicha maʼmuriy boʻlinishi darsliklarda turlicha yondashuvlarga asosanib qilingan. Shuning uchun Osiyo mamlakatlarining geografik joylashuviga qarab maʼmuriy boʻlinishini qilish maqsadga muvofiq. Shunga koʻra Osiyo mamlakatlarini quyidagi guruhlariga boʻlish kerak: **birinchi guruhga** Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya, KHDR, Xitoy, Filippin, Vyetnam, Tailand, Brunej, Malayziya, Indoneziya, Kambodja, Myanma, Laos, Singapur va boshqalar). Ularning geografik joylashuvi, rivojlanganlik darajalari, tabiiy resurslarga boyligi va aholisi, tuzumi va tuzilishi jihatidan ham turlicha baholash mumkin. Ularning barchasi uzoq rivojlanish tarixiga va geografiyasiga ega. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari orasiga kirsalar, Myanma, Kambodja,

Laos kabi mamlakatlar qoloq davlatlar sirasiga kiradi. Bunga, albatta, ularning tabiiy sharoiti va boyliklari, geografik joylashuvi, dengizlarga yaqinligi va siyosiy turg'unligi ham katta ta'sir etadi. Shunga qaramasdan ushbu regionning yirik dlatlaridan ba'zilariga atroflicha va alohida ta'rif berib o'tish kerak, chunki ular jahon iqtisodiyoti va rivojlanishida o'ziga xos o'rinlarda turadi.

Ikkinchi guruh mamlakatlariga Janubiy Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Ularga Hindiston, Bangladesh, Nepal, Shri-Lanka, Pokiston, Butan, Maldiv Respublikasi kiradi. Ushbu mamlaktlar orasida rivojlanish darajasiga ko'ra Hindiston, Pokiston kabi mamlakatlar alohida o'ringa ega.

Uchinchi guruhga G'arbiy Osiyo mamlakatlari kiradi va ularga Turkiya, Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA, Qatar, Ummon, Yaman, Bahrayn, Afg'oniston, Armaniston va Ozarbayjon kiradi. Bugugi kunda ushbu mamlakatlar boy energetika zaxiralariga ega mamlakatlardan bo'lib, ularning rivojlanish darajalari ancha yuqori. Bu regionda Yaqin va O'rta Sharq hamda 20 ta Kavkazorti mamlakatlari joylashgan. Uning maydoni 7 mln km², aholisi 245 mln kishidan ortiq. Bu regionda dunyodagi eng yirik yarimorol – Arabiston va Kichik Osiyo yarimoroli joylashgan. Bu regiondagi Afg'oniston, Armaniston va Ozarbayjondan tashqari barcha davlatlar dengiz bo'yida joylashgan. Bu iqtisodiy qulaylikdir. Lekin ushbu regionda ham qambag'al va iqtisodiy notinch mamakatlar bor. Ular qatoriga Falastin, Livan, Suriyalarni kiritishimiz mumkin.

To'rtinchi guruhga Markaziy Osiyo mamlakatlari kiradi va ularga O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlar orasida Tojikiston davlatining rivojlanish darajasi ancha past ko'rsatkichlarga ega.

Alohida ravishda Osiyo mamlakatlaridan Rossiya va Mongoliya davlatlarini ko'rsatib o'tishimiz kerak. Chunki Rossiya hududining 70% i Osiyoda, Mongoliya esa qit'aning ichkarisida joylashgan. Ularning rivojlanishiga esa hududining kattaligi va tabiiy resurslarga boyligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Markaziy Osiyo davlatlari qanday ajratiladi?

2. Osiyodagi davlatlarining rivojlanishi nimaga bog'liq?
3. Osiyoda aloqa tizimi qanday darajada rivojlangan?
4. Markaziy Osiyo regioning rivojlanishi qanday?

2.5. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga Yaponiya, Janubiy Koreya, KHDR, Xitoy, Filippin, Vyetnam, Tailand, Brunej, Malayziya, Indoneziya, Kambodja, Myanma, Laos, Singapur va boshqalar kiradi. Ular geografik joylashuvi, rivojlanganlik darajalari, tabiiy resurslarga boyligi va aholisi, tuzumi va tuzilishi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ularning ba'zilariga geografik ta'rif berish lozim.

Yaponiya

Yaponlar o'z mamlakatini qadimdan Nippon yoki Nixon deb atashadi. Bu so'zlarning ma'nosi «quyosh» yoki «asos» demakdir. Yaponiyani ko'pchilik kunchiqar mamlakat deb atashadi. Ramziy belgi sifatida davlat bayrog'iga quyosh tasviri tushirilgan. Yuqoridagi holatlarning barchasi Yaponiyaning tabiiy geografik o'rniga mos tushadi. 180° 5 soat farq. Yaponiya — Osiyoning sharqida, asosan, materik orollarida joylashgan davlat bo'lib, 4 ta yirik orol (Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku) va to'rt mingta mayda orollardan tashkil topgan. Yaponiya orollari 3,5 ming km ga cho'zilgan bo'lib, 200251 va 450331 shimoliy kenglik, 1220561 va 1530591 sharqiy uzunlikda joylashgan. Yapon orollarini shimoldan Oxota dengizi, janubdan Fillipin dengizi, janubi-g'arbdan Sharqiy Xitoy dengizi, g'arbdan Yapon dengizi va Koreya bo'g'ozi, sharqdan Tinch okean o'rab turadi.

Yaponiya Yevroosiyo va Tinch okean litosfera plitalarida to'qnashgan joyda joylashganligi uchun birinchi darajali seysmik va vulqonli mintaqaga hisoblanadi. Yaponiya hududida tez-tez zilzila bo'lishidan tashqari 188 ga yaqin vulqonlar joylashgan. Ulardan 40 tasi harakatdagi vulqonlardir. Yaponiya sohillarida tez-tez sunami va tayfunlar bo'lib turadi, musson yomg'irlari kuzatiladi.

Mamlakat maydoni 372,2 ming km² bo'lib, maydoniga ko'ra AQSH ning Kaliforniya shtatiga teng yoki O'zbekiston Respublikasi maydonidan 77 ming km² ga kichik.

Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'rne, avvalo, orollarda joylashganligi va materikka yaqinligi bilan belgilanadi. Bu avvalo, Yaponiyaning Rossiya Federatsiyasi, XXR va «Osiyo yo'lbarisi» davlatlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Ayni paytda Yaponiya Osiyo – Tinch okean regionining markazidir. Bu holatlar mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Yaponiya hukumati bilan Rossiya hukumati orasida Shikotan oroli mojarosi mavjud.

Yaponiya o'rmon resurslariga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Hududining 2/3 qismidan ko'prog'ini o'rmonlar egalagan. O'rmonlarining 1/3 qismini sun'iy o'rmonlar tashkil etadi. Ignabargli o'rmonlar jami o'rmonlarning 1/2 qismini egalagan. Yaponiya florasida 2750 ta o'simlik turi uchraydi, shundan 168 tasi daraxt o'simliklaridir. Faunasidagi endem turlarga: yapon maxakasi, qiziltumshuq maymun, ayiq, quyon, olmaxon, yapon xoldor bug'usi, ko'rshapalak, ko'pgina qushlar kiradi. Ryukyu oroli sut emizuvchilarga kambag'al. Yaponiya hududida sut emizuvchilarning 270 turi, qushlarning 800 turi, sudralib yuruvchilarning 110 turi, dengiz sohillarida esa baliqlarning 600 turi, molyuskalarning 1000 dan ortiq turi uchraydi.

Yaponiyada mineral resurslar juda kam. Mamlakat hududida toshko'mir, mis, oltingugurt, marganes, neft, tabiiy gaz, oltin kabi foydali qazilmalar uchraydi. Lekin ular mamlakat ehtiyojini qondirmaydi. Yoki ularni qazib olish chetdan import qilishga nisbatan qimmatga tushadi. Shuning uchun Yaponiya importining 49% ini yoqilg'ilar, 13% ini ruda va boshqa xomashyolar tashkil etadi. Shu bilan birga Yaponiya boy dengiz, geotermal, gidroenergiya va agroiklim resurslariga ega.

Keyingi vaqtda Yaponiya rekratsion resurslarga katta e'tibor qaratmoqda. Hozirda mamlakatda milliy bog'lar soni 25 taga yetadi, 1973-yil birinchi suvosti parki tashkil qilingan.

Yaponiya aholi soniga ko'ra dunyoda 10-o'rinda turadi. 2003-yilda uning aholisi soni 127,5 mln kishiga yetdi. Aholisi-ning tabiiy ko'payishi jihatidan Yaponiya «demografik tanglik» tipidagi davlat hisoblanadi. 2001-yil ma'lumotiga ko'ra mamlakatda tug'ilish koeffitsienti 90%, o'lim koeffitsienti 80% ni

tashkil etadi. Agar tugʻilish va oʻlim orasidagi nisbat shu holatda ketsa, Rossiya va Fransiya demograflarining maʼlumotlariga koʻra Yaponiya aholisining soni 2025-yil 121 mln kishi boʻlishi bashorat qilinmoqda. 2001-yil maʼlumotiga koʻra davlatda har bir ayolga 1,3 bola toʻgʻri keladi. 15 yoshgacha boʻlganlar soni dunyo boʻyicha umumiy aholi sonining 30% ini, Oʻzbekistonda 38% ni, Yaponiyada esa 15% ni tashkil etadi. 64 yoshdan yuqorilar esa dunyo boʻyicha 7% ni, Oʻzbekistonda 4% ni, Yaponiyada esa 17% ni tashkil etadi. Oʻrtacha umr koʻrish dunyo boʻyicha erkaklarda 65 yoshni, ayollarda 69 yoshni (Oʻzbekistonda esa 68–73 yosh) tashkil etgani holda bu koʻrsatkich Yaponiyada dunyo boʻyicha eng yuqorini, yaʼni erkaklarda 77 yoshni, ayollarda 84 yoshni, oʻrtacha esa 81 yoshni tashkil etadi. Yaponiya bolalar oʻlimi koʻrsatkichi eng past boʻlgan sogʻlom odamlar millati mamlakatidir. Dunyo boʻyicha bolalar oʻlimi koʻrsatkichi 1000 chaqaloqqa 56 kishini tashkil etgani holatida bu koʻrsatkich Angolada 198 kishini, Oʻzbekistonda 20 kishini, Yaponiyada 3 kishini tashkil etadi. Bunda davlat demografik siyosati, yaʼni oilani rejalashtirish va kechroq turmushga chiqishning targʻib qilinishi katta rol oʻynaydi.

Yaponiya aholisining milliy tarkibiga koʻra tipik bir millatli (99% yapon) davlatdir. Yapon xalqining etnogenezi haligacha toʻliq aniqlanmagan. Yapon orollarida ilgari odam yashamagan, neolit davrida Indoneziya orollaridan koʻchib kelgan aynlar va qitʼadan kelgan koreyslar aralashib murakkab etnik guruhni vujudga keltirgan. Mamlakatda yaponlardan tashqari koreyslar, xuasayalar va aynlar yashaydi.

Yapon tili juda oʻziga xos boʻlib, jahondagi til oilalaridan biron-tasiga kirmaydi. Yapon yozuvi tizimi ham ancha murakkab boʻlib, unda iyeroglif hamda boʻgʻinli harflar ishlatiladi.

Yaponiyada ikki asosiy din mavjud boʻlib, yaʼni sintoizm (milliy din) va buddizm (jahon dini). Odatda, dindorlar har ikki dinga ham eʼtiqod qiladilar.

Yaponiya yuksak madaniyat va yoppasiga savodxon mamlakatdir. Savadxonlik darajasini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Yaponiyadagi universitetlar soni butun Gʻarbiy Yevropadagidan koʻp, ilmiy xodimlar soni esa Buyuk Britaniya, Fransi-

ya va GFR ni qo'shib hisoblagandagidan ham ko'p. Mamlakatda qadimgi madaniyat, badiiy va turmush an'analari yapon turmush tarzining ajralmas qismi bo'lib saqlanib qolgan. Masalan: ikebana, bonsoy, kalligrafiya, jonli manzaralar chizish, choy tantanasi, kimono ayollar kiyimi, sumo kurashi, dzyudo, yaponcha dasturxon yasatish, sakuraning gullashini tomosha qilish, zarang o'rmonida sayr, bahorgi va kuzgi tengkunlik bayramlari va h.k. Yaponiyada yiliga 40 dan ortiq turli-tuman festivallar o'tkaziladi. Ulardan eng mashhuri «oq orolda»gi qor festivalidir.

Mamlakatda 200 dan ortiq yirik shaharlar bo'lib, ulardan 11 tasi millioner shaharlardir. Ular quyidagilar: Tokio (8 mln), Iokogama (3,3 mln), Osaka (2,6 mln), Nagoya (2,1 mln), Sapporo (1,7 mln), Kobe (1,4 mln), Kioto (1,4 mln), Fukuoka (1,3 mln), Kawasaki (1,2 mln), Xirosima (1,1 mln), Kitakyusyu (1,02 mln).

Tokio shahridan Kobe shahrigacha 600 km masofada Tokaydo megapolisi joylashgan. Bu megapolis «katta uchlik»dan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Tokio aglomerasiyasi o'z ichiga Tokio, Iokogama, Kawasaki, Tiba shaharlarini olgan bo'lib, ularda jami 27 mln aholi yashaydi.

2. Xansin aglomerasiyasi o'z ichiga Osaka, Kobe, Kioto shaharlarini olgan bo'lib, ularda jami 15 mln aholi yashaydi.

3. Tyune aglomerasiyasi Nagoya shahri va uning atrofini o'z ichiga olgan bo'lib, unda 10,2 mln aholi yashaydi.

Tokaydo megapolisida aholi zichligi 1 km² ga 800–1000 kishi-ga yetadi. Bu megapolis va uning atrofida (70000 km²) Yaponiya aholisining 56% i (70 mln) yashaydi.

Umuman, Tinch okean va Ichki Yapon dengizi sohillaridagi urbanizatsiyalashgan hudud mamlakat maydonining 1/3 qismini egallagan bo'lib, unda jami aholining 3/4 qismi yashaydi.

Yaponiyada yerlar juda qimmat va taqchil resurs bo'lganligi sababli «osmono'par binolar» va «yerosti» uylar qurishga erishilmoqda. Shuningdek, Yaponiya dengiz hisobiga o'z hududini kengaytirayotgan tipik davlat hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va baliq ovlash bilan band edi. Hozirda esa bu tarmoqlarda iqtisodiy faol aholining 20% i, faqat qishloq

xo'jaligining o'zida 5% aholi band. Sanoat tarmoqlarida esa 33% dan ortiq aholi band. Endilikda nomoddiy sohalarda ishlovchi xodimlar, ya'ni xizmatchilar, ilmiy xodimlar, ishbilarmonlar soni tez ortib bormoqda. Yaponiyada aholining hayot darajasi juda yuqori, ya'ni jon boshiga YIM 25000 dollarga teng keladi.

Yaponiyada hozirga kelib ayollar sonining erkaklar soniga nisbatan ortishi kuzatilmoqda.

4. Yaponiya — BMT, ASEAN va Xalqaro Valuta Fondi (MVF) tashkilotlariga a'zo. Davlat tuzumiga ko'ra — konstitutsion monarxiya bo'lib, amaldagi konstitutsiya 1947-yilda qabul qilingan. Davlat boshlig'i imperator (Axikito, 1989-yildan) faqat davlat «ramzi» deb tan olinadi. Hokimiyat boshlig'i primer-mi-nistr (Bosh vazir)ga berilgan. Yaponiya hududi siyosiy-ma'muriy jihatidan 47 ta prefekturaga bo'linadi. Tokio, Kioto, Osaka shaharlari, Xokkaydo va Okinava orollari alohida prefektura maqomiga ega.

Davlat tili — yapon tili, boshqa til — ayn tili.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Liberal — demokratik partiya (LDP) 1955-yilda tuzilgan.
2. Yaponiya Demokratik partiyasi (YDP) 1960-yilda tuzilgan.
3. «Sakigake» partiyasi 1964-yil tuzilgan.
4. «Komeyto» (Sof siyosat partiyasi) 1964-yilda tarkib topgan.
5. Yaponiya kommunistik partiyasi (YKP)ga 1922-yilda asos solingan.



Ilgari Yaponiyaning ramzi Fudziyama, sakura, samuraylar hisoblangan bo'lsa, endilikda bunday ramz eng katta AESlar, metallurgiya kombinatlari, supertankerlar, ko'priklar, tunnellar, tezkor temiryo'llar, zamonaviy avtomobillar hisoblanadi. 1970-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Yaponiyada YIM yiliga o'rtacha 5% dan o'sib ketdi. Yaponiya fanga sarflanadigan mablag' salmog'iga ko'ra jahonda rivojlangan davlatlar orasida 1-o'ringa chiqdi: har 100 dollardan 10 dollar sarflanadi.

2000-yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YIM qiymati bo'yicha dunyoda 2-o'rinni egalladi, ya'ni 38200 AQSH dollari. Yalpi milliy daromad ko'rsatkichi bo'yicha 2000-yil Yaponiya dunyoda Yevropa Ittifoqi, Xitoy va AQSHdan keyin 4-o'rinni egalladi. YMD shu yili 5 trln AQSH dollarini tashkil etdi.

Dunyo tashqi savdosi taqsimotining 9% i Yaponiya hissasiga to'g'ri keladi.

Yaponiya sanoatidagi yetakchi tarmoqlardan biri bu yoqilg'i energiya sanoatidir. Yaponiyada neft va tabiiy gaz qazib olin-sa-da, u ehtiyojni qondirmaydi. Yaponiya dunyoda neft importi bo'yicha 2-o'rinda turadi. U yiliga 210–220 mln t neft sotib oladi (umumjahon neft savdosining 14% i). Neft, asosan, OPEK davlatlaridan keltiriladi. Ko'mir, asosan, Avstraliya, JAR, AQSH va Kanadadan keltiriladi.

Yaponiya elektr-energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. U yiliga 950 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu butun jahon elektr energiyasining 7,5%i demakdir. Mamlakatda gidro, geotermal, quyosh, qalqish va to'liq elektro stansiyalari mavjud, lekin elektr energiyasining asosiy qismini IES va AES lar beradi. Yaponiyada 30 dan ortiq AES lar bor, dunyodagi eng yirik AES (Fukusima) shu davlatda joylashgan.

Metallurgiya sanoati. Yaponiya po'lat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. U yiliga 98 mln t po'lat eritadi. Bu umumjahon po'latining 13,6% i. Lekin po'lat eritish salmog'i yil sayin kamayib bormoqda. Masalan, Yaponiya 1990-yil 110 mln t po'lat eritgan edi. Buning asosiy sababi mashinasozlikning metallga bog'liqligi kamayishi va fanga talabgor sanoat tarmoqlarining kuchayishidir.

Organik sintez va neft-kimyo sanoati tarmoqlari, asosan, dengiz portlarida, ayniqsa, Ichki Yapon dengizi bo'ylarida to'plangan. XX asrning ikkinchi yarmida II jahon urushiga qadar Yaponiyada avtomobilsozlik bo'lmagan edi, avtomobilsozlikda Yaponiya ulkan yutuqlarga erishgan. U avtomobil «jangi»da AQSHni yutib chiqib, dunyoda 1-o'rinni egalladi. Yaponiya yiliga 13 mln dona avtomobil ishlab chiqaradi. Bu dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan (50 mln dona) avtomobillarning 26% i demakdir. Yaponiyaning «Xonda», «Nissan» va «Toyota» kabi zamonaviy avtomobillari dunyoga mashhur. Yaponiyadagi Tokio, Osaka, Nagoya, Kawasaki kabi shaharlar Yaponiyada avtomobilsozlik bo'yicha eng yirik hisoblanadi.



Hozirgi Yaponiya iqtisodiyotining faxri va ramzi elektrotexnika va elektronika sanoatidir. Ayniqsa, radioelektronika sanoatida rangli televizorlar, videomagnitofonlar, radiotexnikalar ishlab chiqarish ustunlikka ega. Televizorlar ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda 3-o'rinda turadi. U yiliga 15 mln donadan ortiq televizor ishlab chiqaradi.

Kemasozlik sanoati. Kema ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Kemasozlik sanoatining eng yirik markazlari Iokogama, Osaka, Kobe va Nagasaki kabi shaharlarda joylashgan. Ularda kemasozlikning xilma-xil tarmoqlari rivojlangan. Yaponiyada dunyodagi eng yirik supertankerlar, xilma-xil kit ovlovchi kemalar, traulerlar va kichik kemalar ishlab chiqariladi.

Kimyo sanoatining rivojlanishi va sanoat mahsulotining hajmiga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3-o'rinda turadi. Bu sanoatning asosiy xomashyosi koks chiqindisi, neft va tabiiy gaz hisoblanadi. Organik sintez kimyosi keng ko'lamda rivojlanmoqda. Kimyo sanoatida mineral o'g'itlar, medikamentlar, kosmetika, plastmassa, sun'iy tola, bo'yoqlar, noorganik ximikatlarni ishlab chiqarish ustun turadi.

O'rmon sanoati tarmoqlarini Shimoliy Xonsyu va Hokkaydo orollaridagi o'rmon massivlari xomashyo bilan qisman ta'minlaydi. O'rmon xomashyosining asosiy qismi chetdan (Braziliya, Tropik Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo) keltiriladi. Yaponiya sanoatining xomashyo bilan ta'minlanishida importning salmog'i juda yuqori. Masalan, jami misning 3/4 qismi, temir rudasi-ning 9/10 qismi, toshko'mirning 8/10 qismi chetdan keltiriladi. Shuning uchun ham keyingi vaqtlarda FTI ning eng so'nggi yutuqlariga tayangan holda dunyo okeani mineral resurslaridan foydalanish samarasi ortib bormoqda. Chunonchi, okean tubidan marganes qotishmalarini qazib olish, dengiz suvidan uran ajratib olish va h.k.

Baliq ovlash — Yaponiya xo'jaligining muhim tarmog'idir. Baliq, asosan, Yapon dengizi va Tinch okeanning shimoliy qismlaridan ovlanadi. Bulardan tashqari Yaponiya sohillari va Ichki Yapon dengizida marikultura, quruqlikda esa akvakultura usulida baliq va boshqa dengiz mahsulotlari yetishtiriladi. Yaponiya baliq ovlash bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi (yiliga 13–14 mln t). Mamlakat baliq ovlovchi flotida 10 minglab traulerlar mavjud. Eng yirik baliq ovlovchi portlari Iokosuka, Kitakyusyu, Nagasaki, Kagosima, Niigata, Abasiri kabilar.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 1,2 mln km bo'lib (umumjahon avtoyo'llarning 4,8% i), uning 43% i qattiq qoplamli, 5 ming km esa tez qatnov yo'llaridir. Avtomobillar soniga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi (1000 kishiga 500 ta). Mamlakatda tashiladigan jami yukning 7,4% i, yo'lovchilarning 57% i avtotransport hissasiga to'g'ri keladi.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi 30 ming km bo'lib, ularning yarmi elektrlashtirilgan. Eng muhim temiryo'li «Sinkansen» magistrali bo'lib, u Kyusyu orolidan Xonsyu orolining shi-

molidagi Aomori shahrigacha 1100 km ga choʻzilgan. Bu yoʻlda qatnovchi «Poyezd – oʻq» («Xikari») soatiga 240 km tezlikda harakatlanib, yiliga 120 mln yoʻlovchi tashiydi. Bunda u 66 ta tunnel va 3000 ta koʻprikdan oʻtadi. Xonsyu va Xokkaydo orollari orasidagi Sugari boʻgʻoziga dunyodagi eng uzun (54 km li) tunnel qurilgan (1970–1988). Mazkur «Seykan» tunneli 23 km suv ostidan oʻtgan. Bu yoʻl «Tokio – Sapporo» oraligʻidagi poyezd qatnovini ancha tezlashtirdi.

Yaponiyada tashiladigan jami yukning 91,7% i dengiz transportida, 7,4% i avtomobil transportida, 0,7% i temiryoʻl transportida, 0,2% i havo transportida tashiladi.

Yaponiyada tashiladigan jami yoʻlovchining 56,9% i avtomobil transportida, 33,9% i temiryoʻl transportida, 8,7% i havo transportida, 0,5% i boshqa transport turlarida tashiladi.

Yaponiya yoʻlovchi tashuvchi temiryoʻllarning zichligiga koʻra dunyoda 1-oʻrinda turadi. Temiryoʻllarning eng serqatnov qismi Tokio–Osaka oraligʻidir.

Yaponiyaning tashqi va ichki aloqalarida dengiz transporti muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda tashiladigan barcha yukning 91,7% i dengiz transporti hissasiga toʻgʻri keladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar orasida eng katta va eng zamonaviy savdo flotiga ega. U dunyoda yuk tashish tonnasi boʻyicha 6-oʻrinda turadi (yiliga 22 mln reg t). Mamlakatda 100 dan ortiq portlar boʻlib, ular ichida eng yiriklari Tokio, Tiba, Iokagama, Nagoya, Kobe, Kavasaki, Osaka, Xerosima, Kitakyusyu kabilar.

Havo transporti mamlakatning asosiy xalqaro va ichki aloqalarida muhim ahamiyatga ega. Yaponiyada tashiladigan jami yukning 0,7% i, yoʻlovchining 8,7% i havo transporti hissasiga toʻgʻri keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Yaponiya iqtisodida hayotiy ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi mamlakat iqtisodining koʻp sohalarida chet el xomashyosiga tayanishi va tayyor sanoat mahsulotlarining eksport qilinishidir.

Yaponiya jahonning juda koʻp mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi (oborot)ning katta qismi (1/3 qismi) AQSH hissasiga toʻgʻri keladi. Yaponiya eksportining 1/3 va importining 1/4 qismi AQSH

ga to'g'ri keladi. AQSH dan tashqari asosiy savdo sheriklari Xitoy, Avstraliya, Germaniya, Indoneziya va «Osiyo yo'lbarslari» davlatlari.

XX asrning 50–60-yillaridan boshlab Yaponiya eksportida kapitalning salmog'i to'xtovsiz oshib bormoqda. Kapitalning asosiy qismi Janubi-Sharqiy Osiy davlatlari (avvalo, «Yapon modeli» asosida rivojlanayotgan «Osiyo yo'lbarslari» davlatlari) G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSH ga to'g'ri keladi. Keyingi vaqtlarda Yaponiyada rivojlanayotgan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari o'sib bormoqda.

Yaponiya milliy valutası – sena erkin almashinadigan valyuta (SKV) bo'lib, u xalqaro valutalar qatoriga kiradi. Uning qiymati hozirda (2006-yil 1-aprel ma'lumoti) quyidagicha: 1 dollar = 118,9 iyen, 1 dollar = 1 dollar 26 sent.

Koreya Respublikasi

Koreya – Yevroosiyo sharqida, Koreya yarimorolida joylashgan qadimgi davlat. Koreyada qadimdan madaniyat rivojlangan bo'lib, hozirgi vaqtda qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikni faollashtirayotgan Sharqiy Osiyoning markazidir.

Qirg'oqlarini G'arbdan Sariq (G'arbiy) dengiz, Sharqda Sharqiy (Yapon) dengiz suvlari yuvib turadi. Mamlakatning umumiy maydoni 99,392 ming km².

Mamlakatda tog'li relyef ustun (70%), iqlimi kontinental musson iqlimi, yiliga 900–1500 mm yog'in yog'adi.

Aholi soni 2008-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 49,2 mln kishini tashkil etgan, u past sur'atlarda (0,4%) o'smoqda. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga deyarli 500 kishi to'g'ri keladi. Koreyaning etnik tarkibi boy emas. Mamlakatda oz miqdorda xitoylar mavjud. Tug'ilish koeffitsienti 12,6, o'lim koeffitsienti 8,8 va tabiiy o'sish koeffitsienti 3,8 promillega teng. Janubiy Koreyada urbanizatsiya darajasi 88% dan ziyod. Yirik shaharlar qatoriga Seul (10,4 mln kishi), Tegu (2,3 mln), Inchxon (1,9 mln), Kvanchju (1,2 mln), Tedjon (1,1 mln), Ulsan va Suvon kiradi.

Iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i sanoatga YMMning 39,4% i, xizmat ko'rsatish sohasiga 57,6% i, qishloq xo'jaligiga 3% i to'g'ri keladi. Metallurgiya, mashinasozlik (avtomobilsoz-

lik, kemasozlik, elektrotexnika va elektronika mashinasozligi, og‘ir mashinasozlik), kimyo va neft-kimyo sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati yuqori ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreya «Samsung – Elektroniks», «Hunday», «Posko» va boshqa shu kabi industrial gigantlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Ushbu korxonalar mahsulotlarining katta qismi eksport qilinadi.

Transport tizimi juda yaxshi rivojlangan. Seul va Inchxon shaharlari xalqaro transport logistik markazlari rolini bajarmoqda. Inchxon dunyodagi eng yirik aeroport bo‘lib, 44 ta mamlakatdagi 141 ta shahar bilan tog‘ridan to‘g‘ri avialiniyalarga ega. Temiryo‘l Seul shahrini tezyurar poezdlar (350 km/soat) orqali mamlakatning boshqa shaharlari bilan bog‘laydi.

Janubiy Koreya tashqi savdosining hajmi 1980-yili 17,5 mlrd AQSH dollaridan, 2007-yilga kelib esa 700 mlrd AQSH dollaridan oshdi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Janubiy Koreya Jahon mamlakatlari ichida 11-o‘rinni, eksport bo‘yicha (422 mlrd doll.) esa 12-o‘rinni egallaydi.



Mavzu yuzasidan savollar:

1. «Nippon» atamasi qanday mazmunga ega?
2. Osiyoda Janubiy Koreya qanday rivojlanish istiqbollariga ega?
3. Yaponiya transport tizimi qay darajada rivojlangan?
4. Sharqiy Osiyoda aloqa tizimlarining rivojlanishi qanday?

2.6. Janubiy Osiyo mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi

Janubiy Osiyo mamlakatlariga Hindiston, Bangladesh, Nepal, Shri-Lanka, Pokiston, Butan, Maldiv davlatlari kiradi. Ushbu mamlakatlardan rivojlanish darajasiga ko'ra Hindiston, Pokiston kabi mamlakatlar alohida o'ringa ega. Shuning uchun quyida Hindiston mamlakati va uning rivojlanish darajasiga haqida to'xtalamiz.

Hindiston. Hindiston janubiy Osiyodagi aholi soni va maydoniga ko'ra eng yirik davlat. Maydoni 3291 (3288) mln km² bo'lib, maydoniga ko'ra dunyoda 7-o'rinda turadi. Iqtisodiy geografik o'rni mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun qulay. Mamlakatning quruqlik chegarasi 15000 km, dengiz chegarasi 5,5 ming km. Quruqlik chegarasi orqali 7 ta davlat bilan chegaradosh bo'lib, bu chegaralar baland tog' va cho'llardan o'tganligi uchun iqtisodiy jihatidan u qadar qulay emas. Mamlakatning janubiy qismi yarimoroldan iborat bo'lib, bu qism Janubi-G'arbiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Afrika davlatlari o'rtasidagi dengiz yo'llari o'rtasida joylashgan.

Hindiston Yevropa, Osiyo va Avstraliya o'rtasidagi muqim xalqaro havo yo'llari tugunida joylashgan. Masalan, Moskva — Toshkent — Dehli — Singapur. Hindiston hududi shimoldan janubga 3200 km, g'arbdan sharqqa 2700 (2900) km ga cho'zilgan.

Hindiston aholisi demografik portlashda. Masalan, 1988-yil mamlakatda 800 mln kishi yashagan bo'lsa, u yiliga 15–17 mln kishiga ko'payib, 2003-yil 1068 mln, 2006-yil 1122 mln kishiga yetdi. Tug'ilish koeffitsienti 25%, o'lim 8%. Bir ayolga 3,1 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 36% ini, 64 yoshdan o'tganlar 4% ini tashkil etadi. O'rtacha umr 62–64 yosh. YMD — 2820 (2001) AQSH dollariga to'g'ri keladi. Mamlakat chaqaloqlarning umumiy soniga ko'ra (yiliga 27 mln) dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ayni paytda chaqaloqlar o'limi bo'yicha ham dunyoda yetakchi (yiliga 9 mln). Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Hindiston birinchi bo'lib oilani rejalashtirishga o'tgan, lekin u yaxshi samara bermadi. Sababi ko'p asrlik yosh nikoh qurish an'anasidir. Hind aholisi etnik tarkibiga ko'ra ham dunyoda 1-o'rinda. Hindistonda 150 dan ortiq xalqlar bor. Asosiy tillar

15 ta, shevalar soni 1,6 mingta. Eng yirik xalqlari: hindlar, bi-xarlar, bengallar. Hindistonliklar tili – hind tili, millatlararo mu-omala tili – ingliz. Aholisining 83% i induizmga, 11% i islomga, qolgani xristian, sinkxizm va buddizmga e'tiqod qilishadi. Vara-nasi va Gang daryosi induizm dini uchun, Lumbini shahri bud-distlar uchun muqaddas joy.

Mamlakatda urbanizatsiya darajasi 26%. Hindistonda 4500 ta shaharlar bor, millioner shaharlar soni 23 ta. Eng yiriklari: Mum-bay (12,6 mln) va Kalkutta (11 mln). Hindistonda 600 mingdan ortiq qishloqlar bor.

Hindistonni XVIII asrda inglizlar bosib olgan va 200 yil mus-tamlaka qilgan. U 1947-yil 15-avgustda mustaqillikka erishgan va 1950-yil 26-yanvarda Respublika deb e'lon qilingan. Davlat tuzu-miga ko'ra Federativ Respublika bo'lib, 25 ta shtatdan va 6 ta it-tifoqdosh hududdan tashkil topgan. Kashmir va Panjobda siyosiy ahvol yaxshi emas. Asosiy siyosiy partiyasi Hindiston milliy kon-gressidir (1885-yilda tuzilgan).

Hindiston xo'jaligi ulkan tafovutlar mamlakati. Masalan, bir tomonda industrlashtirish, tub agrar islohotlar, kosmik dasturlar-ning amalga oshirishi, qudratli sanoat korxonalari, AES lar, ik-kinchi tomonda qashshoq aholi va qoloq qishloq xo'jaligi, yersiz-lik, uysizlik, yerga omoch va ho'kizda ishlov berish. Hindiston umumiy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahonda 11-o'rinda tura-di, lekin jon boshiga YIM bo'yicha 102-o'rinda (340 AQSH dol-lari) turadi.

Hindiston qoramollar soniga ko'ra (250 mln) dunyoda 1-o'rinda, lekin dunyoda go'sht iste'mol qilish bo'yicha oxirida turadi.

Qishloq xo'jaligi traktorlarini ishlab chiqarish bo'yicha (yili-ga 110 ming) dunyoda Rossiya va Yaponiyadan keyin turadi, le-kin qishloq xo'jaligida haligacha omoch, ho'kiz, aravadan foyda-laniladi.

Temiryo'llar uzunligi bo'yicha Osiyoda 1-o'rinda, lekin ular-ning bari tor izli temiryo'llardir.

FTI mutaxassislari soniga ko'ra Rossiya va AQSH dan keyin turadi, lekin ular chet ellarga ko'p ketib qolmoqda.

Kinofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda (750 ta) 1-o'rinda turadi, lekin aholisining yarmidan ko'pi savodsiz.

Hindistonda iqtisodiy faol aholi soni 626 mln kishi bo'lib (Xitoydan keyin 2-o'ringda), uning 1/5 qismi sanoatda band. Aholisining 70% dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Mamlakatning asosiy qazilma boyliklari ko'mir, temir rudasi, marganes, mis, uran, titan, neft, olmos kabilardir. Ko'mir qazib chiqarish bo'yicha (yiliga 210 mln t) Hindiston dunyoda 6-o'ringda turadi. Damadar vodiysi – Hindiston Ruridir. Temir rudasi qazib olishda ham dunyoda 6-o'ringda turadi. U yiliga 55 mln t dan ortiq temir rudasi qazib oladi, bu AQSH bilan tengdir. Temirning 40% i eksport qilinadi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha Hindiston dunyoda 8-o'ringda (yiliga 380 mlrd kVt/s) turadi. Elektr energiyasini, asosan, IES, AES (3 ta) va GES lar beradi. Mamlakatning yetakchi sanoat tarmoqlari: yengil sanoat, oziq-ovqat, metallurgiya, mashinasozlik va kimyo. Ma'lumki, jahon yengil sanoati 5 ta regionda kuchli rivojlangan bo'lib, ularning biri Janubiy Osiyodir. Hindistonda ip-gazlama va jut-gazlama sanoatlari yaxshi rivojlangan. Ip-gazlama – Bombeyda, jut-gazlama – Kalkuttada. Oziq-ovqat sanoatida choy, qand-shakar, o'simlik moyi (yeryong'oq), qandolatchilik yetakchi o'rin tutadi. Mamlakatda qora metallurgiya sanoati rivojlangan bo'lib, u dunyoda po'lat eritish bo'yicha 10-o'ringda (yiliga 18 mln t) turadi. Rangli metallardan alyuminiy eritish yaxshi rivojlangan. Eng yirik metallurgiya markazi – Bakaro shahrida joylashgan.





Hindiston xo'jaligida dastgohlar, traktorlar, avtomobillar, teplovozlar, televizorlar, EHM lar, AES lar uchun jihozlar, kosmik sanoat uchun jihozlar, kimyoviy tolalar, farmosevtika («Farmed» qo'shma korxonasi) kabilar rivojlangan.

Mamlakatning tog'-kon sanoati, ayniqsa, Dekan yassitog'ligida kuchli rivojlanib bormoqda. Bu yerdagi og'ir sanoatning eng muhim yangi qurilishlarini J.Neru «Yangi Hindistonning qasrlari» deb atagan.

Hindiston xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishida 4 ta yirik markaz ajralib turadi. Ular iqtisodiy poytaxtlardir: Dehli, Madoras, Bombay, Kalkutta.

Dehli 1911-yildan beri mamlakat poytaxti, hozirda Yangi Dehli. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik yetakchi, bunga sabab tabiiy sharoitning qulayligidir. Mamlakat hududi, asosan, subekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan. U haydaladigan yerlar maydoniga ko'ra faqat AQSH dan keyin turadi, xolos. Mamlakat qishloq xo'jaligi, asosan, 2 mavsumga, ya'ni rabi (qish) va harif (yoz) mavsumiga bo'linadi.

Hindiston qishloq xo'jaligida sholi, choy, paxta, shakarqamish, bug'doy, yeryong'oq, ziravorlar yetishtirish yetakchi o'rin tutadi. Hindiston dunyoda sholi yetishtirish bo'yicha 2-o'rinda (yiliga 110 mln t Xitoydan keyin), shakarqamish yetishtirish

bo'yicha 2-o'rinda (yiliga 170 mln t Braziliyadan keyin), choy yetishtirish bo'yicha 1-o'rinda, bug'doy yetishtirish bo'yicha 3-o'rinda (yiliga 50 mln t Xitoy va AQSH dan keyin), paxta yetishtirish bo'yicha 3-o'rinda (yiliga 1,7 mln t paxta tolasi, Xitoy va AQSH dan keyin), yeryong'oq va ziravorlar yetishtirish bo'yicha 1-o'rinda turadi.

Hindiston dunyoda qoramollar soni (250 mln bosh), echkilar soni (77 mln bosh) bo'yicha birinchi o'rinda turadi, lekin hind aholisi go'sht, sut, hayvon yog'i, tuxum iste'mol qilish bo'yicha dunyoda oxirgi o'rinlarda (jon boshiga 1,5–2 kg) turadi. Bunga sabab induizm dini (vegeterianlik).

Hindiston transportida yetakchi o'rinda temiryo'l, avtomobil va dengiz transporti turadi. Temiryo'llarning uzunligi bo'yicha (63 ming km) mamlakat Osiyoda birinchi o'rinda tursa-da, temiryo'llarning tor izligi va lokomotivlarning eskiligi temiryo'l transportining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Avtoyo'llarning uzunligi 1,7 mln km bo'lib, uning 833 ming km qattiq qoplamalidir. Mamlakat ichidagi umumiy tashiladigan yukning 80% i, yo'lovchining 70% i temiryo'l transportiga to'g'ri keladi.


Hindiston tashqi savdosida dengiz transporti yetakchi. Eng yirik dengiz porti — «bosh darvoza»si Bombay, keyin esa Kalkutta turadi. Asosiy eksporti: choy, shakaramish, ip-gazlama (paxta), kanop, charm, dorivorlar, farmatsevtika mahsulotlari, mashina va jihozlari, zargarlik va badiiy hunarmandchilik buyumlari, kiyim-kechak.

Asosiy importi: neft, mashina va jihozlar, oziq-ovqat, mineral o'g'itlar, po'lat.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Rossiya, Yaponiya, GFR. Pul birligi — hind rupiyasi.

Fosforitning yirik konlari Iordaniyada (dunyoda 5-o'rinda). Kaliy tuzining yirik konlari Isroilda (5-o'rinda). Oltingugurtning yirik konlari Iroqda (dunyoda 4-o'rinda). Mis va xromning yirik konlari Eron va Turkiyada. Hidroenergiya resurslariga Afg'oniston, Gruziya va Armaniston boy. Turkiya va Kiprning O'rta Yer dengizi sohillari tabiiy-rekreasion resurslarga boy. Shuning uchun u yerlarda sayyohlik rivojlangan.

Hindiston taraqqiyotini beshta bosqichga



Mavzu yuzasidan savollar:

1. Hindiston tashqi savdosida dengiz transporti qanday darajaga ega?
2. Janubiy Osiyoda Hindiston qanday rivojlanish istiqbollari-ga ega?
3. Hindiston aloqa tizimi qanday darajada rivojlangan?

2.7. G'arbiy Osiyo mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi

G'arbiy Osiyo mamlakatlariga Turkiya, Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA, Qatar, Ummon, Yaman, Bahrayn va boshqalar kiradi. Bugugi kunda ushbu region mamlakatlari boy energetika zaxiralariga ega mamlakatlardan bo'lib, ularning rivojlanish darajalari ancha yuqori. Ushbu davlatlardan ham muhimlariga ta'rif berib o'tamiz. Bu regionda 20 ta Yaqin va O'rta Sharq hamda Kavkazorti mamlakatlari joylashgan. Uning maydoni 7 mln km², aholisi 245 mln kishidan ortiq. Bu regionda dunyodagi eng yirik yarimorol – Arabiston va Kichik Osi-

yo yarimoroli joylashgan. Afg'oniston, Armaniston va Ozarbayjondan tashqari barcha davlatlar dengiz bo'yida joylashgan. Bu iqtisodiy qulaylikdir. Bu regionning iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi: ko'pchilik davlatlarning dengiz bo'yida joylashganligi, Yevropa, Shimoliy Afrika va Hindistonga yaqinligi, muhim dengiz va havo yo'llarida joylashganligi, neft va tabiiy gazga boyligi. Bu regionning iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlari: Turkiya, Isroil, Kipr. Eng qoloqlari: Afg'oniston, Yaman.

Janubi-G'arbiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o'rni quyidagicha: bu region yer shari maydoninig 4,6% ini egallagan; dunyo aholisining 4,6% ini o'z ichiga oladi; dunyo bo'yicha YIM ning 2,6% ini shu region beradi; dunyo bo'yicha yalpi eksport mahsulotining 3,7% i shu regionga to'g'ri keladi.

Tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Turkiya, Armaniston, Afg'oniston, Eron kabi davlatlarda tog'lar katta maydonni egallagan. Arabiston yarimoroli davlatlarida cho'llar (Rub el-Xali, Katta va Kichik Nefut, Suriya), Eronda esa sho'rxok cho'llar (Dashti Kevir, Dashti Lut) katta maydonlarni egallagan. Iqlimiy jihatdan regionning shimolini subtropik, katta janubiy qismini esa tropik iqlim mintaqasi egallagan.

Regionning asosiy foydali qazilmalari neft va tabiiy gaz. Jahon neft zaxirasining 2/3 qismi, qazib olishning 1/4 qismi Fors korfazibo'yi davlatlariga to'g'ri keladi. Neft zaxirasi bo'yicha dunyoda Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA yetakchi o'rinda turadi.

Dunyoda topilgan 30 ta ulkan neft konining 15 tasi Fors korfaziga to'g'ri keladi. Gavar (Saudiya Arabistoni), Al-Burhon (Quvayt), Manifa (Saudiya Arabistoni) kabi konlardan sutkasiga 2 ming tonnagacha neft fontan bo'lib otilib chiqadi. Neft quduqlarining umumiy soni 5 mingta.

Tabiiy gazni qazib chiqarish bo'yicha Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron va BAA davlatlari yetakchi.

Fosforitning yirik konlari Iordaniyada (dunyoda 5-o'rinda), kaliy tuzining yirik konlari Isroilda (5-o'rinda), oltingugurtning yirik konlari Iroqda (dunyoda 4-o'rinda), mis va xromning yirik konlari Eron va Turkiyada juda ko'p. Hidroenergiya resurslariga Afg'oniston, Gruziya va Armaniston boy. Turkiya va Kipr-

ning Oʻrtayer dengizi sohillari tabiiy-rekreatsion resurslarga boy. Shuning uchun u yerlarda sayyohlik rivojlangan.



Aholisi. Kavkazorti davlatlari, Isroil va Kiprdan tashqari barcha davlatlarda demografik portlash avjida, ayniqsa, Falastin hududida (yillik oʻsish 3,7%). Aholi soniga koʻra Turkiya (71 mln 2003-yil, 73,7 mln 2006 yil); Eron (67 mln 2003-yil, 71 mln 2006-yil); Afgʻoniston (29 mln 2003-yil, 31 mln 2006-yil); Iroq (24 mln 2003-yil, 29,6 mln 2006-yil); Saudiya Arabistoni (24 mln 2003-yil, 24 mln 2006-yil); Yaman (19 mln 2003-yil, 21,6 mln 2006-yil); Suriya (18 mln 2003-yil, 29,5 mln 2006-yil) kabilar yetakchi. Bahrayn, Qatar, Kipr kabi davlatlarda aholi soni 1 mln kishiga yetmaydi. Regionning qolgan barcha davlatlarida (Kavkazorti, BAA, Isroil, Iordaniya, Livan, Umman, Quvayt, Falastin) aholi soni 2,5–8,2 mln (2003) kishi oraligʻida.

Tug'ilish koeffitsienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: Yaman (43%), Afg'oniston (42%), Falastin (39%), Iroq, Saudiya Arabistoni (35%). Dunyo bo'yicha 22%. Tug'ilish koeffitsienti eng past bo'lgan davlatlar: Gruziya (9%), Kipr (12%), Armaniston, Ozarbayjon (14%). O'lim koeffitsienti eng yuqori bo'lgan davlatlar: dunyo bo'yicha 9%. Afg'oniston (18%), Iroq va Yaman (10%). O'lim koeffitsienti eng past davlatlar: BAA, Quvayt (2%), Bahrayn (3%).

Chaqaloqlar o'limi eng yuqori Afg'onistonda 15,4%; eng kam Kipr va Isroilda 5%. Dunyo bo'yicha 5,5% ni tashkil etadi.

15 yoshgacha bo'lganlar soni eng ko'p davlatlar: Yaman (48%), Iroq (47%), Falastinda (46%), Saudiya Arabistoni (43%). Dunyo bo'yicha 30%. 15 yoshgacha bo'lganlar soni eng kam davlatlar: Gruziya (20%), Kipr (22%), Armaniston (24%). 64 yoshdan yuqori bo'lganlar soni eng ko'p va eng kam bo'lgan davlatlar: Gruziya (14%), Kipr, Qatar (11%), BAA (1%), Quvayt (2%). Dunyo bo'yicha 64 yoshdan o'tganlar 7%.

YMD salmog'i dunyo bo'yicha 7160 AQSH dollar (2001). Regionda YMD eng yuqori: Quvayt (21500 AQSH dollar), Kipr (21100 AQSH dollar); eng past: Yaman (730 AQSH dollar).

Aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 37 kishi bo'lgani holda O'rta Yer, Qora va Kaspiy dengizlari sohillarida 50–100 kishi, baland tog' va cho'llarda 1–10 kishiga to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi Quvaytda 96%, Isroilda 92%, Qatarda 80%, Omanda 13%. Regionda 21 dan ortiq millioner shahar va shahar aglomeratsiyalari mavjud. Ular ichida Istanbul va Tehron eng yirigidir (10–20 mln kishi).

Region davlatlari davlat tuzumiga ko'ra mutlaq teokratik, konstitutsion, federal monarxiya va respublika davlatlariga bo'linadi.

Aholisining etnik tarkibiga ko'ra Arabiston yarimoroli davlatlari bir millatli, Turkiya, Iroq, Eron, Afg'oniston kabi davlatlar esa ko'p millatlidir.

Makka va Madina shaharlari musulmonlar uchun, Ierusalim shahri esa xristian, musulmon va iudaistlar uchun muqaddas joy sanaladi.


Xo'jaligi. Regiondagi Turkiya, Isroil va Kipr davlatlari Osiyo-niing yangi industrial davlatlari qatoriga kiradi. Ular Yevropa

modeli asosida rivojlanmoqda. Yaqin kelajakda Turkiyaning Yevropa ittifoqiga kirishi mo'ljallangan. Fors ko'rfazi bo'yi davlatlarida neft-kimyo sanoati, Eronda ko'p tarmoqli iqtisodiyot, Afg'oniston va Yamanda qoloqlik hukmron. Regionda asosiy rivojlangan sanoat tarmog'i neftni qazib olish va uni qayta ishlashdir. Agar dunyo bo'yicha yiliga jon boshiga 500 kg neft qazib chiqarilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Fors qo'ltig'i bo'yida 3,3 ming t ni tashkil etadi. Fors korfazi bo'yi davlatlari yiliga 800 mln t dan ortiq neft qazib oladi va eksport qiladi. Uning 1/3 qismi (250 mln t) shu joyda qayta ishlanadi. Eng yirik neftni qayta ishlash korxonalari Saudiya Arabistoni, Eron, Quvayt va BAA da joylashgan. Aynan shu mamlakatlar eksportining 90–95% ini neft va neft mahsulotlari tashkil etadi.

Jun-gazlama va ip-gazlama to'qimachiligi Turkiyada, gilam to'qish Eron va Afg'onistonda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Qora metallurgiya sanoati Turkiya, Eron va Gruziyada, mashinasozlik Turkiya va Isroilda rivojlangan. Janubi-G'arbiy Osiyoning eng yirik sanoat markazlari Istanbul, Tel-Aviv va Tehron shaharlarida. Kichikroq sanoat markazlari Anqara, Izmir, Bog'dod shaharlarida joylashgan. Mazkur sanoat markazlarini va aholini, asosan, IESlar, qisman GESlar energiya bilan ta'minlaydi. Eronda AQSH va Yevropa qarishiligiga qaramay AES qurilmoqda.

Region rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar



Qishloq xo'jaligi. Region mamlakatlarining ko'pchiligi agrar-industrial rivojlanish xususiyatiga ega, shuning uchun ularning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Lekin ko'p mamlakatlarni qishloq xo'jaligi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi. Bunga sabab mexanizatsiya va kimyodan kam foydalanish, shuningdek, suv tanqisligidir. Zamonaviy sug'orish usullaridan Isroil, Suriya, Iroq kabi davlatlar foydalanmoqda. Turkiyada angor echki boqish, Arabiston yarimoroli davlatlarida tuya boqish, Eron va Afg'onistonda qorako'lchilik rivojlangan. Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus mevalar, g'alla yetishtirish, Eronda xurmo, sitrus mevalar, qand lavlagi, paxtachilik, Iroq, Suriya va Isroilda paxta, tamaki va xurmo, Arabiston yarimoroli davlatlarida xurmo yetishtirish rivojlangan. Afg'oniston (Shibirgen koni) tabiiy gazni Tojikiston va O'zbekistonga eksport qiladi.

Transporti. Eron, Turkiya, Kavkazorti davlatlarida temiryo'l transporti, Turkiya, O'rta Yer dengizi bo'ylari va Kavkazortida avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. Temiryo'llarning uzunligi Turkiyada 10 ming km, Eronda 5,2 ming km, Saudiya Arabistonida 700 km. Quvur transporti Saudiya Arabistonida yaxshi rivojlangan. Shuningdek, Eron, Iroq, Turkiya va Ozarbayjonda ham quvur transporti mavjud. Temiryo'llarning umumiy uzunligi Afg'onistonda 11 km, Iordaniyada 600 km, Iroqda 3000 km, Isroilda 830 km, Livanda 408 km, Suriyada 1400 km. Bahrayn, Qatar, BAA, Quvayt, Oman, Yaman, Kipr kabi davlatlarda temiryo'llar yo'q.

Janubi-G'arbiy Osiyoda, asosan, dengiz transporti rivojlangan bo'lib, u tashqi savdoda muhim rol o'ynaydi.

Fors korfazida faqat neft eksport qiluvchi maxsus portlar mavjud: Ras-Tannura, Obodon, El-Jubdil, El-Jubail, Bender-Abbas, Maskad kabilar. Universal portlardan eng yiriklari: Jidda va Yanbu (Saudiya Arabistoni).

Tashqi savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya va Xorijiy Yevropa davlatlari.

Asosiy eksporti: neft-gaz, neft-kimyo sanoati mahsulotlari, sun'iy matolar, bo'yoqlar, jun-mato (angorka), xurmo, sitrus mevalar, qorako'l, fosforit, kaliy tuzi.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, qorametallurgiya mahsulotlari, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari.

Pul birligi: Iordaniya, Bahrayn, Quvayt, Iroqda — dinor; Oman, Saudiya Arabistoni, Yaman, Qatar, Eronda — riol; Livan, Kipr, Suriyada — funt; BAA da — dirham; Isroilda — shekel; Turkiyada — lira.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Saudiya Arabistoni tashqi savdosida dengiz transporti qanday ahamiyatiga ega?

2. Gʻarbiy Osiyoda Afgʻoniston qanday rivojlanish istiqbol-lariga ega?

3. Ushbu regionning rivojlanishida aloqa tizimi qanday rol oʻynaydi?

2.8. Markaziy Osiyo mamlakatlari geografiyasi

Markaziy Osiyo mamlakatlariga Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlardan Tojikiston davlatining iqtisodiy rivojlanish darajasi birmuncha past koʻrsatkichlarga ega.

Oʻzbekiston va unga qoʻshni boʻlgan Qirgʻiziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalari Oʻrta Osiyo hududidagi mamlakatlardir. Qozogʻiston Oʻrta Osiyo davlati deb tan olinmasa ham, hududining asosiy qismi ushbu regionda joylashganligini hisobga olgan holda uni Oʻrta Osiyo davlatlari qatoriga kiritish mumkin. Oʻrta Osiyo davlatlari jahon siyosiy xaritasida 1991-yil kuzida, sobiq Ittifoqning barham topishi bilan paydo boʻldi.

Oʻrta Osiyo sobiq Ittifoq davrida bir tomonlama, asosan, xomashyo va yarim xomashyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Bu hudud sobiq Ittifoq paxtasining 93% i (jahon paxtasining 12% i)ni, koʻplab mis, qoʻrgʻoshin, rux, xrom, oltin, uran kabi rangdor metallarni yetkazib bergan.

Aholisi. Oʻrta Osiyo aholisi soʻnggi 60 yil ichida, II jahon urushi yillardagi katta yoʻqotishlarga qaramay, salkam 3 baravar koʻpaydi hamda 2009-yilning 1-yanvar kuniga nisbatan 61,3 mln kishini tashkil etdi. Bu jahon aholisining oʻrtacha oʻsish surʼatlaridan birmuncha yuqori. Mintaqada aholining son jihatdan oʻsishida tabi-

iy ko'payish jarayoni asosiy omildir. Unda migratsion harakatlar ham muhim rol o'ynaydi. Mintaqa respublikalarida demografik holat bir xil emas. Aholisining tarkibida ruslar va boshqa yevropalik millatlar hissi katta bo'lgan Qozog'iston va Qirg'istonda tug'ilish ko'rsatkichlari ancha past. Aholisi, asosan, tub millatlardan tarkib topgan Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalarida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari ancha yuqori. Bu holat mazkur respublikalar aholisining dinamikasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Mintaqa davlatlarida aholining o'rtacha zichlik ko'rsatkichlari ham turlicha. Aholining bu ko'rsatkichlari har 1 km² maydonga O'zbekistonda 63 kishini, Tojikistonda 50 kishini tashkil qilgan holda, Qozog'iston (6 kishi) va Turkmaniston (11 kishi) ancha past ko'rsatkichga ega. Shu bilan birga aholisi eng zich (Farg'ona vodiysida 550 kishi) va eng siyrak (Markaziy Qozog'istonda 1—2 kishi) hududlar orasida ham katta tafovut bor.

O'rta Osiyo mintaqasida urbanizatsiya darajasi ham yuqori emas. Shahar aholisining salmog'i Qozog'istonda 57,3% dan, Tojikistonda 24,7% gacha farqlanadi. Unda aholisi milliondan ortiq shaharlar faqat Toshkent (2,2 mln) va Almati (1,2 mln)dir. Urbanizatsiya darajasining pastligi (mintaqa bo'yicha o'rtacha 41,3%) respublikalarda industrial rivojlanish holati va iqtisodiyotda agrar tarmoqlar ahamiyatining qay darajadaliqi bilan bog'liq.

Xo'jaligi. Sobiq Ittifoq davrida O'rta Osiyoning barcha respublikalarida iqtisodiyot uchun eng zarur bo'lgan xomashyo va yarimxomashyo mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni rivojlantirishga erishildi. Ular, eng avvalo, tog'-kon sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jalik (avvalo, paxta, g'alla) mahsulotlari yetishtirish va ularni dastlabki qayta ishlash sohalari edi. O'rta Osiyo ishlab chiqarish hajmiga ko'ra sobiq Ittifoqning paxta, pilla, qorako'l terilari, sholi, quritilgan mevalar, mis, volfram, xrom, simob, uran, oltin, qo'rg'oshin kabi sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi birinchi rayoni bo'lib keldi. Neft, tabiiy gaz, elektr energiyas, paxtachilik majmuasida xizmat qilishga mo'ljallangan mashina va uskunalar yetkazib berishda ham regionning salmog'i ancha katta edi.

Sanoati. Yoqilg'i tarmoqlari orasida neft sanoatining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Netni qazib chiqarishda Qozog'iston (6,6 mln t), O'zbekiston (5,4 mln t) va Turkmaniston (5,6 mln t) ajralib turadi. Tabiiy gaz qazib chiqarishda bu respublikalarning imkoniyati yanada katta. Bu borada, ayniqsa, Turkmaniston alohida ajralib turadi. Gaz zaxiralari hajmiga ko'ra u sobiq Ittifoq respublikalari ichida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Gazni qazib chiqarishda esa O'zbekiston yetakchilik qiladi. Bu boyliklarni keng doirada o'zlashtirish va ularni jahon bozorlariga olib chiqish endigina amalga oshmoqda. Mintaqa respublikalari (Turkmanistondan tashqari) ko'mirga ham ancha boy.



Qozog'iston Respublikasi O'rta Osiyo mintaqasining shimoliy va markaziy hududlarida joylashgan. Qozog'iston Respublikasining milliy mustaqilligi 16-dekabr 1991-yilda e'lon qilingan. Maydoniga ko'ra jahonning 9-yirik mamlakatidir. U mintaqahududining 2/3 qismini egallaydi. Respublikaning iqlimi keskin kontinental. Qozog'iston tabiiy resurslar bilan yaxshi ta'minlangan mamlakatlardan biridir. U qo'rg'oshin va rux, xrom va vanadiy, volfram va kumush kabi boyliklar zaxiralari ko'ra jahondagi ko'plab yirik mamlakatlar qatorida turadi. Shuningdek, Qozog'iston mis, molibden, boksit, ko'mir, neft, fosforit, temir rudasiga ham ancha boy. Ko'mir konlaridan Qarag'anda, Ekibas-

tuz, neft konlaridan Tengiz, Qorachig‘anoq, temir rudasi konlaridan Kustanay, mis konlaridan Jezqazg‘an, polimetall konlaridan Sharqiy Qozog‘iston, fosforit konlaridan Qoratorov kattaligi va ahamiyati bilan alohida ajralib turadi.

Qozoqiston — yer resurslariga ham juda boy. Jami hududining 80% dan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligida foydalaniladi. Unda, ayniqsa, yaylov va pichanzorlar hissasi eng katta. Ishlov beriladigan maydonlar (ekin maydonlar) 35 mln ga ni tashkil qiladi. Bu boshqa O‘rta Osiyo respublikalarining jami ekin maydonlariga nisbatan 4 marta katta. Shu bilan birga Qozog‘istonda suv va o‘rmon boyliklari sezilarli darajada taqchil. Bularning bari respublikaning juda katta iqtisodiy rivojlanish salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Aholisi. Qozog‘iston aholisining soni jihatidan mintaqada O‘zbekistondan keyinda turadi. Hozirgi vaqtda aholisining xususiyatlariga ko‘ra Qozog‘iston:

- eng sermillat;
- tabiiy o‘rish ko‘rsatkichlari eng past;
- qayta ko‘chib ketuvchilar hisobiga aholisi soni deyarli o‘smayotgan respublika hisoblanadi. Uning aholisi 1997-yildagi 16,7 mln kishidan 2004-yilda 14,9 mln kishigacha kamaydi, lekin 2009-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 15,3 mln kishini tashkil etdi.

Shu bilan birga Qozog‘iston mintaqada aholisi eng siyrak joylashgan respublikadir. Hozirgi vaqtda har 1 km² maydonga salkam 6 kishi to‘g‘ri keladi. Qozog‘iston O‘rta Osiyoda aholining urbanizatsiya ko‘rsatkichlari yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Hozirgi aholisining 57,3% i shaharlarda yashaydi.

Xo‘jaligi. Qozog‘istonning xo‘jaligi industrial-agrar xarakterga ega. Ayniqsa, II jahon urushidan keyingi yillarda sanoat tarmoqlari tez sur‘atlar bilan rivojlantirildi.

Transporti. Qozog‘istonda davlatlararo va rayonlararo yuk tashishda temiryo‘l transportining ahamiyati katta. U barcha ichki rayonlarni bir-birlari bilan bog‘lab turadi. Ahamiyatiga ko‘ra avtomobil transporti ham muhim. Shuningdek, suv va havo transportlarining ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Ichki tafovutlari. Iqtisodiy rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish ixtisosiga ko‘ra nisbatan yaxshi (shimoliy, sharqiy va janubiy

Qozog‘iston) va nisbatan kam o‘zlashtirilgan (G‘arbiy va Markaziy Qozog‘iston) rayonlari ajralib turadi.



Qirg‘iziston Respublikasi. Qirg‘iziston Respublikasining milliy mustaqilligi 1991-yil 30-avgustda e‘lon qilingan. U tipik baland tog‘ mamlakatidir. Ishlab chiqarish kuchlarining ixtisoslashuvi va hududiy joylashuvda tog‘lar katta rol o‘ynaydi.

Aholisi. So‘nggi bir asr davomida uning aholisi 5 baravarga ko‘paydi va 2008-yilda 5,3 mln kishini tashkil etdi. Milliy tarkibga ko‘ra aholining 60% dan ko‘prog‘i qirg‘izlar, 1/5 qismini ruslar, 10% dan ko‘prog‘i o‘zbeklar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aholisining 70% idan ko‘prog‘i balandligi 1500 m gacha bo‘lgan tog‘oldi tekisliklari va vodiylarda istiqomat qilishadi. Aholining o‘rtacha zichligi har 1 km² ga 26 kishi to‘g‘ri keladi.

Xo‘jaligi agrar-industrial xarakterga ega. Yetakchi xo‘jalik tarmog‘i qishloq xo‘jaligidir.

Dehqonchiligining eng yirik tarmog‘i donchilikdir. Jami ekin maydonlarining 1/2 qismiga donli ekinlar ekildi. Texnik ekinlardan paxta va tamaki (Janubiy Qirg‘izistonda), qandlavlagi (Shimoliy Qirg‘izistonda) ko‘proq ekiladi.

Chorvachiligining asosiy tarmoqlari mayin junli qo‘ychilikdir.

Sanoatining asosini yoqilg‘i-energetika tarmoqlari tashkil qiladi. Ular, asosan, ko‘mir hamda boy gidroenergiya quvvatlaridan foydalanish asosida tashkil topgan. GESlar respublikada ishlab chiqarilayotgan energiyaning 9/10 qismini bermiqda. Yirik GESlari Norin daryosida qurilgan. Shularning eng yirigi To‘xtagul GESining quvvati 1,2 mln kVt ga teng.

Mashinasozligi. Ko‘plab turli qishloq xo‘jalik mashina va uskunalari, elektrotexnika mashinalari va elektr yoritkichlari kabilarini ishlab chiqaradi.

Transporti. Relyefining tog‘lilik xarakteri tufayli Qirg‘izistonda temiryo‘l transporti yaxshi rivojlanmagan. Shu sababli respublikada eng yirik tarmoq sifatida avtomobil transporti xizmat qilmoqda. U tog‘ dovonlari orqali amalda barcha rayonlarni bir-biri bilan bog‘laydi.

Turkmaniston Respublikasi. Turkmaniston O‘rta Osiyoning janubida joylashgan davlat. Shimoli-g‘arbdan Qozog‘iston, shimol va shimoli-sharqdan O‘zbekiston, janubdan Afg‘oniston va Eron bilan chegaradosh. G‘arbiy qismi Kaspiy dengizi bilan o‘ralgan. Ma‘muriy jihatdan 5 ta viloyatga ajraladi.

1991-yil 27-oktabrda mustaqillikka erishgan. IGO‘ (iqtisodiy-geografik o‘rni) 1996-yil Eron orqali Fors qo‘ltig‘i va Kavkaz orqali Qora dengiz bo‘ylariga yo‘llar ochilishi bilan ancha qulaylashdi.

Tabiiy sharoiti. Asosan, relyefi tekis, iqlimi kontinental va qurg‘oqchil hamda suv manbalari kamligi tufayli qadimdan quduqlardan keng foydalanib kelinadi. Quduqlar ko‘pligi sababli ba‘zan Turkmanistonni «quduqlar markazi» ham deyishadi. Tabiiy resurslardan neft va tabiiy gazga, oltingugurt hamda turli tuzlarga ancha boy.

Aholisi, asosan, tabiiy o‘sish hisobiga tez ko‘paymoqda. Uning soni so‘nggi 15 yilda 3,7 mln dan 5,2 gacha ko‘paydi. O‘rtacha zichligi 1 km² maydonga 11 kishi to‘g‘ri keladi. Aholisining 46,3% i shaharlarda yashaydi.

Xo‘jaligi agrar-industrial xarakterga ega. Uning asosini sug‘orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo‘jaligi tashkil qiladi. Sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni 1,3 mln gektar. Asosan, donli va texnik (paxta) ekinlar ekiladi. Chorvachiligida qo‘ychilik (qorako‘l), tuyachilik va yilqichilik yetakchilik qiladi.

Tojikiston Respublikasi. O‘rta Osiyoda joylashgan davlat. Sharqda – Xitoy, Shimolda – Qirg‘iziston, g‘arbda – O‘zbekiston, janubda – Afg‘oniston bilan chegaradosh, dengizga chiqish imkoniyati yo‘q. Davlat tuzumi Respublika. Davlat boshlig‘i Prezident. Qonun chiqaruvchi hokimyat – Parlament (Oliy Kengash).



Aholi soni 2009-yil boshida 7,2 mln kishini tashkil etdi. Din nuqtayi nazaridan islomga mansublar 90%, xristianlar 5% va boshqalar 5% ni tashkil etadi.

Davlat tili – tojik tili, aholisining 59% ini tojiklar, 23% ini o‘zbeklar, 10% ini ruslar tashkil etadi. Boshqa millat vakillaridan tatarlar, qirg‘izlar, nemislar, ukrainlar, yahudiylar va boshqalar istiqomat qiladilar. 14 yoshgacha bo‘lganlar 42%, 15–64 yoshgacha bo‘lgan aholi 55% ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km² maydonga 50 kishidan to‘g‘ri keladi. Shahar aholisi 24,7% ga teng. Tabiiy o‘rish – har ming kishiga 22 kishi. O‘rtacha umr davomiyligi 67 yoshga teng. Tojikiston – BMTga a‘zo davlat.

1991-yil 9-sentabrda Tojikiston mustaqillikka erishdi.

Tabiiy resurslardan rangli metallar va gidroenergetika resurslariga ancha boy. Mamlakatda qo‘rg‘oshin, vismut, rux, molibden, oltin, qo‘ng‘ir ko‘mir va qisman tabiiy gaz qazib olinadi. Yirik aluminium zavodi mavjud. Mashinasozlikda qishloq xo‘jalik mashinalari, sovitgichlar, transformatorlar, kabel, turli texnika mahsulotlari, elektr asbob-uskunalar ishlab chiqariladi.

Xo‘jaligi agrar xarakterga ega. Qishloq xo‘jaligida dehqonchilikning paxtachilik, donchilik, bog‘dorchilik tarmoqlari ahamiyatli. Sanoatida elektroenergetika, aluminium, yengil va oziq-ovqatlar sanoatlari yetakchilik qiladi.

Asosiy shaharlari: Dushanbe, Xo‘jand, Qo‘rg‘ontepa, O‘ratepa.

O‘zbekiston Respublikasi. Respublikadagi mineral xomashyo resurslarini o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta

ishlash, mashinasozlik, gaz-kimyo majmui, telekommunikatsiya, transport, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadiga qaratilgan xorijiy kreditlarni jalb qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston sanoati tarkibiga mashinasozlik, elektrotexnika, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va traktorsozlik, to'qimachilik mashinasozligi, yoqilg'i energetika majmuasi, kimyo va neftkimyo sanoati, rangli metallurgiya va boshqalar kiradi. Ushbu tarmoqlar qatorida qishloq xo'jaligi mashinasozligi va traktorsozlik alohida o'rin egallaydi.

Respublikada qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ini va qishloq xo'jaligini yuqori texnologiyaga asoslangan, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshiradigan tarmoq darajasiga ko'tarish muhim vazifa etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida 15 ta qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarini birlashtiruvchi «O'zqishloqmashxolding» kompaniyasi mavjud.

Uzoq davrlar mobaynida respublikadagi qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan zavodlar uchun ko'plab ehtiyot qismlar yaqin xorij mamlakatlari (ilgari ittifoqdosh respublikalar) dan keltirilardi. Respublika qishloq xo'jaligi sohasida foydalaniladigan mashinalarning ham aksariyati Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Qirg'iziston davlatlaridan keltirilgan. O'tish davrining moliyaviy-iqtisodiy qiyinchiliklari oqibatida yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarda qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarish keskin qisqardi. Natijada respublikada qishloq xo'jaligi mashinalariga va ehtiyot qismlariga ehtiyoj yanada ortdi.

O'zbekiston paxta tozalash sanoati tizimida 120 ta paxta tozalash zavodi, 550 dan ortiq tayyorlov punkti, 14 ta mexanik-tajriba zavodi va 21 ta xo'jalik hisobidagi muassasa mavjud.

Paxta tozalash zavodlari yangi texnologiyalar talabiga javob beradigan, yuqori sifatli paxta tolasini ajratib bera oladigan uskunalar bilan ta'minlangan. «O'zbekpaxtamash» korporatsiyasi esa o'z tarkibiga 8 ta mashinasozlik zavodi va maxsus konstruktorlik markazlarini birlashtirgan. Ilgari O'zbekistonda paxtachilik mahsulotlari xomashyo holatida

chetga chiqarilgan bo'lsa, endilikda ishlab chiqarish hajmi soatiga 5 tonna bo'lgan zavodlardan iborat komplekslarning ishlashi ish samaradorligining ortishi va tozalash effektini 98,5% gacha yetishiga olib kelmoqda.

Respublikaning qayta ishlash sanoati yiliga 150 ming tonna quritilgan sabzavot va meva tayyorlash quvvatiga ega bo'lganligini e'tiborga olsak, uning narxi bugungi kunda o'rtacha 150 mln AQSH dollariga baholanar edi va bu ko'rsatkich bugungi yil davomidagi eksport ko'rsatkichining 4,2 foizini tashkil etadi, ya'ni bugungi kundagi mashina va uskunalar eksporti bilan taqqoslash mumkin.

Respublikada Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida konserva va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar keng tarqalgan. Ma'lumki, yirik sanoat korxonalari joylashgan hududlarda xususiylashtirish jarayoni oson kechadi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida hududiy dasturlarga muvofiq tarzdagi sarmoya siyosati ishlab chiqilgan.

O'zbekiston o'ziga xos, nisbatan qulay qishloq xo'jalik salohiyatiga ega. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 95 foizga yaqini sug'oriladigan yerlar bilan bog'liq. Ularga yirik suv omborlari, nasos stansiyalari, kanallar, sug'orish inshootlari, kollektorlar va boshqa gidrotexnik inshootlar tizimi orqali xizmat ko'rsatiladi.

2003-yilda qishloq xo'jaligidagi umumiy ekin maydoni 3785,1 ming gektarni tashkil etdi. Asosiy qishloq xo'jaligi ekini paxtadan tola ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekiston dunyoda to'rtinchi va uni eksport qilish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Paxtachilikka respublikaning deyarli barcha viloyatlari ixtisoslashgan bo'lib, paxta xomashyosi, asosan, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari havzasida, ya'ni obikor yerlarda yetishtiriladi. 2003-yilda umumiy ekin maydonining 1452,1 ming gektari yoki 38,1 foizi paxta ekish uchun ajratildi. Paxtaning o'rtacha hosildorligi yillar davomida pasayib bormoqda. Bunga sabab ba'zi yillarda ob-havoning noqulay kelishi bo'lsa, doymimo tahdid solib turuvchi sababi suvning tanqisligi va yerlar sho'rланish darajasining ortishidir.

O'zbekiston paxta eksport qiluvchi jahonning yetakchi davlatlaridan biri bo'lib, paxta eksportida AQSH dan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakatda yiliga yetishtiriladigan tolaning 1 mln tonnaga yaqini eksport qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi paxta, ipak, qorako'l ishlab chiqarishda dunyoda yetakchi maqomga ega. Ishlab chiqariladigan o'rtacha 1300 ming tonna paxta tolasining 18% ga yaqini qayta ishlanadi.

O'zbekiston ip-gazlama, shoyi va junli matolar ishlab chiqarish va yigirish bo'yicha Xitoy, Hindiston va AQSH dan keyingi to'rtinchi o'rinda turadi. Shuningdek, mamlakat kishi jon boshiga 17,1 kv.m dan ortiq matolar ishlab chiqaradi.

2003-yil respublikada 6262,3 ming tonna g'alla (292,4 ming tonna sholi) hosili olindi. Shuningdek, respublikada 827,8 ming tonna kartoshka, 3299,2 ming tonna sabzavot, 583,3 ming tonna poliz mahsulotlari yetishtirildi. O'zbekistonning iqlim sharoiti turli-tuman qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish bilan birga qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirish uchun ham qulay.

Sabzavot, mevalar, g'alla va sholi O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy ekin turlariga kiradi. Oziq-ovqat bilan o'z-o'zini ta'minlashda paxta maydonlariga boshqoqli ekinlarni almashlab ekish yaxshi samara bermoqda.

3-ilova

O'zbekistonda meva, sabzavot, uzum va polizchilikning 1998–2003-yillardagi ko'rsatkichlari (ming tonna)

Mahsulot turlari	Yillar					
	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Sabzavot	2353,9	2680,0	2644,7	2777,8	2935,6	3299,2
Meva	543,5	489,1	790,9	801,3	842,9	758,7
Uzum	336,2	344,0	624,2	573,1	516,4	401,4
Poliz	465,2	517,6	451,4	466,1	179,1	583,3

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'i qadimdan rivojlangan bo'lib, u so'nggi yillarda turg'unlik davrini boshidan kechirdi. Agar 1975-yilda Respublikaning qayta ishlash sanoati yiliga 150 ming tonna quritilgan sabzavot va meva tayyorlash quvvatiga ega bo'lgan bo'lsa, uning narxi bugungi kunda o'rtacha

150 mln AQSH dollariga baholanar edi va bu ko'rsatkich bugungi yil davomidagi eksport ko'rsatkichining 4,2 foizini tashkil etadi, ya'ni bugungi kundagi mashina va uskunalar eksporti bilan taqqoslash mumkin.

Quruq va ho'l mevalar hosildorligi bo'yicha Andijon viloyati eng yuqori o'rinda turadi. Hozirda Andijon viloyatiga respublikada yetishtiriladigan mevalarning qariyb 1/4 qismi to'g'ri kelib, uning yillik miqdori 150 ming tonnadan ortiq.

Meva yetishtirish bo'yicha keyingi o'rinni Samarqand viloyati egallaydi. Unda yillik yetishtiriladigan mevalar miqdori 90 ming tonnadan ortiq. Zarafshon daryosi havzasi bo'ylab hamda Nurota tizmasining janubiy va g'arbiy etaklarida meva hosildorligi yuqori. Respublikaning janubiy qismi Surxondaryo havzasi bo'ylab gektariga 50 sentnerdan ortiq meva yetishtirish mumkin. Bu hududda subtropik iqlim hukmron bo'lganligi sababli ba'zi subtropik mevalarni yetishtirish uchun qulay sharoitlar mavjud.

Quruq meva tayyorlashning an'anaviy usullaridan respublikamizda qadimdan foydalanib kelinmoqda. O'zbekistonning hozirgi Toshkent va Samarqand viloyatlari hududida tokchilik XX asr boshlaridayoq keng taraqqiy etgan. Bugungi kunda respublika uzumchiligida Samarqand viloyati yetakchilik qiladi. Uning hududida yiliga 150 ming tonnadan ortiq uzum yetishtiriladi. Bu respublikada yetishtiriladigan uzumning deyarli 1/3 qismidir.

Tokzorlar Zarafshon tizmasining shimoliy etaklaridan to Nurota tizmasigacha bo'lgan hududdagi tog' yonbag'irlarida butun Zarafshon havzasi bo'ylab keng tarqalgan. Uzum yetishtirish bo'yicha keyingi o'rinda Surxondaryo viloyati turadi. Viloyatda yiliga 70 ming tonnagacha uzum yetishtiriladi. Hududda uzumchilik, asosan, obikor yerlarda keng tarqalgan.

Bog'dorchilik va uzumchilik sanoat uchun asosiy xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar bo'lishi bilan birga agrosanoat majmuining tarkibiy qismi sifatida mamlakat ichki iste'molini ta'minlash va eksport salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rin egallaydi.

O'zbekistonda o'zida yetishtirilgan meva mahsulotlarini Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlariga eksport qilish imkoniyati

yuqori bo'lib, Respublika meva yetishtirish bo'yicha Markaziy Osiyoda eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Uni quyidagi jadval misolida ham ko'rish mumkin:

4-ilova

**Markaziy Osiyo davlatlarida meva yetishtirish ko'rsatkichlari
(ming tonna)**

Davlatlar	Yillar			
	2000	2001	2002	2002-yilda jon boshiga kg hisobida
Qozog'iston	202	171	186	13
Qirg'iziston	161	159	154	31
Tojikiston	166	150	146	23
O'zbekiston	791	801	842	33

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston mevachilikda qulay tabiiy geografik shartning sharoitlarga ega.

Respublikada Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida konserva va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar keng tarqalgan.

Respublika sabzavotchiligida Farg'ona viloyati yetakchilik qilib, yetishtiriladigan barcha sabzavot mahsulotlarining 1/4 qismi shu viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatda yiliga 800 ming tonnadan ortiq sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. Sabzavotchilikda keyingi yetakchi hudud Toshkent viloyati bo'lib, Ugam va Chotqol tizmalari etaklari, Chirchiq daryosi vodiysi bo'ylab ekiladi. Hozirda viloyatning sabzavot mahsulotlari yetishtirishdagi yillik hissasi 500 ming tonnadan ortiq.

Respublika polizchiligida Sirdaryo viloyati yetakchilik qiladi. Unda mamlakat miqyosida poliz mahsulotlarining 15% yoki o'rtacha 60 ming tonna poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Poliz mahsulotlari yetishtirishdagi keyingi o'rinda Surxondaryo viloyati turadi. Mazkur viloyat poliz hosildorligi bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egallaydi.

Kartoshkachilik, asosan, ichki iste'mol uchun xizmat qiladigan tarmoq bo'lib, Samarqand, Toshkent viloyatlarida yaxshi taraqqiy

etgan. Kartoshka, asosan, obikor dehqonchilik mavjud bo'lgan hududlarda yetishtiriladi.

Qayta ishlash sanoati meva-sabzavotlarni eksport qilishni ko'paytirishning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi maydonlarining asosiy qismi qorako'lchilik va dag'al junli qo'ychilikni rivojlantirish uchun yaroqli bo'lgan yaylovlarga to'g'ri keladi. 2003-yilda go'sht yetishtirish (tirik vaznda) 935,5 ming tonnani, sut yetishtirish 4030,3 ming tonnani, jun yetishtirish esa 16,5 ming tonnani tashkil etdi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nima uchun Qirg'iziston aholisining tabiiy o'sish ko'r-satkichlari O'rta Osiyo respublikalariga nisbatan eng past?
2. Respublika xo'jaligining asosiy xususiyatlari nimada?
3. Uning rivojlanish darajasini qanday baholash mumkin?
4. Mamlakatda qanday tabiiy resurs eng ahamiyatli hisoblanadi?
5. Eng yirik GES lar, asosan, qaysi daryoda qurilgan?
6. Nima uchun Qozog'iston aholisi so'nggi yillarda son jihatdan kamaya boshlagan?

2.9. Osiyoning yirik mamlakatlari. Rossiya. Xitoy

Alohida ravishda Osiyo mamlakatlaridan Rossiya, Xitoy va Mongoliya davlatlarini ko'rsaib o'tishimiz kerak. Chunki Rossiya hududining 70% i Osiyoda, Mongoliya esa qit'aning ichkarisida joylashgan. Ularning rivojlanishiga hududining kattaligi va tabiiy resurslarga boyligi katta ta'sir etadi.

Rossiya. Rossiya — Yevroosiyoda joylashgan, maydoniga ko'ra yer sharidagi eng yirik mamlakat. Maydoni 17075,400 km². Shahar aholisi 107,3 mln, qishloq aholisi 39,3 mln kishi. Rossiya Federatsiya sifatida 1917-yil 7-noyabrda tashkil topgan. Rossiya siyosiy-ma'muriy jihatdan 21 ta respublika, 7 ta o'lka, 49 ta oblast, 1 ta avtonom oblast, 10 ta avtonom okrug va 2 ta federal shahardan iborat.

Rossiya shimoldan janubga 2,5 — 4 ming km gacha, g'arbdan sharqqa 9000 km ga cho'zilgan bo'lib, 3 ta okean suvlari bilan

o'ralgan. Tabiiy resurslarga boyligi, ikki qit'ada joylashganligi (ayniqsa, Yevropada joylashganligi), 3 okean va 13 ta dengiz bilan o'ralganligi, quruqlik orqali MDH ning 7 mamlakati va 5 ta xorijiy davlat bilan chegaradoshligi, suv orqali Yaponiya, AQSH va Xorijiy Yevropa davlatlari bilan chegaradoshligi iqtisodiy geografik o'rnining qulayligidir. Rossiya hududining katta qismini dunyodagi eng yirik tekisliklar va pasttekisliklar egallagan. Masalan, Sharqiy Yevropa tekisligi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Sibir tekisliklari, Kaspiybo'yi pasttekisligi (−27 m). Tog'li qismi mamlakat hududining janubida va sharqida joylashgan. Ular Katta Kavkaz (Elbrus cho'qqisi 5642 m, Rossiyadagi eng baland nuqta), Ural, Oltoy, Kuznesk Olatovi, Sayan; tizmalaridan Yablonovoy, Verxoyansk, Cherski, Sixote Alin, Stanovoy, Kalima, Keryak va h.k.

Kamchatka yarimoroli va Kuril orollarida ko'plab harakatdagi vulqonlar bor. Ularning eng balandi Klyuchevskaya Sopka (4688 m).

Rossiya davlat chegarasining uzunligi 60,9 ming km bo'lib, shundan quruqlik chegarasi 14,5 ming km, dengiz chegarasi 38,8 ming km, daryo chegarasi 7,1 ming km, ko'l chegarasi 0,5 ming km.

Aholisi soniga ko'ra Rossiya jahonda birinchi o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi (1986-yil 145,3 mln, 1999-yil 146,7 mln, 2006-yil 142 mln kishi). Tug'ilish — 1426000 kishi, o'lim — 2372000 kishi. O'rtacha umr 65 yosh. Tug'ilish koeffitsienti 10%, o'lim 16%. Tabiiy o'sish — 0,6% (2006). 100 erkakka 113 ayol to'g'ri keladi. Aholisijuda notekis joylashgan bo'lib, zichligi 1 km² ga 8 kishi (2006).

Aholisining asosiy qismi mamlakatning Yevropa qismida joylashgan. Osiyo qismida esa faqat janubiy qismida va daryolarning bo'ylaridagina yashaydi. Rossiyada 100 dan ortiq xalq va millatlar yashaydi. Shundan: ruslar — 81,5%, tatarlar — 3,8%, ukrainlar — 3%, chuvashlar — 1,2%, boshqirdlar — 0,9%, beloruslar — 0,8%, mordlar — 0,7%, chechenlar — 0,6%, armanlar va yevreylar — 0,4% ni tashkil etadi.

Rossiya hududi 10 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi. Elektr energiyasining asosiy qismini IES lar beradi. Tabiiy gaz Urengoy, Volgabo'yidan olinadi. Ko'mir Kuzbass, Kansk—Achinsk va Uzoq Sharqdan olinadi.

Qora metallurgiya Ural, Volgabo'yi, KMA, Kuzbasdan, rangdor metallurgiya Ural, Janubiy Sibir, Norilskdan olinadi. Mashinasozlik Markaz, Volgabo'yi, Ural, Janubiy Sibir, Uzoq Sharqda joylashgan.

Kimyo sanoati — Markaz, Volgabo'yi.

Sanoat mahsulotining 1/3 qismi yoqilg'i energetika majmui tarmoqlariga to'g'ri keladi. Energetika tarmog'i ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining jamiyat moddiy-texnika bazasini yaratishning asosi hisoblanadi. Rossiyaning yoqilg'i energobloklari strukturasi yoqilg'ini qazib chiqarish va ishlatishning taxminan 70% i neft va gazga to'g'ri keladi.

Xalq xo'jaligi. Rossiyada xalq xo'jaligining hamma tarmoqlari mavjud. Sanoati — mamlakat xo'jaligining yetakchi tarmog'i. Mamlakatda barcha sanoat turlari mavjud.

Neft sanoati. Neft, asosan, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Saxalindan olinadi. Konlardan qazib olingan neftning katta qismi mamlakat ichkarisidagi uzunligi 70 ming km ga yaqin bo'lgan neft quvurlari orqali tashiladi. Neft MDH davlatlariga, Sharqiy va G'arbiy Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. So'nggi yillarda o'rta hisobda yiliga 90 mln tonnadan 120 mln tonnagacha neft eksport qilinmoqda.

Mashinasozlikning yirik markazlari Moskva, Sankt-Peterburg, Ural, Volgabo'yi, G'arbiy Sibirda joylashan. Temiryo'l mashinasozligining yirik korxonalari Nijniy Novgorod, Sankt-Peterburg, Ulan-Ude, Lyudinov, Murom shaharlarida joylashgan.

Dengiz va daryo kemasozligi, kema ta'mirlash Sankt-Peterburg, Astraxan, Nijniy Novgorod, Tyumen, Xabarovsk va boshqa shaharlarda amalga oshiriladi.

Samolyotsozlik Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk kabi yirik sanoat markazlarida joylashgan.

O'rmon sanoati mamlakatning shimoliy va sharqiy rayonlarida rivojlangan. Rossiyada o'rmonlar maydoni 766 mln ga ni tashkil etadi. Sellyuloza qog'oz sanoati korxonalarini joylashtirishda xomashyo omilining ahamiyati katta. Hozirgi vaqtda bu tarmoqning asosiy markazlari shimoliy rayonda, Uralda, Volga—Vyatka rayonida joylashgan.

Qishloq xo'jaligi. 1986-yili qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti 1980-yildagiga nisbatan 18% o'sdi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 218,5 mln ga, shu jumladan, haydaladigan yerlar 134,0 mln ga (60% dan oshiq), pichanzorlar (23,7 mln ga), yaylovlar 59,4 mln ga (1986).

Rossiya Federatsiyasi qishloq xo'jaligining asosini don yetishtirish tashkil qiladi. Bug'doy ekiladigan joylardan shimol-roqda, o'rmonlar hududida javdar ekiladi. Zig'ir Rossiyaning Yevropa qismining shimoli-g'arbida yetishtiriladi. Kungaboqar Rossiya hududining Yevropa qismining ancha quruq va serquyosh janubi-sharqiy dasht rayonlarida, Volgabo'yi dashtlarida yetishtiriladi.

Haydaladigan yerlarning 4/5 qismi markaziy qoratuproq rayonlariga, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Ural va G'arbiy Sibirga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 39% dan ziyodini dehqonchilik, qariyb 61% ini chorvachilik beradi.

Asosan, qishloq ekinlaridan g'alla, qandlavlagi, kungaboqar, kartoshka, zig'ir ekiladi.

Chorvachiligi go'sht-sut va go'sht-jun yetishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakatning Yevropa qismida o'rmon va o'rmondasht hududlarida hamda Sibirda sersut qoramollar boqiladi.

Rossiyada transportning barcha turlari rivojlangan. Umumiy yuk tashish aylanmasida dengiz (13,0%), quvur (29,0%) transportining hissiati hozirga kelib ko'paydi, temiryo'l (52,7%) va daryo (3,7%) transporti kamaydi.

Rossiyaning asosiy transporti temiryo'l transportidir. Temiryo'l tarmoqlari Moskvadan chekka o'lkalarga ketgan. Temiryo'llar uzunligi bo'yicha Rossiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi. Temiryo'llarning umumiy uzunligi taxminan 90 ming km, ularning 3/1 qismi elektrlashtirilgan.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi. Dengiz transportining geografiyasi mamlakatni o'rab turadigan 14 dengiz bilan belgilanadi. Rossiya floti yuk ko'tarish qobiliyati jihatidan faqat 6 ta davlatdan keyin turadi:

- | | |
|---------------------|---------------|
| 1. Liberiya. | 4. Norvegiya. |
| 2. Yaponiya. | 5. Gretsiya. |
| 3. Buyuk Britaniya. | 6. Panama. |

Suv yo'llari sistemalari: Oq dengiz, Boltiq kanali, Moskva kanali, Volga–Don kanali, Volga–Boltiq suv yo'li, Kursk–Magnit–Yanamaliyasi, G'arbiy Sibir, San, Jan, Yoqutiston va boshqalar. Yuk yuborish jihatidan Qora dengiz, Azov dengizi havza portlari 1-o'rinda turadi. Kema qatnovida 142 ming km daryo yo'llaridan foydalaniladi.

Rossiyada tashiladigan jami yukning 11,3% i dengiz transportida, 4,7% i avtomobil transportida, 55% i temiryo'l transportida, 27,5% i quvur transportida, 1,5% i ichki suv transportida tashiladi.

Rossiyada tashiladigan jami yo'lovchining 33% i avtomobil transportida, 33,2% i temiryo'l transportida, 18,6% i havo transportida, 15,2% i boshqa transport turlarida tashiladi.

Rossiya tashqi aloqalarida MDH davlatlari, Xitoy va rivojlangan davlatlar muhim o'rin tutadi. Rossiya chetga yoqilg'i va elektr-energiyasi, ruda va konsentratlar, metallar va metall buyumlar, yog'och, taxta va sellyuloza qog'oz mahsulotlarini va boshqa tovarlarni eksport qiladi.

Importida mashina va jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarni, paxtani chetdan oladi. Germaniya, Italiya, Fransiya, Avstriya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Ruminiya va boshqa Yevropa davlatlari Rossiya nefti va gazining asosiy iste'molchilaridir.

Xitoy. Xitoy Xalq Respublikasi — Markaziy va Sharqiy Osiyodagi davlat. U maydonining kattaliga ko'ra dunyoda 3-o'rinda turadi (9,5). Maydoni g'arbdan sharqqa 5,7 ming km, shimoldan janubga 3,7 ming km masofaga cho'zilgan. Mamlakatning sharqi va janubi-sharqiy qismlari katta masofada okean bilan tutash, lekin mamlakat hududining katta qismi okeandan uzoqda bo'lsa-da, Yanszi va Xuanxe daryolari bo'ylab dengiz kemalari 1000 km dan ko'proq ichkariga kirib bora oladi. Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi Yaponiya va «Osiyo yo'lbarslari» mamlakatlariga yaqinligi, Rossiya bilan chegaradoshligi, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasining sivilizatsiya markazi bo'lib kelganligidir. Xitoy quruqlik chegarasining asosiy qismi baland tog'lar va cho'llardan o'tadi.

Xitoy Xalq Respublikasi siyosiy-ma'muriy jihatidan 23 ta provinsiya, 5 ta avtonom rayon va markazga bo'ysunuvchi 3 ta shahar (Pekin, Shanxay, Tenzin)dan tashkil topgan. Xitoy hududi tarixda bir necha bor mo'g'ul va yapon bosqinchilari tomonidan istilo qilingan. Shuning uchun Xitoyning shimolida 4000 km lik Buyuk Xitoy devori qurilgan. Gobi, Alashan, Ordos, Takla-Makon cho'llari bor.

Xitoy hududining 80% ini relyefi murakkab, ya'ni tog'lardan iborat, ayniqsa, Himolay, Kunlun, Tyan-Shan, Tibet, Nanshan, Hingan tog'lari egallagan hududlar qishloq xo'jaligi va transport yo'llarini o'tkazish uchun noqulay.

Xitoy Xalq Respublikasining shimoli mo'tadil, markazi subtropik, janubi subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Qishloq xo'jaligi uchun eng qulay bo'lgan Buyuk Xitoy tekisligi va Xitoyning sharqiy sohillari musson yomg'irlari va tayfunlar (soatiga 100–150 km tezlikda sohillarga bostirib keluvchi kuchli bo'ronlar) shahar va qishloqlarga, ekinzorlarga, sug'oruv sistemalariga katta zarar yetkazadi. Mamlakat hududining 10% ini o'rmonlar egallagan. Mamlakat mineral resurslarga boy. Mamlakat shimolida yirik ko'mir konlari (markazida – Datun), yonuvchi slanets, osh tuzi, yirik neft konlari (ayniqsa, Sariq dengiz shelfida, Dasingaga mamlakat neftining yarmi to'g'ri keladi), temir, qalay, surma, boksit konlari bor. Xitoyning g'arbiy va janubi-g'arbiy hududlari kam o'zlashtirilgan.

Xitoy 2000-yildan buyon dunyodagi eng seraholi mamlakat bo'lib kelmoqda va immigratsiyaning asosiy o'choqlaridan biriga aylanib qolgan. Aholining ko'plab ko'chib ketishi, ayniqsa, XIX va XX asrda kuzatilindi.

Xorijiy mamlakatlarda xitoyliklar ko'p to'plangan markazlar paydo bo'ldi, ular xuasiyao deb ataladi. Xorijiy mamlakatlarda hozirda 30 mln dan ortiq xitoyliklar yashaydi. Buning 90% i janubi-sharqiy Osiyoga to'g'ri keladi. Xuasiyaolar sababli Singapur aholisining 85%, Malayziya aholisining 34%, Tailand aholisining 13% i xitoyliklardir.

1949-yildan 1990-yillargacha Xitoy aholisi ikki barobar ko'paydi va 1134 mln, 1998-yil 1248 mln, 2003-yil 1295 mln, 2006-yil 1318 mln kishiga yetdi. Tug'ilish koeffitsienti 13%, o'lim

6%. Bir ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 22% ini, 64 yoshdan o'tganlar 7% ini tashkil etadi. O'rtacha umr 69–73 yosh. YMD – 3950 AQSH dollari (2001). Xitoyda iqtisodiy faol aholi 700 mln kishini tashkil etadi, shuning 2/5 qismidan ortig'i yoshlardir. Demografik siyosatga qaramay Xitoyda tabiiy o'sish yiliga 12 mln kishidan ortiq. Etnik tarkibiga ko'ra Xitoy ko'p millatli davlat. Xanlar yoki Xansiyalar butun aholining 92% ini tashkil etadi. «Kichik millat»lar butun aholining 8% ini (80 mln kishi) tashkil etgani holda 60 ga yaqin millat va elatlardan tashkil topgan. Ular Xitoyning g'arbiy qismida va tog'li hududlarida tarqalgan bo'lib, butun Xitoy hududining yarmini egallagan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 100 kishidan ortiq, biroq aholisining 90% i mamlakat hududining 1/3 qismida to'plangan. G'arbiy hududlarda, ya'ni mamlakat hududining 20% ida odam deyarli yashamaydi. Xitoy aholi bo'yicha har qanday ko'rsatkichlarda (shaharlar soni, qishloqlar soni (700 ming), millioner shaharlar 34 ta) dunyoda birinchi o'rinda turadi. Urbanizatsiya 24%. Asosiy siyosiy partiyalari Xitoy kommunistik partiyasi (1921-yilda tashkil topgan).

Xitoy xo'jaligining tarixiy rivojlanishida Sobiq SSSR ning ta'siri kuchli bo'lgan. Sobiq SSSR Xitoy Xalq Respublikasiga 1,8 mlrd so'm kredit bergan va 260 ta yirik korxona qurishga yordam bergan. 1960-yillardan Mao Szedum siyosati («katta sakrash» va «madaniy revolyutsiya») sababli Sovet–Xitoy munosabatlari yomonlashgan va chegara notinchligi kuzatilgan. 1980-yillardan ikki davlat munosabatlari yana yaxshilangan.

Hozirgi Xitoy sanoati ishlab chiqarishning umumiy hajmiga ko'ra dunyoda birinchi o'rinda turadi. Mamlakat hududi iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra 3 ta iqtisodiy hududga: G'arbiy, Sharqiy va Markaziyga bo'linadi.

Xitoy sanoatini, avvalambor, og'ir sanoat belgilaydi. Og'ir sanoat tarmoqlari orasida, ayniqsa, toshko'mir qazib chiqarish muhim rol o'ynaydi. Asosiy ko'mir havzalari shimoli-sharqda (Fushun va Fusin) va shimoliy Xitoyda (Dahun). Fushun va Fusinda ko'mir, asosan, shaxta va ochiq usulda, Datunda esa shaxta usulida qazib olinadi. Ko'mir konlarining metallurgiya markazlariga yaqinligi iqtisodiy qulaylikni oshiradi. Xitoy

1987-yil 920 mln t, 1990-yil 1100 mln t ko'mir qazib olib jahonda yetakchilik qilmoqda. Neft, asosan, mamlakatning shimoli-g'arbidan va Sichuon Ra viloyatidan qazib olinadi. Eng yirik neft koni Dasinga konidir.

Mamlakatda 1995-yil 140 mln t neft qazib olindi (jahonda 5-o'rinda). Xitoy Xalq Respublikasida 1987-yil 496 mlrd kVt/s, 2000-yil 930 mlrd kVt/s (dunyoda 3-o'rin) elektr energiyasi hosil qilingan bo'lib, uning asosiy qismi (75% i) IES larda hosil qilingan. IES lar, asosan, mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqida, ya'ni ko'mir havzalari atroflarida joylashgan. GES lar Xuanxe va Yanszi daryolarining yuqori oqimlarida qurilgan. AES lar ham mavjud. Xitoyda noodatiy energiya manbalaridan ham (Geotermal va qalqish ES) foydalaniladi.

Qora metallurgiya sanoatining asosiy markazlari kokslanuvchi yirik ko'mir va ruda konlari bo'lgan rayonlarda vujudga kelgan. Ularning ichida eng yirigi shimoli-sharqdagi Anshan metallurgiya kombinati bo'lib, bu yerda yiliga 7–8 mln t cho'yan eritiladi. Shimoliy Xitoydagi eng yirik kombinat Baotouda, markaziy Janubiy Xitoyda, Uxanda joylashgan.

Temir zaxirasi bo'yicha birinchi o'rin, qazib olish bo'yicha 4-o'rinda turadi. Xitoy Xalq Respublikasida 1990-yil 60 mln t po'lat, 44 mln t prokat eritildi. 2000-yil 115 mln t (birinchi o'rinda) eritildi.

Mashinasozlik korxonalarida ixtisoslashgan korxonalar emas, universal korxonalar ustun turadi. Ular, asosan, yirik shaharlarda, dengiz portlarida, metallurgiya bazalari yaqinida joylashgan. Masalan, Shenlida og'ir mashinalar va dastgohlar, Chanchunda avtomobillar, ayniqsa, Yanszi bo'ylarida mashinasozlik rivojlangan. Shanxayda dengiz kemalari ishlab chiqariladi. Xitoy Xalq Respublikasida 1987-yil 472 ming avtomashina, 40 ming traktor ishlab chiqarilgan.

Ma'lumki, Xitoy ip-gazlama ishlab chiqarishda dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ishlab chiqarilgan gazlamaning 90% i ip-gazlamalardir. Mamlakatning asosiy paxta bazasi Shimoliy Xitoy bo'lib, ip-gazlama sanoati Shanxayda joylashgan.

Qishloq xo'jaligida 400 mln dan ortiq kishi band. 1990-yil Xitoyda 450 mln t g'alla yetishtirildi. Buning asosiy qismi-

ni (180 mln t) sholi tashkil etadi. Sholi mamlakatning, asosan, janubi-sharqida, ya'ni Yashil Xitoyda (choy ham) yetishtiriladi. Bug'doy (1990-yilda 95 mln t) shimoli-sharqida, shuningdek, makkajo'xori, gaolyan Sariq Xitoyda yetishtiriladi.

Mamlakatning shimoli-g'arbiy va g'arbiy qismlari «quruq Xitoy» deyiladi. Bu yerda ekstensiv chorvachilik, janubi-g'arbda — «sovuq Xitoy»da (Tibet, Kunlun, Himolay) qishloq xo'jaligi sust rivojlangan. Xitoyda 1987-yil 4,2 mln t, 1990-yil 4,5 mln t paxta tolasi yetishtirildi. Cho'chqalar soni dunyo bo'yicha 870 mln, Xitoyda 326 mln, qo'ylar 178 mln, qoramol 126 mln bosh.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Rossiya xo'jaligining asosiy xususiyatlari nimada?
2. Xitoyning rivojlanish darajasini qanday baholash mumkin?
3. Xitoyda qanday tabiiy resurslar eng ahamiyatli hisoblanadi?
4. Rossiyaning eng yirik GES lari, asosan, qaysi daryoda qurilgan?
5. Nima uchun Xitoy aholisi so'nggi yillarda son jihatdan kamaya boshlagan?

III bob. YEVROPA QIT'ASI MAMLAKATLARINING MA'MURIY GEOGRAFIYASI

3.1. Yevropa mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi

Bugungi kunda Yevropada tarixiy taqdiri umumiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlari turli xil bo'lgan 43 ta suveren davlat joylashgan. Yevropa maydoni 51 mln km², aholisi 500 mln kishi. Yevropa — jahon sivilizatsiya markazlaridan biri, buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat inqiloblari, shahar aglomeratsiyalari, madaniy va siyosiy revolyutsiyalar, xalqaro iqtisodiy integratsiya ro'y bergan qit'a. Maydoni shimoldan janubga 5000 km ga, g'arbdan sharqqa 3000 km ga cho'zilgan. Xorijiy Yevropa mamlakatlarining maydoni, asosan, o'rta va mayda bo'lib, eng kattasi Fransiya (maydoni 551000 km²), kichigi Vatikan (44 gektar).

Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi:

- mamlakatlarning bir-biriga nisbatan yaqin qo'shni ekanligi;
 - hududining kichikligi va chegaralarining yaqinligi;
 - transportning yaxshi yo'lga qo'yilganligi;
 - aksariyat mamlakatlarning dengiz bo'yida joylashganligi;
 - hamma rivojlangan davlatlarning bir joyda to'planganligi,
- ayniqsa, yettilikka kiruvchi davlatlarning 4 tasi shu joyda joylashganligi.

Yevropaning siyosiy xaritasi qadimdan juda ko'p o'zgarib kelgan. Birgina XX asrning o'zida regionning siyosiy xaritasi 3 marta o'zgardi (1—2-jahon urushlaridan so'ng va 1990-yillarda). 1990-yillardagi siyosiy o'zgarishlardan so'ng Yevropa siyosiy xartasida 8 ta suveren davlat paydo bo'ldi (MDH davlatlari bundan mustasno).

Yevropada davlat tuzumiga ko'ra respublikalar ham (Polsha, Fransiya, Gretsiya), monarxiyalar ham (Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya), federativ (Avstriya, Shveysariya) davlatlar ham bor.

Yevropada sanoatning rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko'p jihatdan foydali qazilmalar bilan bog'liq. Yirik foydali qazilmalar quyidagi havzalarda to'plangan: toshko'mir RUR (GFR) va Yuqori Sileziyada (Polsha), neft-gaz Shimoliy dengiz havzasida, temir Lotaringiya (Fransiya) va Karuna (Shvetsiya)da.

Foydali qazilma turlarining ayrim mamlakatlarda to'la emasligi hududning tektonik tuzilishi bilan bog'liq.

Xorijiy Yevropaning gidroenergetika resurslari, asosan, Alp, Dinara va Skandinaviya tog'lari joylashgan hududlarga to'g'ri keladi. Masalan, Norvegiya.

Xorijiy Yevropada bir qator harbiy, siyosiy-iqtisodiy blok va tashkilotlar mavjud. Masalan, NATO – Shimoliy Atlantika Harbiy Tashkiloti. 1949-yil tuzilgan harbiy-siyosiy blok. Shtab kvar-tirasi Bryusselda, 15 mamlakat a'zo.

Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi yoki «Umumiy bozor» siyosiy-iqtisodiy tashkiloti. 1957-yil 27-martda Rimda tuzilgan. YIHga dastlab 6 ta mamlakat a'zo bo'lgan. Hozirda ularning soni 27 ta. 1972-yil Buyuk Britaniya, Irlandiya. 1982–1986-yil, 1990-yil 11 ta, 1994–1996-yil 15 ta, 2004-yil 25 ta, 2006-yil Ruminiya, Bol-gariya, 27 ta.

Aholisi. Keyingi vaqtlarda Xorijiy Yevropa aholisi juda sekin o'smoqda. Bunga asosiy sabab regiondagi demografik vaziyatning murakkabligi. Aholining yosh tarkibida keksalar salmog'i ortib bormoqda. Aholi soni chet ellardan ko'chib keluvchilar hisobiga stabilashib turibdi.

Yevropa dunyoning aholi eng zich joylashgan regionlaridan biri. Aholi zichligi 1 km² ga 104 kishi to'g'ri keladi (Yevropada 64 kishi). Urbanizatsiya darajasi eng katta hudud. Shaharlarda o'rta hisobda jami aholining 75% dan ortig'i, ayrim mamlakat-larda 90% dan ortig'i yashaydi.

Shahar aglomeratsiyalari ham eng yuqori bo'lgan hudud jahon-da Xorijiy Yevropadir. Eng yirik aglomeratsiyalar London, Parij, Reyn-Rur kabilardir.

Yevropa mamlakatlarida boshqa regionlarga nisbatan migra-tsiya kuchli kuzatiladi. XX asrning 2-yarmidan boshlab, ayniqsa, Irlandiya ((4mln kishi yashaydi) chet ellarda Irlandiyadan ko'p irlandlar yashaydi), Buyuk Britaniya, Portugaliya, Ispaniya, Ita-liya va Gretsiyada emmigratsiya juda ortib ketdi. Emmigrantlar, asosan, AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiya dan Avstraliya va Lotin Amerikasi mamlakatlariga ketmoqda. Xorijiy Yevropadagi asosiy emmigratsiya o'chog'i Portugaliya, immigratsiya o'chog'i esa Germaniyadir.

Ma'muriy-siyosiy jihatdan Yevropa quyidagi guruhlariga bo'linadi: Shimoliy Yevropa, G'arbiy Yevropa, Sharqiy Yevropa, Janubiy Yevropa va Markaziy Yevropa mamlakatlari. Shimoliy Yevropa davlatlariga Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya, Daniya va boshqalar kiradi. Ular, asosan, yuqori rivojlanish darajasiga ega. Janubiy Yevropa davlatlariga Italiya, Gretsiya, Makedoniya, Albaniya, Malta, Vatikan va boshqalar kiradi. Ushbu mamlakatlar turlicha rivojlanishga va tuzumga ega. G'arbiy Yevropa mamlakatlariga Ispaniya, Fransiya, Portugaliyalilar kiradi va ular ham yuqori rivojlanish darajasiga ega. Markaziy Yevropa mamlakatlariga Germaniya, Shveysariya, Avstriya va boshqa davlatlar kiradi. Sharqiy Yevropa davlatlariga esa Ukraina, Polsha, Boltiqbo'yi davlatlari, Moldova, Ruminiya va boshqalar kiradi. Ularning barchasiga ta'rif berish imkoni yoqligi uchun muhimlariga alohida etibor beriladi. Bu borada, ayniqsa, rivojlanishi yuqori bo'lganlariga umumiy ma'lumotlar beriladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yevropada XX asrning 80–90-yillarida va hozirgi vaqtda qancha mamlakat mavjud bo'lgan?
2. Sharqiy Yevropa siyosiy xaritasida 1989–2000-yillarda bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Yevropa mamlakatlarining shakllari to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Yevropa tabiiy resurslar bilan qanday ta'minlangan?

3.2. Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar geografiyasi

Yevropadagi rivojlangan mamlakatlarga Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya, Daniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Germaniya kabi rivojlanish darajalari juda yuqori davlatlar kiradi. Ushbu mamlakatlar jahon xo'jaligida ham katta hissalarga ega.

Buyuk Britaniya. Buyuk Britaniya Britaniya orollarida (Yevropadagi eng yirik orol) joylashgan. Birlashgan Qirollik tarkibiga Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya kiradi. Buyuk Britaniya — eng katta orolning nomi, Angliya davlatining asosiy

tarixiy nomi. Mamlakatning xalqaro dengiz va havo yo'llari tuginida joylashganligi muhim ahamiyatga ega. Maydoni 244 ming km². Aholisi 1996-yilda 58,8 mln, 2001-yilda 59,2 mln, 2006-yilda 60,5 mln kishini tashkil etgan.

Buyuk Britaniyada kapitalizm Yevropadagi boshqa mamlakatlarga nisbatan ertaroq rivojlandi. Shu tufayli u dengizga hukmronlik qilishga, katta va boy mustamlakalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgan. 2-jahon urushi arafasida Britaniya imperiyasining maydoni 34,6 mln km² (142 marta ko'p), aholisi esa 700 mln kishidan (12,5 marta ko'p) ortiq edi. 2-jahon urushidan keyin bu imperiya tez parchalandi. 1990-yillari Buyuk Britaniya nazorati ostida, asosan, orollardagi 12 ta mustamlaka va qaram hududlar bor edi. Masalan, Bermud, Kayman orollari, Gonkong, Avliyo Yelena, Gibraltar, Angilya, Folklend orollari.

Buyuk Britaniya Hamdo'stlik markazi, u hozirgi vaqtda 49 ta mustaqil davlat kiradigan siyosiy va iqtisodiy birlashmadir.

Siyosiy adminstrativ bo'linishi 47 graflik, 6 metropoliten grafli-gi, Katta London, 12 oblast, 6 okrug, Men va Normand orollari-dan iborat. Yirik shaharlari: London (7 mln), Birmingem (961000), Glazgo (716000), Lids, Liverpul, Edinburg, Manchester.

Buyuk Britaniyaning urushdan keyin iqtisodiy mavqeyi va siyosiy nufuzi biroz bo'shashib qolgan bo'lishiga qaramay, u hamon jahonda kuchli iqtisodiy, moliyaviy va harbiy-siyosiy mav-qeyini saqlab kelmoqda. Buyuk Britaniya NATO ning faol a'zosi. 1973-yildan buyon YIH ga a'zo.

Aholisi. XX asrning 2-yarmiga qadar aholining okean ortiga ommaviy ravishda ko'chib ketishiga qaramay mamlakat aholisi tez o'sdi. Lekin keyingi paytlarda aholi tabiiy o'sishining sezilarli pasayishi natijada ingliz millatining «qarishi» sezilmoqda. Buyuk Britaniyada tug'ilish koeffitsienti 11%, o'lim 10%. Bir ayolga 1,6 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 19%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%. O'rtacha umr 75–80 yosh. YMD 24340 dollar (2001).

Buyuk Britaniya urbanizatsiya darajasining juda yuqoriligi bilan ajralib turadi, aholisining 92% i shaharlarda yashaydi. Masalan, London aglomeratsiyasida 13 mln kishi yashaydi, zichligi 1 km² maydoniga 750 kishi. Mamlakatda 1 km² maydoniga

246 kishi to'g'ri keladi. Aholisining 80% i inglizlar, qolganini shotlandlar, uelsliklar (valliylar), irlandlar tashkil etadi.

Davlat tuzumi — konstitusion monarxiya. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Buyuk Britaniya Konservatorlar partiyasi (1867).
2. Buyuk Britaniya Leyboristlar partiyasi (1900).
3. Buyuk Britaniya sotsial demokratik partiyasi (1981).
4. Buyuk Britaniya kommunistik partiyasi (1920).

Buyuk Britaniya sanoati ichki yalpi mahsulotning 50% ini, eksportning qariyb 90% ini beradi. Dunyoda sanoat ishlab chiqarishning yalpi hajmi jihatidan 1986-yil 5-o'rinni egallagan.

Buyuk Britaniya neft qazib olishda Shimoliy Dengiz hisobiga G'arbiy Yevropada 2-o'rinda turadi (yiliga 115 mln t, 2006), 1-o'rinda Norvegiya. Energiya balansida GES larning roli past, asosan, IES lar energiya beradi. Keyingi paytlarda AES larning salmog'i ortib bormoqda. Elektr energiya jahonda 9-o'rinda (2,5% 370 mln kVt/soat).

Buyuk Britaniya yuqori kalloriyalı kokslanuvchi ko'mirning katta zaxialariga ega. Yuqori sifatli temir rudasi Shvetsiya, Liberiya, Kanada kabi davlatlardan keltirilganligi sababli asosiy qora metallurgiya korxonalari dengiz bo'ylarida va ko'mir qazib olinadigan rayonlarda joylashgan.

Rangli metallurgiya korxonalari ham, asosan, dengiz bo'ylarida joylashgan.

Mashinasozlik Buyuk Britaniya sanoat tarmoqlari orasida 1-o'rinni egallaydi. Ko'p mahsuloti eksportga mo'ljallangan sanoat tarmoqlari: dastgohsozlik, elektrotexnika, asbob-uskunalar, jihozlar, avtomobillar, traktorlar ishlab chiqarish, ayniqsa, ajralib turadi. Mamlakatda chiqariladigan dastgohlarning 20% ini AQSH firmalari ishlab chiqaradi.

Kimyo sanoatida neftni qayta ishlash bazasida neft mahsulotlari va sintetik tola ishlab chiqarish, ayniqsa, tez rivojlanmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Buyuk Britaniya tabiiy sharoiti dehqonchilikdan ko'ra chorvachilik uchun qulay. Mamlakat hududining 47% i yaylovlar, ekin maydonining 2/3 qismi yem-xashak va il-diz mevali o'simliklar bilan band. Tabiiy o'tloqlarga o'g'it solinib turiladi.

Asosiy donli ekinlari: bug'doy, arpa, suli.

Asosiy texnik ekinlari: qandlavlagi.

Yalpi don hosili 25 mln t, qoramol tuyog'i — 12,5 mln, qo'y-lar — 37 mln, cho'chqalar — 8 mln, parrandalar — 131 mln.

Mamlakat ichkarisidagi yuk oborotining katta qismi avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Avtotransport raqobati natijasida juda zich temiryo'llarning bir qismi olib tashlanmoqda. Temiryo'llarning umumiy uzunligi 16,8 ming km (elektrlashtirilgani 3,7 ming km) bo'lib, katta avtoyo'llarning uzunligi 347 ming km.

Buyuk Britaniya qudratli dengiz savdo va yo'lovchi tashish flotiga ega. Havo transporti yaxshi rivojlangan. Buyuk Britaniya hududi iqtisodiy geografik jihatdan 5 qismga ajratiladi:

1. Janubiy qism — London atrofi.
2. Janubi-Sharq (Yashil Angliya).
3. Markaziy qism.
4. Shotlandiya.
5. Olster (Shimoliy Irlandiya).

Asosiy eksport mahsulotlari: mashina va uskunalar, samolyotlar, traktorlar, kemalar, qurol-yarog', jun, sintetik gazlama, po'lat va h.k.

Importi: paxta, oltingugurt, temir rudasi.

Pul birligi — funt sterling.

Germaniya. Maydoni 357000 km². Aholisi 2001-yilda 82,2 mln, 2006-yilda 82,4 mln kishi. Poytaxti Berlin (3,4 mln kishi). Davlat tili nemis tili. 1949-yil 3 davlat (AQSH, Angliya, Fransiya) okkupatsiyasi hududida tashkil topgan. IGO' ga ko'ra Xorijiy Yevropaning markazida joylashgan bo'lib, temiryo'llar, suv, avtoyo'llar va havo yo'llari tugunida joylashganligi xarakterlidir. GFR iqtisodiyotida Reyn va uning irmog'i Rurning ahamiyati katta. Barcha qo'shni davlatlari yuqori darajada rivojlangan.

GFR 1955-yil NATO ga, 1973-yil BMT ga a'zo bo'ldi. 1970-yil-larga kelib Polsha, Chexiya, GFR va sobiq SSSR bilan chegara yaxlitligini tan oldi. 1957-yildan buyon YIH ga a'zo. GFR hududiga 1980-yillarda AQSH raketa-yadro qurollari va harbiy bazalari joylashtirilgan.

GFR — 16 ta o'lkaning federatsiyasidir. GFR da quyidagi siyosiy partiyalar mavjud:

1. Xristian-demokratlar ittifoqi (HDI).
2. Erkin demokratik partiya (EDP).
3. Germaniya sotsial-demokratik partiyasi (GSDP).
4. Germaniya kommunistik partiyasi (GKP).
5. Ko'katparvarlar partiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotining qo'shilishidan 1980-yil tashkil topgan.
6. Natsional demokratik partiyasi (NDP) 1964-yil tuzilgan yangi fashistlar partiyasi.
7. Nemis kasaba soyuzlari birlashmasi (NKP).

Aholisi. GFR aholisining soni jihatidan Xorijiy Yevropadagi eng yirik mamlakat. 2003-yilda 82,6 mln, 2006-yilda 82,4 mln kishi. Tug'ilish koeffitsienti 90%, o'lim 100%. Bir ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 15%, 64 yoshdan o'tganlar 17%. O'rtacha umr 75–81 yosh. YMD 25240 dollar (2001).

Aholining joylashuvi, uning mehnatda bandlik strukturasini GFR ning industrial mamlakat ekanligini ta'kidlaydi. Aholining o'rtacha zichligi (1 km² ga 240 kishi)ga ko'ra Yevropada, hatto dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Reyn–Rur aglomeratsiyasining ba'zi joylarida aholi zichligi 1 km² ga 5000 kishigacha yetadi. Urbanizatsiya darajasiga ko'ra dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi. Aholisining 86% i shaharlarda yashaydi. Reyn daryosi bo'ylari va Rur havzasi ekologik jihatidan eng iflos hudud hisoblanadi. GFR da aholisining 48% i noishlab chiqarishda, 41% i esa sanoat va qurilishda band.

GFR sanoat va ishlab chiqarish darajasi jihatidan jahonda 3-o'rinda turadi. 1986-yil yalpi milliy mahsulot 1949 mlrd markani tashkil etdi. Metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, mashinasozlik tarmoqlari, qurilish sanoati yuksak darajada rivojlangan.

GFR xo'jaligining bu qadar yuksalishida Janubiy Yevropa va Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlaridan kelayotgan 3–4 mln kishilik arzon ishchi kuchlarining ta'siri ham yuqori. Sanoatining ayrim tarmoqlari, masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati o'sishdan deyarli to'xtab qolmoqda.

Qishloq xo'jaligi o'z mahsulotining qiymati jihatidan sanoatdan 20 barobar orqada turadi.

GFR tabiiy resurslardan toshko'mir, kaliy tuzi va toshtuz konlariga boy. 1986-yil GFR da 81 mln t toshko'mir qazib olingan.

GFR energetikasida 1960-yillargacha toshko'mir asosiy o'rin tutgan. FTI davrida toshko'mir qazib olish keskin kamayib, energetika balansida neft-gaz hissassi 60% gacha ko'tarildi. AESlar soni, ayniqsa, ko'paymoqda. 2006-yil GFR 560 mlrd kVt/soat (dunyoda 4-o'rin) elektr energiya hosil qildi.

Qora metallurgiya sanoati uchun temir rudasining 90% i chetdan keltiriladi, xromit va marganes ham chetdan keltiriladi. GFR 1986-yil 28,9 mln t cho'yan, 45 mln t po'lat, 36 mln t prokat ishlab chiqargan.

Mashinasozlik GFR sanoatining yetakchi tarmog'i. Mashina ishlab chiqarish bo'yicha GFR AQSH dan keyin 2-o'rinda, eksport qilish bo'yicha esa 1-o'rinda turadi. Avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda (Yaponiyadan keyin) turadi. Yiliga 4,5 mln avtomobil tayyorlanadi. «Folksvagen» va «Mercedes» firmalarining filiallari bir qancha mamlakatlarda ham mavjud. Mashinasozlik, asosan, Rur havzasida, kemasozlik esa Gamburgda rivojlangan.

Kimyo sanoati eng yuksak darajada rivojlangan. Mazkur sanoatning eng muhim markazi Rur havzasidir. Kimyo sanoati xomashyosining ko'mir kimyosidan neft kimyosiga o'tishi Germaniyaning «kimyolashgan» mamlakatga aylanishiga sabab bo'ldi.

Yuksak intensiv qishloq xo'jaligi mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining 76% ini ta'minlamoqda. Yirik fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligining asosini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq chorvachilik bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 4/5 qismini beradi. GFR chorvachiligi asosini qoramol va cho'chqa tashkil etadi. Donli ekinlar ichida bug'doy, javdar, arpa, suli asosiy rol o'ynaydi. Arpadan pivo tayyorlanadi. Bu soha Bovariyada yaxshi rivojlangan. Xmel ko'p yetishtiriladi. Donli ekinlarning o'rtacha hosildorligi gektariga 52,5 sentner.

Transporti. Temiryo'llarning umumiy uzunligi 32,5 ming km (1/3 qismi elektrlashtirilgan). Temiryo'llarda yuk tashish bo'yicha Fransiya dan keyin 2-o'rinda turadi. GFR da daryo transporti muhim ahamiyat kasb etadi, hatto butun Yevropa bo'yicha. Eng muhim transport tugunlari: Gamburg, Myunxen, Kyoln.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Tashqi iqtisodiy aloqalar GFR uchun muhim ahamiyatga ega. 1986-yildan mamlakatda ishlab chiqari-

ladigan jami mahsulotning 25% i eksport qilinadi. Asosiy eksport mahsulotlari: avtomobillar, dastgohlar, sanoat jihozlari, elektro-texnika buyumlari, kimyoviy moddalar, qurol-yarog'.

Importi: sanoat mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyolar, neft-gaz.

Pul birligi — GFR markasi.

Fransiya Respuikasi. Maydoni 544000 km². Aholisi 1996-yilda 58,3 mln kishi, 2001-yilda 59,8 mln kishi, 2006-yilda 62,1 mln kishi. Fransiyaning IGO' uchun 2 ta asosiy xususiyat xos:

1. Fransiya YIH ga a'zo mamlakatlar bilan bevosita chegaradosh bo'lib, uning chegarasi yaqinida bu mamlakatlarning industrial rayonlari joylashgan. Masalan, Reyn—Rur, London rayoni, qolaversa, Yevropadagi Markaz o'qi o'tgan.

2. Fransiya sohillari Atlantika okeanining dengiz va qo'ltiqlari bilan bevosita tutashgan bo'lib, bu holat jahon mamlakatlari bilan arzon dengiz transporti orqali savdo-sotiq qilish imkonini beradi.

Fransiya quruqlik orqali 8 mamlakat bilan chegaradosh bo'lib, ayniqsa, GFR, Italiya, Buyuk Britaniya bilan chegaradoshligi muhim rol o'ynaydi.

Fransiya ma'muriy jihatdan 96 departamentga bo'lingan. Parij alohida departament huquqiga ega. Mamlakatda 4 mln ga yaqin jazoirliklar, portugallar, italyanlar va ispanlar yashaydi.

Fransiya Xorijiy Yevropada maydoniga ko'ra eng yirik mamlakat hisoblanadi.

Aholisi. Fransiyada tabiiy o'sish darajasi anchagina past bo'lib, millatning qarishi kuzatilmoqda. Tug'ilish koeffitsienti 130‰, o'lim 90‰. Bir ayolga 1,9 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 19%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%. O'rtacha umr 76—83 yosh. YMD 24080 dollar (2001). Mehnat resurslarini to'ldirishning muhim vositasi qadimdan immigratsiya bo'lib kelgan. Aholi joylashuviga qishloqlardan odamlarning shaharlarga to'xtovsiz ko'chib kelishi (XX asrda aholining buyuk ko'chishi) kuchli ta'sir etadi. Natijada urbanizatsiya jarayoni jadal rivojlanib bormoqda. Hozirda Fransiya aholisining 79% i shaharlarda, 21% i qishloqlarda yashaydi.

Yirik shaharlari: Parij (2,1 mln kishi), Marsel (808 ming), Lion, Tuluza, Nissa, Strasburg.

Fransiya 1949-yil NATO ga kirgan edi, lekin 1966-yil u NATO dan rasmiy ravishda chiqib ketgan bo'lsa-da, baribir hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. Prezident 7 yil muddatga saylanadi.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Respublikani quvvatlovchi birlashma (1976). Sharl Fure, Robert Ouen, Sen-Simon.

2. Fransiya sotsialistik partiyasi (FSP, 1951).

3. Fransiya kommunistik partiyasi (FKP, 1920).

Fransiya xo'jaligi II jahon urushida katta iqtisodiy zarar ko'rdi. Ekonomikasining deyarli barcha tarmoqlari yangi texnika bilan ta'minlandi. Eng yangi tarmoqlar — atom, radiotexnika, neft kimyosi, aerokosmik tarmoqlar rivojlanadi.

Fransiya sanoat mahsulotlarining hajmi jihatidan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida dunyoda 4-o'rinni egallaydi. Milliy daromadda qishloq xo'jaligining salmog'i 1/10 qismidan kamroqni tashkil etsa-da, u aholini asosiy oziq-ovqatlar bilan ta'minlaydi va eksportda ham katta rol o'ynaydi.

Sanoati. Energetikasi qisman o'z resurslariga tayanadi. Ko'mir, asosan, shimoldan (Elzas va Lotaringiyadan), neft va tabiiy gaz esa oz miqdorda janubi-g'arbdan qazib olinadi. Mamlakat neftga bo'lgan ehtiyojini, asosan, chet el hisobiga (Jazoir, Liviya, Venesuela, MDH va Yaqin Sharq mamlakatlari) qondiradi. Shuning uchun ham neftni qayta ishlovchi asosiy markazlar dengiz bo'ylaridagi port shaharlarda (Marsel, Bordo, Nant, Gavr, Ruan) joylashgan. Fransiyaning uran rudasiga boyligi va ko'p qazib olishi, shuningdek, Afrikadagi sobiq mustamlakalardan uran konsentrantini ko'plab keltirilishiga asoslanib atom energetikasi va atom sanoati tez rivojlanmoqda.

Qora metallurgiya sanoati Yevropadagi eng katta Lotaringiya temir rudasi konlaridan foydalanadi. Lekin temir rudasini eksport qilishning ilgarigi ahamiyati yo'qolib bormoqda. O'rtayer dengizi sohillari boksitga boy bo'lib, Alp va Pireney tog' etaklaridagi arzon GESlar energiyasi aluminiy eritish imkoniyatini beradi.

Mashinasozlik butun sanoat mahsulotlari qiymatining 1/3 qismidan ko'prog'ini va eksport mahsulotining asosiy qismini bera-

di. Mashinasozlik sanoatining joylashuvida Parij, ayniqsa, katta rol o'ynaydi. Butun mamlakatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 25% ini birgina Parij beradi.

Kimyo sanoati tarmoqlari jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, bu sanoat korxonalari tarqoq joylashgan. Kimyo zavodlari xomashyolar yaqinida, portlarda, GES lar yaqinida va katta shaharlarda joylashgan. To'qimachilik sanoati o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotgan (ip-gazlama va jun-gazlama), hozirda sintetik tolalardan to'qilgan turli matolar bilan jahonga tanilmoqda.

Qishloq xo'jaligi. Fransiya hududining 35% i haydaladigan yerlardir. Qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, go'sht, sut tayyorlash, bug'doy, qandlavlagi yetishtirish jihatidan Xorijiy Yevropada 1-o'rinda, uzum vinosi tayyorlash, sohillarda ustritsa yig'ish jihatidan dunyoda 1-o'rinda turadi. Asosiy texnika ekini qandlavlagi. Rona daryosi etaklarida sholi, Shampän viloyatida (O'rta dengiz bo'yi) uzum, Nissa rayonida gul ko'p ekiladi (parfyumeriya uchun). Mehnatga yaroqli aholining 10% i qishloq xo'jaligida band.

Fransiyada tashiladigan jami yukning 60,7% i dengiz transportida, 21,2% i avtomobil transportida, 10,6% i temiryo'l transportida, 5,2% i quvur transportida, 1,5% i ichki suv transportida, 0,85% i havo transportida tashiladi.

Fransiyada tashiladigan jami yo'lovchining 84,2% i avtomobil transportida, 9% i temiryo'l transportida, 6,8% i havo transportida tashiladi.

Mamlakat ichkarisida tashiladigan yuklarning yarmi temiryo'llarda tashiladi. Temiryo'llar salkam 40000 km bo'lib, uning 10000 km i elektrlashtirilgan. Parij—Bordo temiryo'lining tezligi 350 km soat. Parij—Strasburg temiryo'lining uzunligi 515 km.

Tashqi savdoda dengiz floti muhim rol o'ynaydi. Fransiya eksportining 3/4 qismi tayyor buyumlar («Reno» avtomobillari, A-310 samolyotlar, dengiz kemalari, qurol-yarog', AES lar uchun uskunalari, temir, aluminiy, atir-upa, bug'doy, sut, go'sht, shakar, vino)ga to'g'ri keladi.

Tashqi savdo 1-navbatda YIH davlatlar va AQSH, Yaponiya bilan olib boriladi.

Fransiya chetga kapital eksport qiluvchi yirik davlat. Xalqaro sayyohlik Fransiya katta daromad keltiradi. 1989-yil Fransiya 50,2 mln sayyoh kelib ketdi va sayyohlikdan 16,5 mlrd dollar daromad tushdi. Sayyohlik bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. 2001-yil Fransiya 75 mln sayyohlik kelgan.

Pul birligi — Fransiya franki.



Italiya Respublikasi. Italiya — Yevropaning janubidagi davlat. Maydoni 301,2 ming km². Hududi tarkibiga ko'ra 3 qismdan: materik, yarimorol va orollardan (Sitsiliya, Sardiniya va bir qancha mayda orollardan) iborat. Quruqlik orqali 4 ta davlat bilan chegaradosh. Dengiz chegarasi quruqlik chegarasiga nisbatan 4 barobar uzun. Mamlakat hayotida dengizning roli yuqori, mamlakatning eng ichkarisidagi rayonlari ham sohildan bor-yo'g'i 200–300 km narida joylashgan. Mamlakat O'rta dengiz havzasining markazida ekanligi unga Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Janubiy Yevropaning boshqa mamlakatlari bilan aloqalarining rivojlanishiga qadimdan imkoniyat berib kelgan, hozirda ham muhim rol o'ynaydi.

Shimoliy Italiyaning geografik o'rni Janubiy Italiyaga nisbatan ancha qulay. Chunki u iqtisodiy aloqalarni quruqlikda ham, dengizda ham, havoda ham olib borishi mumkin. Italiyadan transkontinental havo yo'llari o'tadi.

Aholisi 2003-yilda 57,2 mln kishi, 2006-yilda 59 mln kishi. Aholisining soni jihatidan Xorijiy Yevropada Germaniyadan keyin 4-o'rinda turadi. Aholisining 98% i italyanlar. Italiya uchun aholining doimiy immigratsiyasi xarakterli (har yili o'n minglab kishilar ketib turadi). Bunga asosiy sabab dehqonlar turmushining og'irligi, ishsizlik, kam ish haqi, inflyatsiya. II jahon urushi-

ga qadar immigratsiya o'chog'i okean orti bo'lsa, urushdan keyin Fransiya va Germaniya bo'lib qoldi. Italiyada tug'ilish koeffitsienti 90‰, o'lim 100‰. Bir ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 14%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar salmog'i 19%. O'rtacha umr 77–83 yosh. YMD 24530 dollar (2001).

Italiya Yevropadagi aholisi eng zich mamlakatlardan biri (1 km² ga 193 kishi). Urbanizatsiya jarayoni jadal o'smoqda, hozirda urbanizatsiya darajasi 68% ni tashkil etadi. Shahar aholisining asosiy qismi Shimoliy Italiyada yashaydi.

Yirik shaharlari: Milan (1,3), Rim (2,6), Neapol (1,0), Turin, Palermo, Genuya (1995).

Italiya dunyodagi 1-respublika bo'lib, 20 oblastdan tashkil topgan. Italiya – parlamentar respublika. Davlat boshlig'i prezident bo'lib, uning vakolat muddati 7 yil. Qonun chiqaruvchilik hokimiyati deputatlar palatasi va senatdan iborat.

Italiya ekonomikasiga AQSH, Germaniya va Shveytsariya kapitalining ta'siri kuchli.

Xo'jalikning joylashuvidagi xarakterli xususiyat Shimoliy Italiya bilan Janubiy Italiya o'rtasida keskin hududiy farqning mavjudligidir. Shimoliy Italiya iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan. Janubiy Italiya mamlakat hududining 40% i, aholisining 35% ini egallasa-da, uning faqat 18% igina sanoatda band. Bu yerda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YMD mamlakat shimoliga nisbatan 2 marta kam. Aholi juda siyrak. Davlat Janub iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan regional siyosat olib bormoqda.

Italiya 1957-yildan YIH ga va 1949-yildan NATO ga a'zo. Siyosiy partiyalari:

1. Xristian demokratik partiyasi (XDP) (1943).
2. Italiya Respublikachilar partiyasi (IRP) (1832).
3. Italiya sotsial-demokratik partiyasi (ISDP) (1947).
4. Italiya liberallar partiyasi (1845).
5. Italiya kommunistik partiyasi (1921).

Italiya foydali qazilmalarning asosiy turlari – ko'mir, neft, temir rudasi bilan yomon ta'minlangan. Tabiiy gaz, boksit, qo'rg'oshin, oltingugurt, simob, rux, marmar zaxiralari bor. Italiya Yevropa mamlakatlari ichida gidro va geotermal energiya resurslarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Mamlakat energetikasi chet el neft, koks, ko'mir, tabiiy gaziga tayanadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda IES lar 1-o'rinni egallasa-da, Alp tog' etaklarida GES larning salmog'i katta. Markaziy Italiyada geotermik elektr stansiyalari bor.

Mamlakat ishlab chiqarish va eksportida mashinasozlik muhim rol o'ynaydi. Transport mashinasozligi, ayniqsa, avtomobillar («Fiat»), motorollyorlar, velosipedlar, kemalar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan. Mashinasozlik zavodlarining 3/4 qismi Shimoliy Italiyada joylashgan.

Qora metallurgiya sanoati, asosan, chet el xomashyosiga asoslanganligi tufayli eng yirik kombinatlar port shaharlarda (Toranto, Genuya, Neapol) joylashgan. Jahonda 10-o'rinda (27 mln) turadi. Eng yirik mashinasozlik zavodlari Milan va Turinda joylashgan. Neftni qayta ishlash va neft-kimyo sanoati markazlari, asosan, port shaharlarda va Shimoliy Italiyada joylashgan. 1986-yil Italiya 1830 ming avtomobil, jumladan, 1650000 yengil avtomobil ishlab chiqargan. 1995-yil 1241000 yengil avtomobil ishlab chiqargan, dunyo bo'yicha 8-o'rinda turadi. 2,3 mln t neft va 14 mlrd m³ gaz qazib oladi.

Qishloq xo'jaligi. Tabiiy sharoiti mo'tadil, mintaqaning barcha ekinlarini va subtropik ekinlarni yetishtirish uchun qulay. Padan pasttekisligi (Shimoliy Italiya) unumdor tuproqlarga boy. Janubiy Italiyada esa yerlar toshloq, kamunum, qurg'oqchil.

Italiya qishloq xo'jaligi Fransiya qishloq xo'jaligidan intensivligi va rivojlanish jihatidan undan keyin turadi. Italiya zaytun va uzumning yalpi hosili jihatidan dunyoda 1-o'rinda, sitrus mevalarning yalpi hosili jihatidan Yevropada (Ispaniyadan keyin) 2-o'rinda turadi.

Asosiy texnik ekinlari — qandlavlagi. Chorvachilik sust rivojlangan. Tog'li rayonlarda qo'y, echki, xachir boqiladi.

Transporti. Mamlakat ichkarisida yuk va yo'lovchi tashishda avtomobil transporti asosiy rol o'ynaydi, avtoparki 22,8 mln avtomashinadan iborat.

Temiryo'llarning umumiy uzunligi 30,4 ming km bo'lib, temiryo'l transporti 2-o'rinda turadi. Temiryo'llarning elektrlash-tirilganlik darajasi jihatidan Italiya dunyoda oldingi o'rinda turadi.

Dengiz transporti tashqi savdoda yetakchi rol o'ynaydi. Tashqi savdoga tegishli barcha yuklarning 9/10 qismi dengizda tashiladi.

Shimoliy Italiyadagi eng muhim region Milan, Turin, Genuya uchburchagidir. Bulardan tashqari Venetsiya va Rim mavjud. Janubiy Italiyaning eng muhim sanoat va madaniyat markazi — Neapol.

Asosiy importi: neft, ko'mir, koks, paxta, oziq-ovqat mahsulotlari.

Eksporti: mashinalar (avtomobillar), mototsikllar, qurol-yarog', kimyo mahsulotlari, sovitgichlar, kir yuvish va idora (yozuv) mashinalari, poyabzal, sabzavot, mevalar, sitrus mevalar, vino.

Tashqi savdo aloqalari: «Umumiy bozor» mamlakatlari, Shveytsariya va AQSHga ko'proq to'g'ri keladi.

Xalqaro sayyohlik rivojlangan, yiliga 30 mln sayyoh kelib ketadi. 1989-yil Italiya sayyohlik bo'yicha 4-o'rinni egalladi. Shu yili 26 mln sayyoh kelib ketdi.

Pul birligi — italyan lirasi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yevropada XX asrning 80–90-yillarida qaysi yirik mamlakatda o'zgarishlar yuz bergan?
2. Yevropa siyosiy xaritasida 1989–2000-yillarda bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Yevropa mamlakatlarining aholisi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Fransiya yoqilg'i resurslar bilan qanday ta'minlangan?

3.3. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi

Sharqiy Yevropa mamlakatlarining rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar bor. Jumladan, MDH davlatlari boshqacha, unga kirmagan, lekin sotsialistik tuzumdan chiqqanlar tez rivojlanib bormoqda. Shuning uchun ulardan ayrimlariga atroflicha ma'lumot berish ahamiyatga molik.

Polsha Respublikasi. PXR 1989-yil oxirlaridan Polsha respublikasi deb atala boshlangan. Maydoni 324 ming km². Hududi shimoldan janubga 650 km, g'arbdan sharqqa 700 km ga cho'zilgan.

Siyosiy geografik o'rnining asosiy xususiyati sobiq sotsialistik davlatlar bilan o'ralganligi (ular 7 ta). Iqtisodiy geografik o'rnining muhim xususiyati Polsha hududi geografik kenglik va uzunlik yo'nalishidagi tranzit yo'llar chorrahasida joylashganligi va 500 kmdan ortiq masofada dengiz bilan chegaradoshligi. Shuningdek, YIH mamlakatlariga yaqin qo'shni bo'lib, ular bilan havo, quruqlik, suv orqali savdo-sotiq qilish imkoniga ega. 2004-yil YIH ga a'zo bo'lgan.

Aholisi. 2003-yilda 38,6 mln kishi, 2006-yilda 38,1 mln kishi bo'lib, 98,5% ini polyaklar tashkil etadi. Ulardan tashqari ukrainlar, beloruslar va litvaliklar ham yashaydi. Tug'ilish koefitsienti 100‰, o'lim 90‰. Bir ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 18%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 13%. O'rtacha umr 70–78 yosh. YMD 9370 dollar (2001).

II jahon urushi oqibatida aholisi 6 mln kishiga, ya'ni 22% ga kamaydi, jinsiy tarkibi o'zgardi. Urushdan so'ng mamlakat aholisining joylashuviga ichki migratsiyaning ta'siri kuchli bo'ldi. Urbanizatsiya darajasi yuqori sur'at bilan o'sdi, hozirda mamlakat aholisining 63% i shaharlarda yashaydi. Yirik shaharlari Varshava (1,6 mln kishi), Lodz (818000 kishi), Krakov, Vroslav, Poznan, Gdansk, Shesin (1996).

Mamlakat ma'muriy jihatidan 16 ta voevodlikka bo'linadi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Polsha Birlashgan ishchi partiyasi (1948).
2. Birlashgan dehqonlar partiyasi (1949).
3. Demokratik partiya (1939).
4. Milliy tiklanish vatanparvarlik harakati uyushmasi.

II jahon urushi natijasida Polsha o'z milliy boyligining 45% ini yo'qotdi, mamlakat iqtisodi butunlay izdan chiqib ketdi.

Sanoati tarkibida ro'y bergan eng muhim o'zgarish unda mashinasozlik bilan kimyo sanoati salmog'ining ortishi bo'ldi.

Polsha sanoatining hududlarda to'planganligi bilan ajralib turadi. Sanoatning katta qismi janub voevodliklarda to'planganligi xarakterli.

Polsha Si, sof oltingugurt, toshko'mir miqdori jihatidan Yevropada oldingi o'rinlarni egallaydi. Masalan, toshko'mir qazib olishda dunyoda 4-o'rinda, aholi jon boshiga nisbatan ko'mir

qazib olishda esa 1-o'rinda turadi. Qo'ng'ir ko'mir, osh tuzi, polimetall zaxiralari jihatidan Yevropada oldingi o'rinlarda turadi. Biroq temir, neft, fosforit kam.

Polsha energetikasining asosi toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir. Toshko'mir qazib chiqarishning deyarli hammasi Yuqori Sileziya havzasida to'plangan. Bu yerdan energetika ko'miri ham, kokslanadigan ko'mir (anrosit) ham qazib chiqariladi. Keyingi yillarda mamlakat sharqidagi Lyublin havzasini o'zlashtirish boshlandi.

Neft va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojini, asosan, MDH davlatlari hisobiga qondiradi. «Do'stlik».

Qora metallurgiya sanoati chet el temir rudasiga muhtoj. Eng yirik qora metallurgiya korxonalari Krakov, Kotovisedan, temir rudasini KMA va Krivoy Rogdan oladi.

Polsha mashinasozligi ko'mir sanoati uchun mashinalar, bug'qozonlari, dastgohlar, kimyo va qand zavodlari uchun jihozlar, yo'lovchi va yuk vagonlari, dengiz kemalarini ishlab chiqaradi. Mashinasozlik korxonalari, asosan, Varshava, Poznan, Vroslav, Gdanskda to'plangan.

Kimyo sanoatida yaqin vaqtlargacha o'g'itlar ishlab chiqarish ustun edi. So'nggi yillarda ko'mir kimyosi asosida organik sintez kimyosi tez o'smoqda. Uning asosiy zavodlari Yuqori Sileziya havzasi rayonida joylashgan. Neft-kimyo korxonalari «Do'stlik» tevaragida joylashgan.

To'qimachilik Lodz rayonida eng yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakat hududining asosiy qismi pasttekisliklardan iborat. Hududining 46% i haydalagan yerlar bo'lib, qadimdan dehqonchilik qilinadi. Polsha dehqonchiligida javdar, kartoshka eng ko'p ekiladi. Polsha butun dunyoda bu ekinlardan olinadigan hosilning 1/2 qismini beradi, ularning yalpi hosili jihatidan MDH davlatlaridan keyin turadi. Bug'doy, qandlavlagi yetishtirish katta ahamiyatga ega. Yiliga 26 mln t (1987)dan hosil olinadi. Donli ekinlarning o'rtacha hosildorligi 31 sentnerni tashkil etadi. Mamlakatda zig'irchilik, bog'dorchilik va karam yetishtirish yaxshi rivojlangan. Chorvachilikda qoramolchilik va cho'chqachilik alohida ajralib turadi, lekin ularning rivojlanishiga yaylovlarning (hududining 13% ini tashkil etadi) yetishmasligi to'sqinlik qiladi.

Transportining asosiy turi temiryoʻllardir. Uzunligi 27000 km. Temiryoʻllarining yuk oboroti jihatidan Polsha Xorijiy Yevropada 1-oʻrinda turadi. Temiryoʻllarda, asosan, toshkoʻmir va temir rudalari tashiladi.

Iqtisodiy geografik jihatdan Polsha 3 qismga boʻlinadi:

1. Janubiy Polsha. Mamlakatning eng muhim industrial bazasi — «Qora Sileziya» aglomeratsiyasi joylashgan. Kotovise, Krakov, Vroslav kabi shaharlar joylashgan.

2. Oʻrta Polshada yirik sanoat shaharlari — Varshava, Lodz, Poznan joylashgan.

3. Shimoliy Polshada, asosan, qishloq xoʻjaligi va dengiz xoʻjaligi rivojlangan. Asosiy shaharlari Shesin, Gdansk. Tashqi savdosi, asosan, qoʻshni mamlakatlar bilan olib boriladi. Asosiy eksporti: mashina va uskunalar, dengiz kemalari, toshkoʻmir, mis, oltingugurt, toʻqimachilik buyumlari, kartoshka, karam. Asosiy importi: temir rudasi, neft, gaz.

Pul birligi — zolotiy.

Vengriya — Markaziy Yevropaning janubi-sharqiy qismida joylashgan. Maydoni 93 ming km². Uning hududida Yevropaning turli davlatlarini bir-biri bilan bogʻlovchi muhim tranzit yoʻllar kesishadi. Dunay suv yoʻli Vengriya Respublikasini Yevropaning 8 ta mamlakati bilan bogʻlaydi va Qora dengizga chiqish imkoniyatini beradi. Vengriya Respublikasining iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar: Germaniya, Fransiya, Italiyaga yaqinligi va ular bilan temir va avtoyoʻllar orqali bogʻlanganligi iqtisodiy jihatdan qulaylik boʻlsa, dengiz bilan tutashmaganligi noqulaylikdir.

Aholisi — 1987-yilda 10,6 mln kishi, 2003–2006-yillarda 10,1 mln kishi. Tugʻilish koeffitsienti 10%, oʻlim 13%. Bir ayolga 1,3 bola toʻgʻri keladi. 15 yoshgacha boʻlganlar salmogʻi 16%, 64 yoshdan yuqori boʻlganlar 15%. Oʻrtacha umr 68–76 yosh. YMD 11990 AQSH dollari (2001). Aholisining 96% ini vengr-lar, qolganini serblar, xoravatlar, nemislar, slovaklar, rumin-lar tashkil etadi. Aholining tabiiy oʻsishi juda pasayib ketgan. Germaniya, Italiya, Daniyadagi kabi demografik tanglik kuzatilmoqda. Bu holat mehnat resurslariga taʼsir qiladi. Vengriya Respublikasida urbanizatsiya jarayonining asosiy xususiyat-

ti unda Budapesht shahri rolining juda katta ekanligidir. Faqat poytaxtdagina milliondan ortiq (1,8 mln 1996-yil) aholi yashaydi. Boshqa katta shaharlarda 250 minggacha aholi yashaydi. Boshqa katta shaharlari Debresin, Mishpols, Seged va Pech.

II jahon urushiga qadar mamlakatni Xorti Diktaturasi boshqargan. 1945-yil aprelda Vengriyada xalq demokratik tuzmi o'rnatildi. 1949-yildan Vengriya Xalq Respublikasi deb, 1989-yildan Vengriya Respublikasi deb e'lon qilindi. Vengriya Xalq Respublikasi — Varshava shartnomasining qatnashchisi va Iqtisodiy hamkorlik kengashi (IHK)ning a'zosi bo'lgan. Vengriya 19 ta oblastdan iborat. Davlat Majlisi — Vengriya Respublikasi davlat hokimiyatining oliy organidir.

Asosiy siyosiy partiyalar:

Vengriya kommunistik partiyasi 1918-yil tashkil topgan va 1948-yil Vengriya sotsialistik ishchi partiyasiga aylangan. Davlat boshlig'i prezident. XGMT da Vengriyaning o'rni, avvalo, mashinasozlik va kimyo sanoati bilan belgilanadi. Mashinasozlik ko'p miqdorda malakali mehnat resurslarini talab qiluvchi murakkab buyumlar ishlab chiqishga ixtisoslashgan.

Vengriyada ishlab chiqarishning joylashuvidagi asosiy xususiyat barcha sanoatning urushga qadar 3/4 qismi, hozirgi vaqtda 1/3 qismi Budapeshtda to'planganligidir. Budapeshtda hozirda 0,5 mln dan ortiq aholi sanoatda band.

Vengriyada tabiiy resurslar juda kam. Ko'mir, ayniqsa, toshko'mir, neft, tabiiy gaz juda oz miqdorda qazib olinadi. Temir rudasi deyarli yo'q. Gidroenergiya resurslari ham kam. Faqat boksit zaxirasi katta. Vengriya Respublikasi neftni «Do'stlik-2» orqali MDH davlatlaridan, tabiiy gazni «Soyuz» gaz quvuri orqali MDH dan va Ruminiyadan, toshko'mirni MDH, Chexiya va Polshadan, temir rudasini MDH davlatlari davlatlaridan (temiryo'l va Dunay orqali), elektr energiyasini «Mir» MDH davlatlaridan oladi. 1990-yillari sotsialistik tuzumning yemirilishi va sobiq SSSR ning parchalanishi oqibatida Vengriya Respublikasi sanoati bir qator qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Vengriya Respublikasining yirik boksit — aluminiy sanoati bor. Mamlakatda aluminiy ishlab chiqarish jarayonining barcha 4 bosqichi rivojlangan. Bu bosqichlar: boksit qazib chiqarish,

glinyozm ishlab chiqarish, aluminiy eritish va undan buyumlar yasash. Lekin aluminiy yeritishga elektr energiyasining yetishmasligi va tannarxning yuqoriligi to'sqinlik qilmoqda. Bu sanoat korxonalari mamlakatning g'arbiy qismida joylashgan.

Qora metallurgiya sanoati deyarli butunlay chet el xomashyosi va yoqilg'isi hisobiga ishlaydi. Mashinasozlik Vengriya sanoatining asosiy tarmog'i bo'lib, u ikki yo'nalishda ixtisoslashmoqda:

1-yo'nalish transport mashinasozligi bo'lib, bu tarmoq korxonalari elektrovozlar, yo'lovchi vagonlari, metall kesuvchi dastgohlar, daryo kemalari (Meteor), dizel poyezdlar, avtobuslar chiqaradi.

2-yo'nalish elektrotexnika, elektronika va priborsozlikdir. Vengriya 1986-yil 13,4 ming avtobus, 417 ming televizor, 388 ming sovitgich ishlab chiqargan.

Kimyo sanoati qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar, organik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga va farmatsevtikaga ixtisoslashmoqda. «Geoden Rixter».

Qishloq xo'jaligi. Mamlakat hududining asosiy qismi pasttekisliklardan iborat bo'lib, mamlakat maydonining 55% i haydaladigan yerlardir. Qishloq xo'jaligida asosiy tarmoq dehqonchilik bo'lib, asosan, donli ekinlar, avvalo, makkajo'xori va bug'doy yetishtirishga ixtisoslashgan. 1986-yil mamlakat 7,2 mln t makkajo'xori, 5,8 mln t bug'doy yetishtirgan.

Texnika ekinlaridan qandlavlagi va kungaboqar ko'p ekiladi. Chorvachilikda cho'chqa (8,7 mln bosh) va qoramol (1,7 mln bosh) asosiy o'rinda turadi. Aholi jon boshiga don (1,4 t) va go'sht (165 kg) yetishtirish jihatidan dunyoda oldingi o'rinlarda turadi.

Transporti. Temiryo'llarining umumiy uzunligi 7,8 ming km, shundan 1,9 ming km elektrlashtirilgan. Ichki va xalqaro yuk tashishda temiryo'llar transporti asosiy o'rinda turadi (yuklarning 54% ini tashiydi). Avtotransport salmog'i oshib bormoqda. Vengriya Respublikasi transporti uchun Budapeshtdan turli tomonga radial yo'nalishda ketgan yo'llar xarakterlidir. Dunay Vengriya Respublikasini taxminan teng ikki qismga bo'lib turadi. G'arbiy qismi Dunantul bo'lib, bu yerda sanoat ko'proq, sharqiy qismi Alfilyod, asosan, don yetishtirishga ixtisoslashgan.

Asosiy eksporti boksit, glinozyom, dastgohlar, yo'lovchi va-gonlari, dizel dvigatellari, avtobuslar, elektrolampalar, farmatsevtika mahsulotlari, sabzavot konservalari.

Asosiy importi elektr energiyasi, koks, temir rudasi, yengil avtomobillar, sun'iy o'g'itlar, yog'och, taxta, paxta.

Vengriya jahonning 150 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini olib boradi. Pul birligi – ferint.



Bolgariya Respublikasi. Xorijiy Yevropaning janubi-sharqiy qismida Bolqon yarimorolida joylashagan. Hududi 110,9 ming km². U shimoldan Dunay daryosi bo'ylab Ruminiya, janubdan Gretsiya va Turkiya, g'arbdan Serbiya va Makedoniya kabi davlatlar bilan, sharqdan esa Qora dengiz bilan tutashgan. Chunki Xorijiy Yevropa mamlakatlarining Kichik Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga boradigan quruqlik yo'llari (temir va avtomobil) Bolgariya hududidan o'tadi. Shuningdek, Bolgariyaning Qora dengiz bilan tutashganligi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

Bolgariya sanoatining rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar, avvalo, foydali qazilmalar bilan bog'liq. Bolgariya polimetall va mis rudalariga boy. Lekin bir qator foydali qazilmalarga, ayniqsa, yonuvchi foydali qazilmalar (ko'mir, neft, tabiiy gaz) juda kam. Hidroenergiya resurslariga boy. Yetishmaydigan yoqilg'ilar o'rnini gidroresurslar qisman qoplaydi.

Tabiiy sharoiti. Dunay tekisligi va Marisa pasttekisligi qishloq xo'jaligi uchun eng qulay. Bu tekisliklar katta qismining tuproqlari qora tuproqlar bo'lib, mamlakat hududining 33% i haydala-

digan yerlardir. O'rmonlar mamlakat hududining 30% ini, yaylovlar esa 16% ini tashkil etadi.

Aholisi 2001-yilda 8,1 mln kishi, 2003-yilda 7,5 mln kishi, 2006-yilda 7,7 mln kishi bo'lib, zichligi 1 km² ga 81 kishi. Tug'ilish koeffitsienti 8%, o'lim 14%. Bir ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 15%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 17%. O'rtacha umr 69–75 yosh. YMD 6440 AQSH dollar (2001).

Urbanizatsiya darajasi 68%. Bu jarayonga mamlakatdagi ichki migratsiya kuchli ta'sir ko'rsatadi (qishloqdan shaharga). Millioner shahri faqat Sofiya (1,1 mln). Mamlakatda aholi tabiiy o'sishining pastligi tufayli demografik tanglik kuzatilmoqda. Mehnat resurslarining yetishmasligi yaqqol sezilmoqda. Aholisining 97% ini bolgarlar (janubiy slavyanlar), qolganini ruminlar, serblar, greklar tashkil etadi.

Bolgariya hududiy-ma'muriy tuzilishiga ko'ra unitar davlat bo'lib, respublika shaklida boshqariladi. 9 ta oblastga bo'linadi.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Bolgariya kommunistik partiyasi (1891).
2. Bolgariya dehqonchilik xalq ittifoqi (1900).
3. Bolgariya kasaba uyushmalari markaziy kengashi (1904).

Bolgariya Varshava shartnomasining qatnashchisi va IHK ning a'zosi bo'lgan. Mamlakat iqtisodiyotining tarixiy rivojlanishiga ko'ra IHK mamlakatlarining birinchi navbatda Sobiq SSSR ning ta'siri kuchli bo'lgan. Mamlakatdagi iqtisodiy tanazzul (krizis) 1986-yildan boshlangan.

Bolgariya energetikasida sharqiy Marisa havzasidan qazib olinadigan lignit yaxshi o'rin tutadi. (Lignum – daraxt ma'nosida, sifatli qo'ng'ir ko'mir bo'lib, 5–6 ming Kkal energiya beradigan yoqilg'i). Lekin toshko'mirni Ukrainadan (Donesk) Varna Ilichehevsk paromi va Dunay orqali keltiradi. Neftni Rossiyadan Qora dengiz orqali keltiradi. Tabiiy gazni gaz quvuri orqali Rossiyadan oladi. Elektr energiyasini Ukrainadan oladi.

Qora metallurgiya sanoati rivojlanmagan. Rangdor metallurgiya sanoati qo'rg'oshin, rux, mis ishlab chiqarish bilan ajralib turadi.

Bolgariya mashinasozligi ko'tarma transport mashinalari, elektrotexnika buyumlari, EHM lar (Praves 8) va daryo kemalari

ishlab chiqaradi. Mashinasozlikning bosh markazi Sofiya, kemasozlikning markazi Varna shahri hisoblanadi.

Kimyo sanoatida azotli o'g'itlar va soda ishlab chiqarish ajralib turadi. Neft kimyo sanoati Qora dengiz bo'ylarida joylashgan bo'lib, yirik markazi Burgasda.

Bolgariya uchun oziq-ovqat sanoatining kattaligi xarakterli. Meva-sabzavot konservalari, sharbatlar, uzum vinosi, tamaki mahsulotlarini (Bolgar tabak «Rodopi», Styuardessa, TU) ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik ustun turadi. Haydaladigan yerlarning asosiy qismiga bug'doy va makkajo'xori ekiladi. O'zini don bilan ta'minlaydi. Asosiy texnika ekini — tamaki. Bolgariya qadimdan moy olinadigan atirgul yetishtiradi. Bir kilogramm moy olish uchun 3 t gul bargi kerak. Chorvachiligida qo'ychilik asosiy o'rin tutadi.

Transporti. Mamlakat ichkarisida yuk va yo'lovchi tashishda temiryo'l transporti katta rol o'ynaydi. Temiryo'llari, asosan, kenglik yo'nalishida joylashgan, ularning umumiy uzunligi 6430 km. Avtotransport yuk oboroti jihatidan 2-o'rinda turadi. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 36000 km.

Tashqi savdo aloqalarida Qora dengiz va Dunay daryosi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro sayyohlik rivojlanib bormoqda. Yiliga Bolgariyaga 1 mln dan ortiq sayyoh kelib ketadi. «Oltin qum» sanatoriya-si mashhur.

Iqtisodiy geografik tafovutlari: Stara Planina tog'lari mamlakatni ikki qismga: Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'lib turadi. Shimoliy Bolgariyada qishloq xo'jaligi intensiv rivojlangan, ayniqsa, don yetishtirish rivojlangan.

Janubiy Bolgariya industrial, lignit qazib olish, elektr energiyasi, rangli metallar, o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni, asosan, MDH va qo'shni davlatlar bilan olib boradi.

Asosiy eksporti: elektrotexnika va elektronika buyumlari, ko'tarma transport uskunalari, rangli metallar, tamaki mahsulotlari, vino, meva konservalar, parfyumeriya.

Asosiy importi: toshko'mir, neft, tabiiy gaz, elektr energiyasi.

Pul birligi — lev.

Estoniya. Estonya — shimoldan Fin qo'ltig'i, g'arbdan Rigga qo'ltig'i, sharqdan Rossiya, janubdan Latviya bilan chegaradosh. Maydoni 45 000 km² (Saremma va Xiyumaa orollari bilan). Sohillari uzoq vaqt muzlaydi. Namgarchilik ko'pligi sababli botqoqlashib ketgan. Mayda daryo va ko'llari (Chud, Pskov) ko'p. Siyosiy ma'muriy jihatidan 15 uездga bo'linadi.

Foydali qazilmalarga, ayniqsa, yonuvchi slanesga boy (Fin qo'ltig'i bo'ylari), torf va fosforitga boy. Yonuvchi slanes IES larda va kimyo sanoatida xomashyo sifatida ishlatiladi.

Aholisi 2001-yilda 1,4 mln kishi, 2006-yilda 1,3 mln kishi. Tug'ilish koeffitsienti 9%, o'lim 14%. Bir ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 17%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 16%. O'rtacha umr 65—76 yosh. YMD 9650 AQSH dollar (2001). Urbanizatsiya darajasi 75%. Aholi zichligi 1 km² ga 35 kishi. Millioner shaharlari yo'q. Tallinda 435 ming kishi yashaydi (1995). Yirik shaharlari: Tartu, Narva, Kaxtla — Yarve, Pernu.

Sanoati. Mamlakatda metall yo'qligi sababli kam metall sarflanadigan tarmoqlar: priborsozlik, radioapparatlar, slanes sanoati uchun asbob-uskunalar, kemalarni sozlash, baliq sanoati, o'rmon sanoati rivojlangan. Qishloq xo'jaligida chorvachilik yetakchi tarmoq. Dehqonchiligida, asosan, kartoshka, qisman zig'ir ekiladi. Mamlakat hududi tekislik bo'lganligi sababli GES lar qurilmagan, AES lar yo'q. Elektr energiyasi, asosan, yonuvchi slanesga ishlaydigan IES lardan olinadi. Neft va gaz yo'qligi sababli Rossiyadan sotib oladi. Sohillarda sayyohlik rivojlangan.

Yirik sanoat shaharlari: Tallin, Tartu.

Temiryo'l transporti va dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Barcha shaharlari temiryo'llar bilan tutashtirilgan.

Asosiy portlari: Tallin, Pernu.

Tashqi savdosi, asosan, Rossiya va Xorijiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi. Pul birlig — eston kronasi.

Eksporti: baliq, radiotexnika, priborlar, qog'oz.

Importi: tabiiy gaz, neft mahsulotlari, g'alla, metallar, mashinalar.

Latviya — g'arbdan Boltiq dengizi (Riga qo'ltig'i), sharqdan Rossiya, shimoldan Estoniya, janubdan Litva va Belarus bilan chegaradosh. Maydoni 64,6 ming km². Iqtisodiy geografik o'rni qulay. Oblastlarga bo'linmagan. Siyosiy adminstratsiya-ga bo'lingan: 26 uyezd va 6 ta respublika shaharlari. Hududidan Daugava (G'arbiy Dvina) daryosi oqib o'tadi. Daryoga 3 ta yirik GES qurilgan. Foydali qazilmalardan torf katta ahamiyatga ega. O'rmonga boy.

Aholisi 2,7 mln kishi, 2003-yilda 2,4 mln kishi, 2006-yilda 2,3 mln kishi. Tug'ilish koeffitsienti 9%, o'lim 14%. Bir ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 17%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 15%. O'rtacha umr 65–76 yosh. YMD 7760 AQSH dollari (2001). Urbanizatsiya darajasi 70%. Aholi zichligi 1 km² ga 41 kishi. Eng yirik shahari Riga (1996-yilda (827000), Daugavapilis, Liyepaya, Elgava, Yurmala.

Sanoati. Latviya Estoniya va Litvaga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan. Mashinasozlik asosiy o'rin tutadi. Boltiqbo'yi davlatlari ichida yagona po'lat eritish zavodi Liyepayada joylashgan. Metallni Polsha va Rossiyadan sotib oladi. Mashinasozlik sanoatida mikroavtobuslar (RAF), ATS lar, elektrotexnika jihozlari, kemalar, radiola va radiopriyomniklar ko'p chiqariladi.

Kimyo sanoatida kimyoviy tolalar, rezina-texnika buyumlari, davolash preparatlari ishlab chiqariladi. Mebel ishlab chiqarish va rezina sanoati, yog', go'sht va baliq-konserva sanoati rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida sut chorvachiligi va cho'chqachilik rivojlangan. Mamlakat g'arbida qandlavlagi, sharqda esa kartoshka va zig'ir ekiladi.

Dengiz transporti yaxshi rivojlangan, yirik portlari: Riga, Liyepaya. Temiryo'llari yaxshi rivojlangan. Yirik sanoat markazlari: Riga, Daugavapilis, Liyepaya. Tashqi savdosi, asosan, Rossiya, MDH ning boshqa davlatlari va Xorijiy Yevropa davlatlari bilan bo'ladi.

Eksporti: elektr jihozlari, radiotexnika, tibbiy jihozlar, baliq, o'rmon, qog'oz.

Importi: tabiiy gaz, neft, ko'mir, metall, g'alla, mashinalar, elektr energiya. Shaharlarida xalqaro sayyohlik rivojlangan Riga, Yurmala. Pul birligi — lat.

Litva. 4 mamlakat va Boltiq dengizi bilan chegaradosh. Maydoni 65,2 ming km². Oblastlarga bo'linmaydi. 10 uyezdga bo'lingan. Temiryo'llar orqali Polsha va Germaniya bilan bog'langan. Yirik avtoyo'llarga ega.

Aholisi 3,650 ming kishi, 2003-yilda 3,7 kishi, 2006-yilda 3,4 mln kishi. Tug'ilish koeffitsienti 9%, o'lim 12%. Bir ayolga 1,2 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 19%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14%. O'rtacha umr 66–77 yosh. YMD 8350 AQSH dollari (2001). Aholi zichligi 1 km² ga 56 kishi. Urbanizatsiya darajasi 68%.

Asosiy foydali qazilmalari: torf, qahrabo, binokorlik materiallari. Sanoati Latviya va Estoniyaga qaraganda kam rivojlangan. Energetika bazasining zaifligi sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Tabiiy gaz, ko'mir va torfga ishlaydigan IES lar mavjud. Nyamunos daryosiga GES qurilgan. 2 ta AES bor. Kam metall sarflanadigan mashinasozlik: dastgohlar, elektr asboblari, motorlar ishlab chiqariladi. Klaypedada kemasozlik mavjud. Zig'ir tolasidan gilam to'qish rivojlangan. O'rmon sanoati mebel, faner, qog'oz ishlab chiqaradi.

Tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligi uchun Latviya va Estoniyaga nisbatan qulayroq. Qishloq xo'jaligi sut chorvachiligi va cho'chqachilikka ixtisoslashgan. Javdar, bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir va qandlavlagi yetishtiriladi. Yirik sanoat markazlari: Vilnyus, Klaypeda, Kaunas, Shyaulay. Tashqi savdoda MDH davlatlari yetakchi o'rin tutadi. Pul birligi – lit.

Eksporti: elektr jihozlari, priborlar, chorva va o'rmon mahsulotlari, qahrabo.

Importi: tabiiy gaz, neft, metall, g'alla, mashinalar, elektr energiyasi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida XX asrning 80–90-yillarida qanday o'zgarishlar ro'y beradi?

2. Sharqiy Yevropa siyosiy xaritasida 1989–2000-yillarda bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risida nimalarni bilasiz?

3. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining o'zaro bog'liqligi to'g'risida nimalarni bilasiz?

4. Polsha qanday yoqilg'i resurslar bilan ta'minlangan?

3.4. Sharqiy Yevropa MDH mamlakatlari

Belorussiya Respublikasi. MDH ning g'arbiy qismida, Sharqiy Yevropa tekisligida joylashgan. Maydoni 207,6 ming km². Shimoli-g'arbdan Litva, shimoldan Latviya, shimoli-sharqdan va sharqdan Rossiya, janubdan Ukraina, g'arbdan Polsha bilan chegaradosh. Polsha, Rossiya va Ukraina bilan chegaradoshligi iqtisodiy qulayligi bo'lsa, dengiz bilan tutashmaganligi noqulayligidir.

Ayni vaqtda Rossiya bilan Xorijiy Yevropa davlatlari orasida tranzit yo'llar ustida joylashgan. Hududining 7% i torfli botqoqliklar.

Belorussiya siyosiy-ma'muriy tuzilishiga ko'ra 6 ta oblastga bo'linadi. Millioner shaharlari bitta.

Aholisi 1986-yilda 10100000 kishi, 1997-yilda 10236000 kishi, 2003-yilda 9,9 mln kishi, 2006-yilda 9,7 mln kishi bo'lib, asosini Sharqiy slavyan xalqlari tashkil etadi. Tug'ilish koeffitsienti 90%, o'lim 140%. Bir ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar 18%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14%. O'rtacha umr 63–75 yosh. YMD 7630 dollar. Aholisining 81% ini beloruslar tashkil etadi. Beloruslardan tashqari ruslar, yahudiylar, ukrainlar va polyaklar yashaydi. Aholisining zichligi ancha katta 1 km² ga 47 kishi to'g'ri keladi (2006). Yirik shaharlari: Minsk (1680000), Gomel (504000), Mogilyov, Vitebsk, Gradno (1996). Urbanizatsiya darajasi 62%. Mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan, lekin mustaqillik yillari mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklar sababli «oqillar migratsiyasi» kuzatilmoqda.

Belorussiya, asosan, pasttekislikdan tashkil topgan bo'lib, janubida katta maydonni Polese tekisligi egallagan. Tog'lar umuman yo'q. Faqat Minsk qirlari bo'lib, ularning mutlaq balandligi 345 m. Mamlakat hududining 1/3 qismini o'rmonlar tashkil etadi. II jahon urushi Belorussiya o'rmonlariga katta zarar yetkazgan. O'rmonlar mamlakatning markaziy va janubiy qismlarida ko'proq. Belorussiyada yirik o'rmon massivlari pushcha deyiladi.

Belorussiya, asosan, binokorlik materiallari (ohaktosh, mergel, kaolin, kvars qumlari) va o'rmonga, torfga boy. Boshqa yonuvchi foydali qazilmalar va metallar juda kam. Shuning uchun Belorussiya sanoati butunlay chet el xomashyosi va yoqilg'isiga muhtoj.



Belorussiya XGMT da mashinasozlik, kimyo, yog‘ochsozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari, zig‘ir tola, kartoshka yetishtirish, sut chorvachiligi va cho‘chqachilik bilan ajralib turadi. Mamlakat tekislikda joylashganligi sababli GES lar yo‘q, AES lar ham qurilmagan. Elektr energiyasini, asosan, torfga ishlaydigan IES lar va chetdan keltiriladigan ko‘mirga asoslangan IES lar beradi. Shuningdek, tabiiy gazga asoslangan. Lekin elektr energiyasi bilan o‘zini o‘zi ta‘minlay olmaydi. Rossiyadan oladi. Ko‘mirning tannarxi qimmatligi, torf arzonligi tufayli torfga e‘tibor oshmoqda.

Belorussiyada metall yo‘q. U metallni Rossiyadan, ko‘mirni Ukrainadan oladi. Mashinasozlik sanoati traktorlar (Belorus, kranlar), ko‘p tonnali ag‘darma mashinalar (Samosval), MM 133 metall qirquvchi dastgohlar, qishloq xo‘jalik mashinalari, asbobsozlik, radioapparaturalar, elektrotexnika va chorva fermalari uchun turli jihozlar ishlab chiqarish rivojlangan edi, lekin hozir Belorussiyada iqtisodiy tanglik davom etmoqda.

Kimyo sanoatida kaliy tuzlari (Soligorsk shahri mamlakatda ishlab chiqariladigan kaliy o‘g‘itining 40% ini beradi), kimyoviy tolalar, plastmassa, avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Neft-kimyo sanoati tarmoqlari «Do'stlik» atrofida joylashgan. Yog'ochsozlik sanoati gugurt va faner ishlab chiqaradi. Mebel ishlab chiqarish juda tez o'smoqda. Yog'ochsozlikning asosiy markazlari Bobruysk va Mogilyov.

Go'sht-sut sanoati hamma joyda bor. Qishloq xo'jaligida chorvachilik yetakchi. Qishloq xo'jaligi yerlarining 75% i chorvachilik uchun xizmat qiladi. Sersut sigir va zotdor cho'chqalar boqiladi.

Dehqonchiligida, asosan, tolasi uchun zig'ir va kartoshka yetishtiriladi. Dolgunes zig'iri, asosan, mamlakat shimolida, kartoshka esa hamma joyda ekiladi. Lekin kartoshka hosildorligi kamroq. Polese botqoqliklarini quritish hisobiga pichanzor, ekinzor va yaylovlar salmog'i oshib bormoqda.

Transporti. Yuk va yo'lovchi tashishda temiryo'l transporti yetakchi. Rossiyani (Moskvani) Polsha, Germaniya, Fransiya bilan bog'lovchi yo'llar Belorussiya orqali o'tadi. Avtoyo'llar Belorussiyani har tomondan kesib o'tadi. Kema qatnovi Dnepr va uning irmog'i Pripyatda, G'arbiy Dvina, Neman va Bug daryolarida rivojlangan. Bu daryolarning yuqori oqimi bir-biriga yaqinligi sababli ular bir-birlari bilan kanallar orqali tutashtirilgan.

Belorussiyaning tashqi savdo oborotida Rossiya yetakchi bo'lib, undan keyin Ukraina va Polsha turadi.

Belorussiya chetga, asosan, traktorlar, avtomobillar, dastgohlar, polimer materiallar, o'g'itlar, zig'ir gazlamalari, gugurt, faner, mototsikllar, velosipedlar, oyna, gilam, zig'ir, o'rmon mahsulotlari, yog'och-taxta, go'sht, sut, yog' eksport qiladi.

Asosiy importi: ko'mir, g'alla, tuz, metallar, neft, gaz, paxta tolasi.

Pul birlig — Belarus rubli.

Ukraina Respublikasi. Ukraina MDHning janubi-g'arbida, Sharqiy Yevropa tekisligining janubida joylashgan. Maydoni 603,7 ming km² bo'lib, maydoniga ko'ra MDH davlatlari orasida 3-o'rinda turadi. Iqtisodiy geografik o'rni qulayligi Qora va Azov dengizlari bo'yida joylashganligi, Rossiya bilan chegaradoshligi va tranzit yo'llar tugunida joylashganligidir.

Ukraina shimoldan Belorussiya, shimoli-sharqda va sharqda Rossiya, janubdan Qora va Azov dengizlari, janubi-g'arbdan Moldaviya, Ruminiya, g'arbdan esa Ruminiya, Vengriya, Slovakiya,

Polsha bilan chegaradosh (*158-betga qarang*). Mazkur davlatlar bilan bo'lgan chegarani temir va avto yo'llar, neft va gaz quvurlari, elektr uzatish liniyalari kesib o'tgan.

Ukrainaning tabiiy resurslari ilgaridan o'rganilgan. Asosiy boyliklaridan biri temir rudasi bo'lib, uning yirik konlari Krivoy Rog, Kerch konlaridir. Molibdenning yirik konlari Nikopolda joylashgan. Mamlakat iqtisodida Donbass (10 ta yirik koni bor) kokslanuvchi va energetika ko'mir havzasining ahamiyati katta. Bundan tashqari Lvov–Volinsk toshko'mir havzasining ahamiyati katta. Tabiiy gazning yirik konlari Dashava va Shebelinka konlaridir. Neft konlari mamlakat ehtiyojini qoplamaydi. Bulardan tashqari simob, nikel, aluminiy, titan rudalari bor.

Ukraina sanoati xomashyoga boy. Osh tuzi, kaliy tuzi (Karpatskiy tog' etaklarida), tabiiy oltingugurt (Rozdol, Lvov oblastida) ohaktosh, kaolin konlari bor. Suv resurslarining yetishmasligi mamlakat iqtisodining rivojlanishida katta qiyinchilik tug'diradi. Daryolari ko'p, lekin suvi, gidroenergiya resurslari kam. Ayniqsa, janubi-sharqda suv juda kam. Mamlakatning g'arbiy qismida esa suv toshqinlari bo'lib turadi.

Ukrainaning hozirgi chegarasi 1917-yil chegaralangan. 1939–1945-yillari G'arbiy Ukraina, Zaxkarkate, Shimoliy Bukovina (Chernovski oblasti) va Bessarabiyaning janubiy qismi Ukraina tarkibiga kiradi. Ukraina Respublikasi ma'muriy-hududiy jihatidan 1 ta avtonom respublika (Qrim), 24 ta oblastdan tashkil topgan.

Aholisi 1990-yida 51,2 mln kishi, 1998-yilda 50,5 mln kishi, 2003-yilda 47,8 mln kishi bo'lib, aholisining soni bo'yicha MDH davlatlari orasida 2-o'rinda turadi. Aholi zichligiga ko'ra 3-o'rinda (Moldaviya va Armanistondan keyin). Aholi o'rtasidagi tug'ilish koeffitsienti 8%, o'lim 15%. Bir ayolga 1,1 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar salmog'i 18%, 64 yoshdan yuqori bo'lganlar 14%. O'rtacha umr 62–74 yosh. YMD 4270 AQSH dollari (2001). Aholisining 68% i shaharlarda yashaydi. Millioner shaharlari 5 ta: Kiyev (2,5 mln kishi), Xarkov, Dnepropetrovsk, Odessa, Donesk. Aholisining 75% ini ukrainlar, qolgani ruslar (20%), moldavanlar, beloruslar, polyaklar tashkil etadi. Ukraina aholisining milliy tarkibiga Ukrainaning Rossiya bilan 3,5 asr birga bo'lganligi (1654-yildan) ta'sir etgan.

Ukrainada qadimdan qand-shakar, ko'mir va metallurgiya sanoati rivojlangan. XGMT da Ukraina hududida 3 ta iqtisodiy rayon tarkib topgan:

1. Donesk–Dneprbo'yi rayonlarida ko'mir, metallurgiya, kimyo va mashinasozlik eng ko'p rivojlangan. Bu rayon, asosan, Donbass hisobiga rivojlangan.

Yirik metallurgiya markazlari Makayevka, Donbass, Azovbo'yida joylashgan. Asosiy ishlab chiqariladigan mahsulotlari: prokat, ekskavatorlar, ko'mir qaziydigan kombaynlar va shaxta uskunalari, teplovozlar, avtomobillar (Kremenchug – «Kraz», Zaparojye «Zaparojes»), vagonlar, domna va po'lat eritadigan pechlar va uskunalar. Kimyo sanoatida soda, H_2SO_4 va o'g'it ishlab chiqariladi.

Ayollar mehnatidan to'g'ri foydalanish maqsadida og'ir sanoat markazlarida to'qimachilik rivojlangan. Qishloq xo'jaligida don, kungaboqar, qandlavlagi va kanop yetishtiriladi.

2. Janubi-g'arbiy rayon agrar-industrial, mashinasozlik, tog'kon, neft-kimyo va asosiy qishloq xo'jaligi rayonlaridir. Bu rayon, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Asosiy ekinlar qandlavlagi, bahori bug'doy. Shakar-qand ishlab chiqarish MDH ahamiyatiga ega. Mashinasozlik sanoati, asosan, shakar-qand sanoati uchun jihozlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Shuningdek, Lvovda LAZ avtomobili ishlab chiqariladi.



3. Janubiy rayonda mashinasozlik, agrar-industrial va baliqni qayta ishlash sanoatlari, kemasozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va kurort xo'jaligi rivojlangan. Janubiy rayonda kinoapparaturalar (Xersones), traktor pluglari, uzum yetishtirish, konservalar ishlab chiqariladi.

Iqlimiy sharoitlari bu rayonda kuzgi bug'doy, arpa, kungaboqar, hatto sholi yetishtirish imkonini beradi. Qora dengiz sohillarida, ayniqsa, Qrimda sayyohlik rivojlangan: Yalta, Alushta, Gurzuf, Mixsar, Sudak, Yevkatariya, Odessa.

Ukrainada gidroenergiya resurslari faqat Dnepr daryosida mavjud, ya'ni GES lar, asosan, shu daryoda qurilgan. Elektr energiyasining asosiy qismini IESlar beradi. IESlar, asosan, ko'mirga, qisman torfga (shimolda) ishlaydi. Ukrainada 5 ta AES qurilgan (2006-yildagi hisob-kitoblarga ko'ra 170 mlrd kVt/s).

Tashqi savdosi. Ukraina yiliga 135 mln tonna ko'mir qazib oladi va uning asosiy qismini Xorijiy Yevropa davlatlariga eksport qiladi. Yiliga 100 mln t temir rudasi qazib oladi (dunyoda 5-o'rinda) va uning taxminan 5% ini eksport qiladi.

Po'lat eksporti bo'yicha dunyoda 5-o'rinda (1990-yilda 53 mln t, 2006-yildan 37 mln t). Po'latni Xorijiy Yevropaga eksport qiladi.

Ukraina tashqi savdosining asosiy qismi MDH va Xorijiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi.

Asosiy eksporti ko'mir, qora metall, shakar-qand, g'alla, mashina va jihozlar (Kraz, Zaparojes, LAZ, Xerson), kimyo mahsulotlari, kino va fotoapparaturalar (Kiyev, Xarkov).

Asosiy importi: o'rmon mahsulotlari, mashinalar, qog'ozlar, baliq, gazmollar (lama), neft, gaz, paxta.

Ukraina hududidan «Союз» gaz quvuri, «Do'stlik» neft quvuri, «Мир» energetika sistemasi, «Братства» gaz quvurlari Xorijiy Yevropaga o'tgan.

Temiryo'l va dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Pul birligi — grivna.

O'zbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasida eksportning 7,2% i, importning 11,6% i Ukraina hissasi-ga to'g'ri keladi.



Moldaviya Respublikasi. Moldaviya — MDHning janubi-gʻarbida, Prut va Dnestr daryolari oraligʻida joylashgan. Maydoni 33,7 ming km². Tarixda Moldaviya hududi Bessarabiya nomi bilan atalgan. 1924-yili Moldaviya Avstriya Respublikasi, 1940-yildan Moldaviya SSSR, 1991-yildan Moldaviya Respublikasi deb yuritilgan. Gʻarbdan Moldaviya Ruminiya Respublikasi bilan, qolgan barcha tomonlardan Ukraina Respublikasi bilan chegaradosh (*159-betga qarang*). Moldaviyaning Ruminiya bilan, ayniqsa, Ukraina bilan chegaradoshligi muhim oʻrin tutadi. Ukrainadan temiryoʻllar orqali koʻmir, neft, metall, mashina va jihozlar, gʻalla, gaz quvurlari orqali gaz keladi. Garchi Moldaviya Qora dengiz bilan tutashmagan boʻlsa-da, Qora dengizning yaqinligi va Ukrainaning port shaharlari (Odessa, Ilichevsk, Belgorod-Dnestrovskiy) bilan temiryoʻllar bilan tutashganligi muhim ahamiyatga ega. Moldaviya siyosiy-maʼmuriy jihatdan 40 ta rayon va respublikaga boʻysunuvchi 4 ta shahardan iborat (Kishinyov (662000), Tiraspol, Belsi, Benderi).

Moldaviyada foydali qazilmalar juda kam, faqat ohaktosh konlari bor. Moldaviyaning asosiy boyligi tuproq iqlim resurslaridir. Uzoq davom etadigan iliq yoz, kuzning kamyogʻinligi va qishning qisqa hamda yumshoq boʻlishi qora tuproqlari tokchilik, bogʻdorchilik, polizchilikni rivojlanishi uchun qulay. XGMT da Moldaviya bogʻ respublikasi deb nom olgan. Hududining 12% dan ortigʻini bogʻ va tokzorlar tashkil etadi.

Aholisi 1986-yilda 4200000 kishi, 2003-yilda 4,3 mln kishi. Tugʻilish koeffitsienti 9%, oʻlim 9%. Bir ayolga 1,3 bola toʻgʻri keladi. 15 yoshgacha boʻlganlar salmogʻi 22%, 64 yoshdan yuqori boʻlganlar 10%. Oʻrtacha umr 65–72 yosh. YMD 2300 AQSH dollari (2001). Aholisining asosiy qismini moldavanlar tashkil etadi. Ulardan tashqari ruslar, ukrainlar va yahudiylar yashaydi. Aholi zichligi 1 km² ga 124,6 kishi boʻlib, MDH boʻyicha birinchi oʻrinda turadi. Urbanizatsiya darajasi 45% ga yetadi, aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashashiga sabab qadimdan dehqonchilikning rivojlanganligidir. Millioner shaharlari yoʻq, eng yirik shahri Kishinyov (663 ming kishi).

Sanoat tarmoqlaridan intensiv qishloq xoʻjaligiga asoslangan oziq-ovqat sanoati muhim ahamiyatga ega. Haydaladigan yerlar Moldaviya hududining 60% dan koʻpini egallaydi.

Ixtisoslashgan tarmoqlari uzumchilik va bogʻdorchilik boʻlib, ulardan uzum, meva, tamaki yetishtirish va atirgul moyi tayyorlash ajralib turadi. Bogʻdorchilikdagi asosiy rayon Moldaviyaning markaziy qismi, yaʼni Kodra pasttekisligidir. Kodra bogʻlarida olma, nok, behi, gilos, oʻrik, yongʻoq kabi mevalar yetishtiriladi.

Donli ekinlardan kuzgi bugʻdoy, makkajoʻxori, arpa; texnik ekinlardan kungaboqar, qandlavlasi, tamaki, efir moyli ekinlar koʻp yetishtiriladi. Efir moyi parfyumeriya va konditer sanoatida ishlatiladi.

Vinohilik, meva, konserva, sabzavot-konserva, tamaki va qand-shakar sanoat korxonalari Moldaviyaning barcha sanoat mahsulotining yarmidan koʻprogʻini beradi.

Qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat sanoatiga yordamchi ishlab chiqarish korxonalari: bogʻ-poliz minitraktorlari va moslamalari, vino va konserva sanoati uchun asbob-uskunalar, shisha idishlar va binokorlik materiallari ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda.

Sanoatida, asosan, elektrotexnika, asbobsozlik, koʻn poyabzal, sement sanoatlari rivojlanmoqda. Xoʻjaligida Dnestr daryosidagi Dubossari GESi va Moldaviya GRESi energiyasidan foydalaniladi. Bu GRES Ukraina tabiiy gaziga asoslangan. Elektr energiyasini chetdan keltiradi.

Asosiy transporti temiryoʻllar boʻlib, yuklar, asosan, temiryoʻllar orqali tashiladi. Avtotransport esa qishloq xoʻjaligi bilan sanoat orasidagi yuklarni tashiydi. Asosiy eksporti bogʻ traktorlari, konservalar (meva-sabzavot), vino, shakar-qand, uzum, efir moyi.

Importi: avtomobillar, traktorlar, kombaynlar (gʻalla, makajoʻxori, silos va lavlagi yigʻuvchi), neft mahsulotlari, oʻgʻitlar, yogʻoch-taxta, yonuvchi gaz, tomchilatib sugʻoruvchi apparatlar, elektr energiyasi.

Tashqi savdo oborotida Ukraina, Rossiya muhim oʻrin tutadi. Pul birligi – ley.

Oʻzbekistonning MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasida eksportining 0,1% i, importining 0,3% i Moldaviya hissasiga toʻgʻri keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Sharqiy Yevropada MDH mamlakatlari iqtisodiyotida XX asrda qaysday oʻzgarishlar sodir boʻldi?
2. MDH mamlakatlaridagi 1989–2000-yillarda boʻlib oʻtgan oʻzgarishlar nimalarda namoyon boʻldi?
3. Sharqiy Yevropa MDH mamlakatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari (MOM)ning oʻzaro bogʻliqligi toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
4. Ukraina qanday yoqilgʻi resurslari bilan taʼminlangan?

IV bob. AMERIKA QIT'ASI MAMLAKATLARI MA'MURIY GEOGRAFIYASI


Amerika qit'asi va uning mamlakatlari geografiyasi boshqa joylarnikidan keskin farq qiladi. Bu Amerikaning ochilishi va o'rganilishi, uning davlatlarida davlatchilik shakllanishining o'ziga xosligi bilan ifodalanadi. Quyida berilgan jadvalda Amerikaning o'rganilishiga oid ayrim qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi.

Amirika qit'asini geograflar asosiy uch qismga bo'lib o'rganishni tavsiya qilishadi: Shimoliy Amerika mamlakatlari geografiyasi, Markaziy Amerika mamlakatlari geografiyasi, Janubiy Amerika mamlakatlari geografiyasi.

XV asrdan oldin Amerika	Xitoylar, yaponlar, finikiyaliklar, arablar, inglizlar, skandinaviyaliklar, okeaniyaliklar borgan
Abu Rayhon Beruniy	Amerika quruqligining mavjudligini X.Kolumb kashfiyotidan 450 yil oldin bashorat qilgan
X. Kolumb	«Yer shar shaklida» degan g'oyaga asoslanib Hindistonga g'arbdan yaqin dengiz yo'li bilan borish uchun safarga chiqdi
Amerigo Ves-puchchi	Asli italiyalik, Ispaniya dengiz flotida xizmat qilgan. 1499–1504-yillarda Janubiy Amerikaga sayohatida 1-bo'lib u yerlar Hindiston emasligini aytgan
A. Gumbold, Y. Bonplan	Janubiy Amerikani ilmiy jihatdan o'rganib chiqqan
G.I. Langsdorf, N.G. Rubsov, A.I. Voyeykov, N.I. Vavilov	Materikning aholisi va tabiati haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni to'plagan

4.1. Shimoliy Amerika mamlakatlari geografiyasi

Shimoliy Amerika mamlakatlariga AQSH, Kanada kiradi. Ularning rivojlanishi, tabiiy boyliklari, davlatchiligi va boshqa turli ko'rsatkichlari bo'yicha qolgan mamlakatlardan katta farq qiladi. Shimoliy Amerika mamlamktlarining umumiy maydoni 19357280 kv km bo'lib, shundan AQSH – 9372610 kv km, Kanada esa 9984670 kv km ni tashkil qiladi. Bu ikki mamalakat jahondagi eng rivojlangan «yettilik» mamlakatlari qatoriga kiradi. Ularning rivojlanishiga xos bo'lgan jihatlari quyidagi sxemada ko'rsatilgan.



AQSH. AQSH maydoniga ko'ra dunyoda 4-o'rinda turadi (9372 mln km²). U tarkibiga ko'ra 3 qismdan iborat: AQSH ning asosiy qismi, Alyaska, Gavay orollari. Iqtisodiy geografik o'rni juda qulay. 12 ming km masofada ikkita okean orasida joylashganligi, Kanada va Meksika bilan chegaradoshligi va h.k. AQSH ning Karib havzasi (Puerto-Riko, Virgin orollari) va Tinch okeanda (Sharqiy Samoa, Guam) bir qator orollar va vasiylikdagi hududlaridan: Marshal, Mikroneziya, Palau kabilar 1990–1995-yillarda mustaqil davlatlarga aylandi, lekin Mariana orollari hamon vasiy, AQSHning chekka janubiy subekvatorial, asosiy qismi subtropik, shimoliy qismi mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan. AQSHda barcha foydali qazilmalar uchraydi, ayniqsa, toshko'mir, neft, gaz, uran, aluminiy, mis, oltin va h.k.

Aholisi 2008-yilda 296 mln kishi, aholi soniga ko'ra dunyoda 3-o'rinda turadi. Tug'ilish koeffitsienti 14%, o'lim 9%. 15 yosh-gacha bo'lganlar jami aholining 21% ini, 64 yoshdan o'tganlar 13% ini tashkil etadi. O'rtacha umr 74–80 yosh. Bir ayolga 2 bola to'g'ri keladi. YMD 42000 AQSH dollari (2001). AQSH aholisi-ni, asosan, Yevropadan ko'chib kelganlar, Afrikadan qul qilib

olib kelingan negrlar tashkil etar edi. Hozirda aholisining 95% ini AQSH da tugʻilganlar tashkil etadi. Hozirda negr aholi 29,2 mln kishini (12%), ispan tilida soʻzlashuvchi amerikaliklar 17 mln, in-deyeslar esa 1,4 mln kishini tashkil etadi. Davlat tili ingliz tili.

Maʼlumki, XVI asrda Shimoliy Amerika Ispaniya, Angliya, Fransiya mustamlakasi edi. XVII asrning 1-yarmida negrlar keltirilgan. AQSH – rasmiy jihatdan 1776-yil Angliyaning 13 mustamlakasi birlashishidan tashkil topgan. AQSH 50 ta shtat va bit-ta federal okrug (Kolumbiya)dan tashkil topgan (*160-betga qarang*). Aholisining oʻrtacha zichligi 1 km² ga 30 kishi. AQSH uchun sha-har aglomeratsiyalari xos xususiyat boʻlib, hozirda AQSHda 7 ta millioner shahar va 40 ta millioner aglomeratsiyalar mavjud. Ularda AQSH aholisining yarmi yashaydi. AQSH uchun megopolislar xos. Davlat tuzumiga koʻra AQSH federativ respublika. Ikkinchi jahon urushidan keyin 1990-yillargacha AQSH dunyoda militarizmning markazlaridan biri boʻlgan va bir qator harbiy-siyosiy bloklarga bosh boʻlgan. Masalan, NATO, SEATO, ANZYS, SENTO.

AQSH da qonun chiqaruvchi organ – AQSH kongressi, kon-gress vakillar palatasi va senatdan iborat. Siyosiy partiyalari:

1. Respublikachilar partiyasi.
2. Demokratik partiya.
3. Kommunistik partiya.

AQSH XIX asrning oxiridayoq sanoat mahsulotlarining haj-mi boʻyicha Buyuk Britaniyadan oʻzib ketib, dunyoda birinchi oʻringa chiqib oldi va hamon birinchi oʻrinda. AQSH sanoat-ning deyarli barcha sohalari boʻyicha dunyoda yetakchi, ayniq-sa, aviaraketa – kosmos, hisoblash texnikasi, harbiy, AESlar quvvati va h.k. boʻyicha.

AQSH sanoati yuksak darajasi, ishlab chiqarish va hududiy konsentratsiyasi (toʻplanganligi) bilan ajralib turadi. Masalan, Michigan (avto), Kaliforniya (kosmos), Texas (kimyo), Arizona (makka) va h.k. AQSH da barcha sanoat tarmoqlari mavjud, le-kin AQSH sanoatini, avvalo, avtomobilsozlik, aviaraketa-kosmos, elektrotexnika va neft sanoati belgilaydi.

AQSH qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishning hajmiga koʻra dunyoda yetakchi. Masalan, gʻalla yalpi hosilining 1/3 qismi, gʻalla eksportining yarmiga yaqini AQSH ga toʻgʻri keladi.

AQSH barcha transport turlarining rivojlanganlik darajasiga ko'ra ham jahonda yetakchi. Uning xarakterli xususiyatlari — transportning barcha turlari rivojlanganligi, yuk va yo'lovchi tashish hajmining kattaligi, yuklarning uzoq masofaga tashilishi, avtotransportning alohida mavqega ega ekanligi. Masalan, 1990-yillarda mamlakatda avtomobillar avtoparklarida 200 mln ga etdi. AQSH xo'jaligining hozirgi geografik qiyofasi uchun iqtisodining, asosan, okeanbo'yi va ko'lbo'yida to'planganligi xosdir. Masalan, uch megopolis mamlakat jami sanoat mahsulotining 60% ini beradi. Mamlakat xo'jaligining rivojlanishiga tabiiy resurslar ham katta ta'sir etadi. Masalan, rivojlangan davlatlar orasida AQSH ko'mir, neft, tabiiy gaz, uran, temir, marganes, oltingugurt, fosforit va gidroenergiya zaxiralari jihatidan 1-o'rinda.

AQSH dehqonchiligida, asosan, donli ekinlar, 1-navbatda bug'doy ekiladi. Bug'doy jami ekin maydonining 2/3 qismiga ekiladi. Bundan tashqari makkajo'xori, oqjo'xori, soya, qandlavlagi, shakarqamish, sabzavot va mevalar muhim o'rin tutadi. AQSH chorvachiligidagi sut-go'sht uchun qoramol, cho'chqachilik, parrandachilik (broyler) keng tarqalgan. 1994-yil AQSH da 101 mln qoramol (3-o'rin), 54 mln cho'chqa, 10,4 mln qo'y bor edi. AQSH qishloq xo'jaligida yiliga 300 mln t dan ortiq boshqoli va dukkakli don (1986-yil 31,7 mln t) yetishtiriladi. Shu jumladan, 1986-yil 56,8 mln t bug'doy (O'zbekistonda yiliga 4,5—5 mln t) 3,7 mln t paxta tolasi yetishtirilgan. (O'zbekistonda don mustaqilligini ta'minlash uchun 6 mln t bug'doy kerak).

AQSH da transport tarmoqlarining asosini kenglik va meridional yo'nalishdagi transkontinental magistrallar tashkil etadi. Temiryo'llarining umumiy uzunligi 245000 km, avtoyo'llar esa 5 mln km.

AQSH da tashiladigan jami yukning 18,2% i dengiz transportida, 25,4% i avtomobil transportida, 30,3% i temiryo'l transportida, 16,5% i quvur transportida, 9,3% i ichki suv transportida, 0,3% i havo transportida tashiladi.

AQSH da tashiladigan jami yo'lovchining 88,2% i avtomobil transportida, 0,3% i temiryo'l transportida, 11,3% i havo transportida, 0,2% i boshqa transport turlarida tashiladi.

AQSH 1990-yil yiliga 365 mln t neft (dunyoda 2-o‘rinda) qazib olgan bo‘lsa, 400 mln t chetdan sotib oldi (sotib olish bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinda, 1-o‘rinda Yaponiya – 160 mln t). 1990-yillari AQSH 500 mln m³ qazib olgan (dunyoda 2-o‘rinda), lekin sotib olishda 1-o‘rinda. 860 mln t ko‘mir qazib olgan (dunyoda 2-o‘rinda) va chetga sotgan. 55 mln t temir qazib olgan va chetdan sotib olish hisobiga 98 mln t (2001) po‘lat eritgan (2-o‘rinda).

Asosiy eksporti: «kapital», mashina va jihozlar, g‘alla, ko‘mir, sanoat mahsulotlari, to‘qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat, qurol-yarog‘, qishloq xo‘jaligi texnikalari, samolyotlar (Boing), kemalar, sholi, paxta tolasi, tamaki.

Asosiy importi: neft, tabiiy gaz, temir, shakarqamish, tabiiy kauchuk.

AQSH da qazib olinadigan asosiy foydali qazilmalar

Foydali qazilmalar	O‘lchov birligi	Umumiy zaxiralari	Dunyo umumiy zaxirasidagi salmog‘i, %
Molibden	mln t	3,7	28,9
Ko‘mir	mlrd t	1570	28,5
Mis	mln t	115,3	12,8
Qo‘rg‘oshin	mln t	26,2	12,8
Oltin	t	9100	10,4
Rux	mln t	48,7	10,3
Temir rudasi	mlrd t	25,0	6,8
Fosforitlar	mlrd t	4,4	6,6
Volfram	ming t	210	5,3

Kanada. Kanada — Shimoliy Amerikaning shimolida joylashgan. Maydoni 10 mln km² ga yaqin bo‘lib, kattaligi jihatidan dunyoda 2-o‘rinda turadi. Iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi: 3 tomondan okean bilan chegaradoshligi va AQSH bilan chegaradoshligi.

Suvdagi chegaralari ichida Buyuk ko‘llar va San-Lavrentiy daryosining ahamiyati katta. Tinch okean orqali Osiyo davlatlari bilan, Atlantika okeani orqali Yevropa davlatlari bilan bog‘langan.

Kanada tabiiy resurslarga boy. Ayniqsa, neft, tabiiy gaz, ko'mir, uran, temir, mis, nikel, polimetall va asbestga boy. Mamlakat g'arbida baland tog'lar mavjudligi sababli gidroenergiya resurslariga boy. Yirik mahsuldor o'rmon zaxiralariga ega.

Aholisi. 33,1 mln kishi bo'lib, tug'ilish koeffitsienti 11%, o'lim 7%. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 18% ini, 64 yoshdan o'tganlar 13% ini tashkil etadi. O'rtacha umr 77–82 yosh. Aholisining etnik tarkibiga immigratsiya hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan. Kanadalik inglizlar – 45%, kanadalik fransuzlar – 30%. Etnik guruhlar – 25%, indeyeslar va eskimoslar juda kamchilikni tashkil etadi. Davlat tillari – ingliz, fransuz. YMDi 35900 AQSH dollari (2008).

Aholisining zichligi juda past – 1 km² ga 2,7 kishi bo'lib, juda notekis joylashgan. Aholisining asosiy qismi (2/3) AQSH chegarasi bo'ylab 300–400 km li chiziq bo'ylab yashaydi. Kanada hududining 2/3 qismini egallagan shimoliy qismida 20–25 km² joyga 1 kishi to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi yuqori – 76%. Millioner shahri: Monreal (1060000 kishi). Kanada hududiga dastlab 1497-yil J. Kabot kelgan. Yevropaliklarning ommaviy ko'chib kelishi XVII asrda boshlangan. 1605-yil fransuzlar, 1623-yil inglizlar ko'chib kelgan. 1756–1763-yillari Kanada Buyuk Britaniya qo'liga o'tgan. 1867-yildan Kanadaga dominant mavqeyi berilgan. 1931-yildan Angliya hukumati Kanada mustaqilligini tan oldi.

Kanada – 10 ta viloyat, 3 ta hududdan iborat bo'lgan federal davlat (*161-betga qarang*). Hamdo'stlik tarkibida Kanada NATO va NORADga a'zo. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Liberal partiya (1873).
2. Kanada kommunistik partiyasi (1921).

Kanada yuqori darajada rivojlangan industrial-agrar davlat. Kanadaning «Yettilik»ka kirishiga AQSH monopoliyalari va Buyuk Britaniyaning ta'siri kuchli. Rivojlangan davlatlar ichida chet el kapitalining ko'p kirib kelishi jihatidan 1-o'rinda AQSH turadi. Sarmoyasining 72,1% ini AQSH kapitali tashkil etadi.

Kanada mineral xomashyo ishlab chiqarish va eksport qilishda ham eng katta mamlakatlardan hisoblanadi (xomashyoning 80% i eksport qilinadi). Sanoatining asosiy tarmoqlari: o'rmon,

sellyuloza-qog'oz, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati (bug'doy, go'sht), mashinasozlik.

Kanada energetikasining asosini neft va tabiiy gaz tashkil etadi, GES va AES lar ham bor. Kanada neft markazi – Edmonton.

Rangli metallurgiya sanoati, asosan, chetdan keltirilgan va o'zida ishlab chiqarilgan boksitga asoslangan. Eritilgan aluminiy, asosan, AQSH ga eksport qilinadi. 2001-yil Kanada 540 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqadi. 14 mln t po'lat eritildi, 56 mln t ko'mir qazib olindi, 91 mln m³ neft, 72 mlrd m³ tabiiy gaz qazib olindi.

Yog'ochsozlik va sellyuloza-qog'oz sanoati eng rivojlangan bo'lib, Kanada 1986-yil 9,2 mln t qog'oz ishlab chiqardi. Bu sanoatning rivojlanishiga boy xomashyo bazasi, arzon suv yo'llari va elektr energiyasi, shuningdek, jahon bozorida ehtiyojning yuqoriligi sabab bo'lgan. Ishlab chiqarilgan qog'oz va yog'och-taxtaning deyarli hammasi eksport qilinadi.

Kanadaning hududiy-ma'muriy bo'linishi

Hududiy-ma'muriy bo'linmalar	Maydoni		Aholisi	
	Ming km ²	Davlat maydonidagi salmog'i, %	Ming kishi	Davlat aholisi sonidagi salmog'i, %
Provinsiya				
Nyufaundlend	406	4,1	580	2,0
Shahzoda Eduard oroli	6	0,1	135	0,5
Yangi Shotlandiya	56	0,6	940	3,2
Nyu-Bransuik	73	0,7	760	2,6
Kvebek	1541	15,5	7280	24,9
Ontario	1069	10,7	10930	37,3
Manitoba	650	6,5	1130	3,9
Saskachevan	652	6,5	1015	3,5
Alberta	661	6,6	2715	9,3
Britaniya Kolumbiyasi	948	9,5	3670	12,5
Hududlar				
Yukon	483	4,8	30	0,1
Shimoli-G'arbiy hudud	3425	34,4	65	0,2


Kanada mashinasozlik sanoatida asosiy tarmoqlar transport mashinasozligi va qishloq xo'jaligi mashinasozligidir. Ayniqsa, avtomobillar, kemalar, teplovozlar. Kanadada 1986-yil 1846000 avtomobil, shu jumladan, 1550000 (1995-yil) yengil avtomobil ishlab chiqarildi (dunyoda 9-o'rin).

Aholi jon boshiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish, mehnat unumdorligini va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida Kanada dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Ayniqsa, donli ekinlar yetishtirish muhim o'rin tutadi. Masalan, 1987-yil Kanadada 55,8 mln t don yetishtiriladi. Donli ekinlar, asosan, janubda, ko'lbo'yi va dasht rayonlarida ekiladi. Kanadaning bug'doy poytaxti – Vinnipeg.

Mamlakat maydoni kattaligi sababli temiryo'l transporti asosiy hisoblanadi. Temiryo'llarining umumiy uzunligi 70,5 ming km. Temiryo'llar, asosan, g'arb va sharqni, ichki rayonlarni portlar bilan, AQSH bilan bog'laydi. Avtomobil yo'larning uzunligi 887 ming km.

Ichki suv transporti, ayniqsa, dengiz transporti va havo transporti rivojlangan. Eksportning 2/3 qismi xomashyolar: bug'doy, o'rmon, o'rmon sanoati mahsulotlari, go'sht, sut mahsulotlari, metallar. Kanada tashqi savdosining 75% i AQSH ga to'g'ri keladi. Importining asosiy qismini, ya'ni 3/4 ini tayyor buyumlar: mashina va jihozlar tashkil qiladi. Pul birligi – Kanada dollari.

Eslab qoling



Mavzu yuzasidan savollar:

1. Amerika Qo'shma Shtatlarining dengizorti departamentlariga misol keltiring.
2. Amerika Qo'shma Shtatlari mashinasozlik sanoatining hududiy joylashish xususiyatlarini aniqlang.
3. Amerika Qo'shma Shtatlari aholisining milliy tarkibini ta'riflang.
4. Amerika Qo'shma Shtatlari hududiga xos ekologik muammolarning sabablarini izohlang.
5. Amerika Qo'shma Shtatlariga xos bo'lgan tashqi siyosat haqida qanday fikr bildirasiz?
6. Kanada davlatining o'ziga xos asosiy xususiyati nimada?

4.2. Markaziy Amerika davlatlari

Markaziy Amerika mamlakatlariga Meksika, Kosta-Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Panama, Beliz va Kuba kiradi. Ularning aksariyati rivojlanish darajasida Shimoliy Amerika mamlakatlaridan ancha orqada, ayrimlari esa qoloq mamlakatlar doirasiga kiradi (Nikaragua, Gvatemala, Gonduras). Bu ulardagi hududiy kichikligi, tabiiy boyliklar kamligi va ayniqsa, siyosiy beqarorlik bilan bog'liqdir. Ular orasida sotsialistik tuzum vakillaridan Kuba Respublikasi ham bor. Ushbu mamlakatda bugungi kunda ham diktatura tuzumi mavjud. U yerdagi rivojlanish darajasi birmuncha boshqa davlatlardan farq qiladi.

Meksika Qo'shma shtatlari. Maydoni 1972550 kv km, aholisi 107449 mln, poytaxti Mexiko (2006-yilda 18660 mln kishi), davlat tili ispan, dini katolik, pul birligi — Meksika pyesosi. Mamlakatning shimoliy qismida, asosan, chorvachilik va konchilik rivojlangan, AQSH bilan chegaradosh hududlarda sanoat va savdo sotiq, mamlakt janubida esa yirik shaharlarda mashinasozlik va metallni qayta ishlash, elektronika (Mexiko), oziq-ovqat, yengil sanoat, to'qimachilik (Mexiko, Gvadalaxari, Monterreu) va undiruvchi sanoat mavjud. Foydali qazilmalardan polimetall rudalari, neft, mis rudalari, ko'mir va boshqalar bor.

Markaziy Amerika davlatlari qatoriga Karib dengizi havzasi mamlakatlari ham kiradi. Ular, asosan, orol mamlakatlari bo'lib, ularning rivojlanish darajalari ham turlicha. Ularga Dominikan,

Puerto-Riko, Barbados, Aruba, Gaiti, Gvadelupa, Martinika va boshqalar kiradi. Karib havzasi mamlakatlari jahon bozoriga katta miqdorda banan mahsulotlarini yetkazib beradilar. Bundan tashqari ularda sayyohlik infratuzilmasi ham yaxshi rivojlangan.




Kuba. Markaziy Amerikaning Kuba Respublikasi boshqa mamlakatlardan maydoni, siyosiy tuzumi va rivojlanish darajasi bilan farq qiladi. Mamlakat poytaxti Gavana (2350000 kishi, 2006-y), mamlakat hududi 100860 kv km, aholisi 11382 mln kishi, davlat tili ispan, dini xristianlik, pul birligi Kuba pyesosi. Mamlakat mis rudalari, nikel rudalari qazib oladi, qishloq xo'jaligida, asosan, shakarqamish, kofe, qoramolchilik va cho'chqachilik rivojlangan. Mamlakat hududi bo'ylab temiryo'llar qurilgan. Oziq-ovqat, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, tamaki, yengil sanoat, kimyo, o'rmon sanoati va boshqalar ancha rivojlangan.

Ushbu regionning rivojlanishi bir qator muammolarga bog'liq va ularga quyidagi savollarni qo'yish mumkin:

1. Hozirgi davr Markaziy Amerika davlatlarining iqtisodiy rivojlanishida qanday imkoniyatlari mavjud?
2. Markaziy Amerika davlatlari iqtisodiy rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Markaziy Amerika davlatlarining o'ziga xos jihatlariga qanday baho berasiz?
4. Mintaqada mavjud tabiiy resurslar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir etadi?

5. Markaziy Amerika davlatlarida mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslardan to'liq foydalanishda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

6. Markaziy Amerika davlatlarida moddiy sohada necha foiz aholi band?



4.3. Janubiy Amerika mamlakatlari geografiyasi

Janubiy Amerika mamlakatlariga Panama mamlaktidan to Olovli Yer oroligacha bo'lgan hududlarda joylashagan barcha mamlakatlar kiradi (*162-betga qarang*). Mintaqaning umumiy maydoni 17,4 mln kv km. Unda 320 mln kishidan ortiq aholi yashaydi. Eng yirik mamlakatlari Braziliya va Argentina. Regionda rivojlanish bo'yicha ancha yuqori darajaga ega bo'lgan Chili, Paragvay, Urugvay, Venesuela mamlakatlari bilan bir qatorda ancha past rivojlanishga ega bo'lgan Ekvador, Kolumbiya, Boliviya, Peru kabi mamlakatlar ham bor. Ushbu regiondagi barcha mamlakatlarga alohida to'xtalishning imkonini bo'lmaganligi uchun eng rivojlangan va region iqtisodiyotida yetakchi davlatlarga ta'rif berib o'tamiz.

Braziliya Federativ Respublikasi. Braziliya nafaqat Janubiy Amerikadagi, balki Yer sharidagi eng ulkan tropik mamlakat. U maydonining kattaligiga (8557 ming km²) ko'ra ham, aholisining soniga (187 mln kishi, 2006-y) ko'ra ham dunyoda 5-o'rinda turadi. Braziliya Janubiy Amerika materigining sharqiy va markaziy qismini egallagan. Braziliya Janubiy Amerika materigi maydonining 47% ini o'z ichiga olgan bo'lib, quruqlik orqa-

li materikning 10 davlati bilan chegaradosh. Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi:

- dengiz bo'yida joylashganligi;
- Janubiy Amerikaning barcha davlatlari bilan chegaradoshligi (Ekvador, Chilidan tashqari);
- AQSH ga yaqinligi, Venesuela va Argentina bilan chegaradoshligi.

Braziliya hududida 50 dan ortiq mineral resurslar uchraydi. Ulardan, masalan, temir rudasi qazib olish bo'yicha dunyoda 1-o'rinda (yiliga 160 mln t), marganes qazib olish bo'yicha 5-o'rinda, xrom qazib olishda 8-o'rinda, Boksit qazib olishda 5-o'rinda turadi. Ulardan tashqari uran, qalay, nikel, olmos kabi-larni qazib olishda ham dunyo bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi.

Mamlakat hududi ekvatorial, subekvatorial va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Iqlimi sernam bo'lganligi uchun mamlakatda o'rmonlar (selva, kampos, katinga) katta maydonlarni egallagan. Amazoniya o'rmonlarida 25000 dan ortiq o'simlik turi uchraydi, shundan 4000 turi daraxtlardir. Bu o'rmonlar hayvonot dunyosiga ham boy. Braziliya hududining 2/3 qismini o'rmonlar egallagan. Mamlakat jahonda suv resurslari, agroiqlim resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra dunyoda oldingi o'rinlarda turadi. Bularning hammasi Braziliyaning ulkan iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatib turadi.

Aholisi. Mamlakat aholisi demografik portlashda. Aholisi 2003-yilda 176,5 mln kishi, 2006-yilda 187 mln kishi. Tug'ilish koeffitsienti 20%, o'lim 7%. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 30% ini, 64 yoshdan o'tganlar 6% ini tashkil etadi. O'rtacha umr 65–73 yosh. Bir ayolga 2,2 bola to'g'ri keladi. YMD 7070 AQSH dollari (2001). Aholisining o'rtacha zichligi 1 km² ga 21 kishi. Aholisining 90% i mamlakat hududining 2/5 qismida yashaydi, ya'ni mamlakatning janubi-sharqida, okean sohillarida yashaydi. Mamlakatning ichki, g'arbiy rayonlarida (Amazoniyada) butun aholining 5% i yashaydi. Aholining bunday notekis joylashganligiga, avvalo, tarixiy va iqtisodiy sabablar ta'sir etgan. Aholi Braziliyada yiliga 1,7% ga o'smoqda. Aholisining etnik tarkibi (80 dan ortiq millat va elat) juda murakkab. Yevropaliklarning ajdodlari (portugal, ispan, italyan,

nemis) mamlakat aholisining 55% ini, oraliq emigrant guruhlar (metis, mulat, sambo) 38% ini, negrlar esa 6% ini tashkil etadi. Tub joy aholisi Amazoniyada, negrlar esa mamlakatning shimoli-sharqiy rayonlarida ko'p tarqalgan.

Braziliyani 1500–1501-yillar portugal sayyohi Pedru Kobral kashf etgan. O'sha davrdan boshlab Braziliyaga yevropaliklar ko'chib kela boshlagan.

Urbanizatsiya darajasi 80%. Millioner shaharlari 11 ta: San-Paulu (9,4 mln kishi), Rio-de-Janeyro (5,5 mln kishi), Salvador, Belu-Orizonti, Resifi, Portu-Algeri, Braziliya, Kuritiba, Belen, Manaus, Fortaleza. Agar shahar aglomeratsiyalarini qo'shib hisoblasak, San-Pauluda 26 mln, Rio-de-Janeyroda 19 mln kishi istiqomat qiladi. Aholisining 89% i katolik, qolganlari iuda, protestant. Davlat tili – portugal tili.

Braziliya federativ respublika bo'lib, u 26 shtat va 1 ta poytaxt federal okrugidan tashkil topgan.

Qonun chiqaruvchi organi – Milliy Kongress.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Sotsial – Demokratlar partiyasi.
2. Demokratik harakatdagi partiya.
3. Mehnatkashlar partiyasi.
4. Liberal front partiyasi.
5. Milliy tiklanish partiyasi.

Braziliya 1500-yildan XIX asrgacha Portugaliya mustamlakasi bo'lib kelgan. 1888-yil qullik bekor qilingan. 1891-yil Braziliya qo'shma shtatlari tashkil topdi. Braziliya ADT (OAG) BMT, LAIX, LAES va Amazoniya paktiga a'zo.

Sanoati. Braziliya sanoati ishlab chiqarish hajmiga ko'ra dunyoda 1-o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi. U rivojlanayotgan mamlakatlarning eng yetakchisi, peshqadami, tayanchidir.

Braziliya industrial agrar mamlakatdir. Eng rivojlangan sanoat tarmoqlari: avtomobilsozlik (yiliga 1 mln avtomobil ishlab chiqaradi), samolyotsozlik («Embraer» dunyo bo'yicha 17%, 3-o'rin), EHM, mikro va mini kompyuterlar (dunyoda AQSH, Yaponiya va Germaniyadan keyin 4-o'rinda), qora metallurgiya (yiliga 26 mln t, dunyo bo'yicha 7-o'rin), kimyo sanoati (yiliga 30 mln t neft qazib oladi, chetdan 100 mln t keltiradi), kemasoz-

lik, aerokosmika, o'rmon, yengil sanoat tarmoqlari rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridan kofe sanoati, qand-shakar sanoati, konditer, sitrus, kakao, soya yog'i olish, tamaki sanoati kabilar yaxshi rivojlangan.



Braziliyada yirik harbiy sanoat barpo etilgan. Hozirda fantalab sanoat tarmoqlari tez rivojlanmoqda. Dunyodagi eng yirik GES lar (Chitayku, Tukurui, Ksinda) shu mamlakatda qurilgan.

Braziliyada qishloq xo'jaligi yuksak rivojlangan bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha u dunyoda 3-o'rinni egallaydi. Braziliya dunyoda shakarqamish (yiliga 250 mln t), kofe, banan yetishtirish bo'yicha 1-o'rinda, soya va apelsin yetishtirish bo'yicha AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi. Paxta tolasi yetishtirish bo'yicha Braziliya dunyoda 6-o'rinda (yiliga 800 ming t) turadi. Sholi yetishtirish bo'yicha esa butun Amerika qit'asida 1-o'rinda (yiliga 10 mln t) turadi. Braziliyada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatda 125 mln qoramol, 32 mln cho'chqa, 28 mln qo'y va echkilar bor. Mamlakatdagi qishloq xo'jaligi yerlarining 80% i latifundistlar qo'lida.

Braziliyada aholi va xo'jalikning joylashuvida okeanbo'yi tipi yaqqol ko'zga tashlanadi. Eni 300–350 km li okean bo'yi min-taqasida, ya'ni tashqi Braziliyada butun mamlakat ishlab chiqa-

rishi va aholisining 90% i to'plangan. Mamlakatning sanoat uchburchagi hisoblangan San-Paulu, Rio-de-Janeyro va Belu-Orizonti shaharlari tashqi Braziliyada joylashgan.

San-Paulu shahri Braziliyaning iqtisodiy poytaxti bo'lib, Lotin Amerikasining, qolaversa, butun Janubiy yarim sharning bosh sanoat rayonidir. «Osmono'par binolar» ko'pligi uchun uni «Lotin Amerikasining Nyu-Yorki» deb atashadi. San-Paulu XIX asrning o'rtalarigacha kichkina viloyat markazi bo'lgan, so'ngra Yevropa va yaponiyaliklarning ommaviy ko'chib kelishi natijasida shahar juda tez o'sdi.

Rio-de-Janeyro mamlakatning eng yirik port, bankir va say-yohlik shahridir. U 1960-yilgacha mamlakat poytaxti bo'lib kelgan. Shaharda Isus Xristosning 40 metrlik haykali va dunyodagi eng katta «Mrakana» futbol stadioni joylashgan. XX asrning 2-yar-midan boshlab Braziliyada Amazoniyani o'zlashtirishga qaratilgan regional siyosat yuritilmoqda. Mazkur siyosat bo'yicha mamlakat poytaxti Rio-de-Janeyrodan Braziliyaga ko'chirildi va Transama-zoniya avtomobil yo'li (5,5 ming km) qurilib ishga tushirildi.



Transporti. Asosiy transporti avtotransport bo'lib, mam-lakatda avtoyo'llarning umumiy uzunligi 1,3 mln km ga teng. Temiryo'llarining umumiy uzunligi 30 ming km. Dengiz trans-porti yaxshi rivojlangan. Eng yirik dengiz portlari Rio-de-Janey-

ro, Santus, Itaki bo'lib, ular universal portlardir. Eng yirik ruda eksport qiluvchi porti — Tubaran. Bulardan tashqari Forta-Leza, Salvador, Port-Alegri kabilar mavjud.

Asosiy eksporti: po'lat, temir, aluminiy, qalay, transport jihozlari, kofe, soya, apelsin, shakar, tamaki, teri, go'sht, to'qimachilik mahsulotlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, neft, ko'mir, mineral o'g'itlar, bug'doy, oziq-ovqat, kimyo sanoati mahsulotlari.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari, YI, Osiyo davlatlari. Pul birligi — real.

Argentina Federativ Respublikasi. Argentina — Janubiy Amerikaning janubi-sharqidagi davlat. Maydoni 2,8 mln km². Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi sharqiy tomondan katta masofada okean sohilida joylashganligidir. Ayni vaqtda AQSH ga yaqinligi va Janubiy Amerikadagi eng rivojlangan davlat Braziliya bilan chegaradoshligidir.

Tabiiy sharoitiga ko'ra Argentinaning shimoliy qismi tropik, markaziy qismida katta masofada subtropik, janubiy qismida esa mo'tadil iqlim mintaqalari joylashgan. Argentinaning janubiy qismida Pategoniya o'lkasi (plato), markazida Pampa, shimolida esa Gran-Chako o'lkalari joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismini esa La-Plata pasttekisligi egallagan. Mamlakat hududining shimolida janubiy tropik chizig'i kesib o'tgan. Amerika qit'asidagi eng baland tog' cho'qqisi Akankagua (6960 m) Argentinada joylashgan.

Foydali qazilmalardan, asosan, neft va tabiiy gazga boy, ularidan tashqari toshko'mir, uran, temir, polimetall, oltingugurt konlari bor.

Aholisi 1996-yilda 35 mln, 2003-yilda 36,9 mln, 2006-yilda 39 mln kishi. Tug'ilish koeffitsienti 19%, o'lim 8%. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 31% ini, 64 yoshdan oshganlar 9% ini tashkil etadi. O'rtacha umr 70—77 yosh. Bir ayolga 2,5 bola to'g'ri keladi. YMD 10980 AQSH dollari (2001). Aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, ular, asosan, La-Plata pasttekisligida joylashgan. Pategoniyada aholi juda siyrak. Etnik tarkibiga ko'ra argentinlar, ispan, italyan va yevropaliklarning avlodlari hisoblanadi. Eng yirik shahri Buenos-Ayresda 10,8 mln aholi, Kordovada, 1,1 mln

aholi yashaydi. Aholisining ko'pchiligi katolik mazhabiga e'tiqod qiladi. Davlat tili ispan tili. Argentina 1816-yil 9-iyul kuni mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Unga qadar Ispaniya mustamlakasi bo'lib kelgan. 1982-yil aprel–iyun oylari Malvin (Folklend) orollarida Angliya–Argentina qurolli kuchlari to'qnashuvi bo'lgan va hanuz bu joylar munozaraliligicha qolib kelmoqda.

Argentina LAES, LAIX tashkilotlariga a'zo.

Argentina federativ davlat bo'lib, 23 ta provinsiya, 1 milliy hudud va 1 ta federal okrugni o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaga binoan qonun chiqaruvchi oliy organ — Milliy Kongress va ijrochi hokimiyatdan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Grajdan radikal ittifoqi (1891).
2. Murosasizlar partiyasi (1963).
3. Xristian demokratik partiyasi (1954).
4. Sotsialistik partiya (1986).
5. Argentina kommunistik partiyasi (1918).

Argentina Janubiy Amerikadagi eng rivojlangan davlatlardan biri. Argentina iqtisodiyotiga AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniyaning kapitali kuchli ta'sir etadi. Asosiy rivojlangan sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, qora metallurgiya, mashinasozlik, ko'n poyabzal, rangli metallurgiya tarmoqlaridir. Yirik sanoat markazlari: Buenos-Ayres, Kordova, Rosario.

1987-yil mamlakat 2,7 mln t cho'yan, 3,4 mln t po'lat, 2,7 mln t prokat ishlab chiqargan. 184 ming avtomobil, 47 mlrd kVt/s elektr energiyasi hosil qilgan.

Qishloq xo'jaligi, asosan, La-Plata pasttekisligida rivojlangan. Donli ekinlar yetakchi o'rin tutadi, ayniqsa, makkajo'xori va bug'doy. 1986–1987-yillar mamlakatda 32 mln t don yetishtirildi. Bulardan tashqari mamlakat shimolida paxta, shakarqamish, sholi, tamaki, sitrus mevalar kabilar yetishtiriladi. Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq qo'ychilik bo'lib, u, asosan, Pategoniyada, Pampaning g'arbiy qismida va tog'li rayonlarda yaxshi rivojlangan. Ma'lumki, Argentina jahonda XGMTda jun, teri, go'sht eksport qiluvchi mamlakat sifatida tanilgan. Argentinadagi eng rivojlangan sanoat tarmog'i bo'lmish ko'n poyabzal sanoati bejiz rivojlangan emas. Ma'lumki, Argentina maydoniga ko'ra jahonda 1-o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi.

Maydoni yirik bo'lganligi sababli Argentinada temiryo'llar transporti yaxshi rivojlangan. Temiryo'llarning umumiy uzunligi 39,8 ming km ni tashkil etadi. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 54,6 ming km ga teng. Havo transporti ham yaxshi rivojlangan bo'lib, 10 ta xalqaro aeroportga ega. Pul birligi — pyeso, real.



Asosiy eksporti: don, go'sht, jun, vino, mevalar va sanoat mahsulotlari.

Asosiy importi: mashinalar, asbob-uskunalar, yoqilg'i, kimyo mahsulotlari, elektr stansiyalar uchun jihozlar.

Tashqi savdosi, asosan, AQSH, Xorijiy Yevropa, Yaponiya, MDH davlatlariga to'g'ri keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Janubiy Amerika davlatlarini nima uchun ko'pincha Lotin Amerikasi mamlakatlari deb ham atashadi?

2. Karib havzasi mamlakatlarining qaysilari mustaqil, qaysilari mustamlaka mamlakatlar?

3. Sanoat, ishlab chiqarishning hududiy jihatdan monosentrik holda joylashish sabablarini aniqlang va ular eng ko'p qaysi mamlakatlarga xos?

V bob. AFRIKA QIT'ASI MAMLAKATLARINING MA'MURIY GEOGRAFIYASI

5.1. Afrika qit'asi mamlakatlarining ma'muriy geografiyasi

Afrika — maydonining kattaligi bo'yicha Yevroosiyodan keyingi yirik materik. Materik maydoni 29,2 mln km², unga tegishli orollar bilan esa 30,3 mln km², bu yer quruqlik yuzasining 1/5 qismi demakdir. Orollardan Madagaskar eng yirigi hisoblanadi. Hind okeanida joylashgan Sokotra, Zanzibar, Pemba, Mariya, Komor, Amirant, Seyshel, Maskaren (Mavrikiy, Reyunon va b.) va Atlantika okeanida joylashgan Madeyra, Kanar, Kabo-Verde, Bioko, San-Tome, Prinsipi, Vozneseniya, Avliyo Yelena, Tristan-da-Kunya orollari ham Afrikaga qaraydi. Hozirgi vaqtda Afrikada jami 57 ta mamlakat mavjud bo'lib, shularning ko'pchiligi iqtisodiy qoloq mamlakatlardir (*163-betga qarang*). Respublikalarning soni 50 ta, monarxiyalar 3 ta. G'arbiy Sahroyi Kabir mamlakatining maqomi noma'lum.

Materik magmatik va metamorfik jinslarga juda boy. Xrom, temir, marganes, uran, mis, qalay, kobalt, oltin, platina, asbest, slyuda zaxiralari ulkan. Materikning g'arbiy, markaziy va ayniqsa, janubiy qismlarida yirik olmos konlari mavjud. Afrika boksit va fosforitlarning zaxiralari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Umuman olganda, Afrika dunyoda oltin zaxirasi bo'yicha birinchi o'rinni, olmos bo'yicha ikkinchi o'rinni (Avstraliyadan keyin) egallaydi. Unga dunyoda mavjud xrom, marganes, fosforit zaxiralarining 2/3 qismi, mis, uran, boksit zaxiralarining 25–35% i, tabiiy gazning deyarli 1/5 qismi va neft zaxirasining katta qismi to'g'ri keladi.

Afrika mamlakatlarining tabiiy demografik salohiyati. Afrika suv resurslariga boy. Yillik umumiy suv oqimi 5 ming km³ dan ortiq, shundan 25% i Kongo, 10% i Zambezi hamda 6% i Niger daryolariga to'g'ri keladi. Nil daryosining yillik suv oqimi atigi 85 km³ ga teng, xolos.

Afrika aholisining soniga ko'ra (1002 mln) materiklar ichida Yevroosiyodan keyingi ikkinchi, uning o'sish sur'atlari bo'yicha esa birinchi o'rinda turadi. Afrika aholisi yiliga bir necha million

kishiga ko'paymoqda. Aholining tabiiy o'sish sur'atlari Markaziy, Sharqiy va G'arbiy Afrika mintaqalari hamda mamlakatlarida (Niger, Chad, Uganda, Malavi, Gvineya, Angola, Mali, Keniya, MAR va b.), ayniqsa, yuqori ko'rsatkichlar bilan ifodalanmoqda. Mazkur mamlakatlarda tug'ilish koeffitsienti 35 promilledan ham yuqori. Afrika o'lim darajasining yuqoriligi va aholi o'rtacha umr davrining pastligi bo'yicha ham ajralib turadi. Umumiy o'lim koeffitsienti 8–10 promilleni, bolalar o'limi koeffitsienti esa 85–90 promilleni tashkil etmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish davri 52 yoshdan oshmaydi.

AFRIKA QIT'ASI DAVLATLARI	
Maydoni	– 30 mln km ²
Aholisi	– 812 mln kishi
Davlatlar soni	– 54 ta
Respublikalar soni	– 50 ta
Monarxiyalar soni	– 4 ta


Yirik, o'rta va kichik shaharlar miqdori katta bo'lgan hududlar qatoriga Nil deltasi, Mag'ribning dengiz sohili hududi, Janubiy Afrika Respublikasi, Nigeriyaning Gvineya qo'ltig'i, Zimbabve, Zambiya va KDR dagi tog'-kon sanoati rivojlangan rayonlar kiradi. Afrikada aholisining soni 1 mln dan ortiq bo'lgan 20 ga yaqin shahar mavjud. Qohira, Iskandariya, Keyptaun, Yoxannesburg, Lagos, Abijon, Kinshasa, Nayrobi, Addis-Adeba, Jazoir, Kasablanca, Dakar shular jumlasidandir. Qohira, Yoxannesburg, Lagos va boshqa ba'zi yirik shaharlar atrofida aglomeratsiya shakllangan.

Afrikada uchta yirik din alohida o'rin egallaydi. Shulardan mahalliy an'anaviy dinlar G'arbiy va Markaziy Afrikada, islom dini Shimoliy, G'arbiy va Sharqiy Afrikada, xristian dini Janubiy, qisman G'arbiy va Markaziy Afrikada hamda Efiopiyada tarqalgan.

5.2. Shimoliy Afrika mamlakatlari geografiyasi



Shimoliy Afrika mamlakatlariga Misr, Liviya, Tunis, Sudan, Jazoir, Marokash, G'arbiy Sahroyi Kabir kiradi. Regionning umumiy maydoni 9555,2 ming km², aholisining soni 210,3 mln kishi, shu jumladan, shahar aholisining soni 99,4 mln kishi, ulushi 47,3% (2007), davlatlar soni – 7 ta. Bu yerda, asosan, arablar, barbarlar va tuareglar istiqomat qiluvchi tarixiy subregion, shimoliy chegarasini O'rta dengiz suvlari yuvib turadi, janubiy chegarasi shartli ravishda Sahroyi Kabirning markaziy va janubiy qismlaridan o'tadi. Subregionda Misr, Liviya, Tunis, Sudan, Jazoir, Marokash, G'arbiy Sahroyi Kabir mamlakatlari hududi joylashgan. Geografik o'rni qulay. Aholisining soni o'rtacha yiliga 2,1–2,2% ga o'smoqda, bu jami Afrikaga xos ko'rsatkichdan 0,1–0,2% ga past.

Afrika materigi davlatlarini subregionlarga ajratish:



Xo'jaligining asosini tog'-kon sanoati tashkil etadi. Jazoir, Liviya va Misrda neft va gaz qazib olish, qayta ishlash sanoati yaxshi rivojlangan bo'lib, u tovar ahamiyatiga ega. Qora metallurgiya sanoati Misr (Xelaun) va Jazoir (Annaba)da, rangli metallur-

giya Jazoir, Misr, Marokashda, mashinasozlik mamlakatlarning poytaxtlari hamda katta shaharlarida rivojlangan. Shimoliy Afrikada kimyo sanoati, ayniqsa, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlangan, uning yirik markazlari Marokash (Kasablanka, Safi), Tunis (Tunis), Jazoir (Annaba), Misr (Port-Said, Suvaysh, Asvon)da mavjud.



Qishloq xo'jaligi, avvalambor, dehqonchilik qulay tabiiy sharoit va suv resurslari bilan bog'liq holda rivojlangan. Asosiy shaharlari va sanoat markazlari kabi dehqonchilik makonlari O'rta dengiz hamda Atlantika okeani sohillariga yaqin hududlarda va Nil vodiysida joylashgan. Sug'orma dehqonchilik Nil vodiysida (Misr va Sudan) rivojlangan bo'lib, u ingichka tolali paxta, shakarqamish hamda boshqa ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan.

Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz, fosforitlar, rangli metallar, paxta, sitrus mevalar, xurmo, oziq-ovqat mahsulotlari.

Misr. Shimoliy Afrika mamlakatlari ichida ancha rivojlangan davlat. Ushbu mamlakat o'zining qadimiy sivilizatsiyasi, rivojlanish darajasi bilan ajralib turadi. Yevropa va Fors ko'rfazi mamlakatlarini bog'lovchi eng muhim davlatdir. Birgina Suwaysh kanali orqali O'rtayer dengiziga kuniga 500 ga yaqin katta-kichik kemalarda turli mahsulotlar bilan o'tishining o'zi ushbu mamlakat iqtisodiyotiga millionlab dollar olib keladi. Misr o'zining energetikasi yirik majmuasiga ega. Asvonda qurilgan yirik gidroenergetika majmuasi nafaqat Misr, balki qo'shni mamlakatlarning ham elektr energiyasi ta'minotiga xizmat qiladi. Misr yaxshi rivojlangan tog'-kon sanoatiga (neft, tabiiy gaz, fosforitlar), mashinasozlik, oziq-ovqat sanoatiga, rivojlangan qishloq xo'jaligiga ega mamlakat. Bundan tashqari Misr jahon sayyohlikning markazlaridan biri. Mamlakatga yiliga 3–5 mln sayyohlar keladi va ular iqtisodiyotga katta miqdorda daromad olib kiradi.

5.3. Markaziy Afrika mamlakatlari geografiyasi

Markaziy Afrika. Maydoni — 6,6 mln km², aholisi 104 mln kishi, davlatlar soni — 9 ta. Ularga Angola, Kamerun, MAR, Kongo, Zair, Gabon, Ekvatorial Gvineya, San-Tome va Prinsipi, Chad mamlakatlari kiradi. Mazkur mamlakatlar o'zlarining boy tabiiy, energetik resurslariga ega bo'lishiga qaramasdan rivojlanish darajalari ancha past. Buning asosiy sabablari regionning rivojlangan Yevropa, Amerika, Osiyo qit'alaridan uzoqligi, mamlakatlarning ko'p vaqt davomida mustamlakalar bo'lganligi va

bugungi kunda ham g'arb mamlakatlariga xomashyo yetkazuvchi davlatlar qatoriga kirganligidir.



Angola, Kongo, Chad, MAR mamlakatlari juda qoloq mamlakatlar qatoridan joy olib kelmoqda. Ularning iqtisodiyoti asosini tropik mevalar yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik tashkil etadi. Ushbu mamlakatlarda oltin, olmos, neft, qalay, temir rudalari topilgan va qazib olinmoqda. Lekin foydaning aksariyatini Yevropa mamlakatlari kompaniyalari olib ketmoqda. Regionning faqat okeanga yaqin bo'lgan qismlarida yirik shaharlar bo'lib, ularda oziq-ovqat, baliqchilik, yengil sanoat tarmoqlari rivojlangan. Yirik sanoat markazlaridan Yaunde, Kinshasa, Luanda, Librevillarni olish mumkin.

5.4. Janubiy Afrika mamlakatlari geografiyasi

Janubiy Afrika regionini o'ziga hos regionlardan bo'lib, uning mamlakatlari rivojlanishiga ko'ra turlicha tiplarga kiradi. Ushbu regionda 5 ta mamlakat bo'lib, ularga JAR, Botsvana, Lesoto, Namibiya, Svazilend kiradi. Umumiy maydoni 2678 mln kv km, aholisi 55 mln kishi, rivojlanish darajasi o'rtacha (3500–5500 AQSH dollariga teng). Bularning ichida o'zining rivojlanish darajasi bilan keskin farq qiluvchi mamlakat bu — Janubiy Afrika Respublikasidir.

Region tabiiy boyliklarga juda boy. Bu yerda oltin, rangli metallar, olmos, ko'mir, temir va boshqa madanlar qazib olinadi. Region oltin va olmoslarni qazib olish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Janubiy Afrika Respublikasi

Bu mamlakat Afrika materigining chekka janubida joylashganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Maydoni 1,222 ming km². Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi: dengiz bo'yida, muhim dengiz yo'llari ustida joylashganligi. Janubiy Afrika Respublikasi iqlimiy jihatdan, asosan, tropik va qisman subtropik mintaqalarda joylashgan. Mamlakat hududida Drakon, Kap tog'lari joylashgan. Asosiy daryosi Oranjevaya. Janubiy Afrika Respublikasi quruqlik orqali Namibiya, Botsvana, Zimbabve, Mozambik, Svazilend davlatlari bilan chegaradosh. Lesoto davlati orol ko'rinishida to'liq Janubiy Afrika Respublikasining ichida joylashgan.



Janubiy Afrika Respublikasi foydali qazilmalarga boy. Asosiy qazilma boyliklari: temir rudasi qazib olish bo'yicha dunyoda 9-o'rinda turadi, yiliga 30 mln t va 3/4 qismini Yevropaga eksport qiladi; marganes va xrom qazib olishda dunyoda 1-o'rinda, nikel qazib olish bo'yicha 6-o'rinda, mis qazib olish bo'yicha 10-o'rinda, fosforit qazib olish bo'yicha 6-o'rinda, oltin qazib olish bo'yicha

1-o'rinda (yiliga 630 t), ko'mir qazib olish bo'yicha 8-o'rinda (yiliga 180 mln t qazib oladi, Yevropa va Yaponiyaga eksport qiladi), olmos, platina va uran qazib olishda 1-o'nlikka kiradi.



Aholi soni 2003-yilda 44 mln kishi, 2006-yilda 47,3 mln kishi bo'lib, u demografik tanglikda. 2003-yil ma'lumotlari bo'yicha Janubiy Afrika Respublikasida tug'ilish koeffitsienti 23%, o'lim 14%. Agar aholining tabiiy ko'payishi shu holatda ketsa, 2025-yil aholi soni 35 mln kishiga tushib qoladi. Chaqaloqlar o'limi 57%. Bir ayolga 2,8 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar soni 34%, 64 yoshdan oshganlar 5%. O'rtacha umr 53–54. YMD butun Afrika materigi bo'yicha o'rtacha 2120 AQSH dollari. Janubiy Afrika Respublikasida eng yuqori YID 10910 AQSH dollar tashkil etadi. 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan aholining 20% i «OIV» bilan zararlangan. Bu ko'rsatkich Afrika materigida 6,5% ni, butun dunyoda esa 1,2% ni tashkil etadi. Botsvanada eng yuqori – 39%.

Aholisining 4/5 qismini tub joy xalqlari (zumus, bantu, bur, kasa), 12% ini oqtanlilar (ingliz, golland, fransuz), qolganini Osiyodan ko'chib kelganlar va mulatlar tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km² joyga 36 kishi. Urbanizatsiya darajasi 45%. Hayot darajasi

o'rtacha. Millioner shaharlari yo'q, lekin millioner aglomeratsiyalari mavjud: Yoxannesburg, Keyptaun, Durban, Pretoriya.

Davlat tili afrikans va ingliz.

Janubiy Afrika Respublikasi siyosiy-ma'muriy jihatdan 9 ta provinsiyadan tashkil topgan. Federativ respublika. Kap hududini dastlab 1662-yil gollandlar bosib olgan, XIX asr boshida esa inglizlar bosib olgan. 1961-yildan boshlab Janubiy Afrika Respublikasi mustaqil deb e'lon qilingan. Janubiy Afrika Respublikasi 1915–1992-yillar Namibiyani mustamlaka qilgan. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Millatchilar partiyasi (1948).
2. Konservativ partiya (1982).
3. Progressiv – federal partiya.

Davlat boshlig'i – prezident, boshqaruv organi esa 3 palatali parlametdan iborat. Janubiy Afrika Respublikasi rivojlangan industrial agrar ko'chirma kapitalizm davlatidir. U Afrika hududining 4,1% ini egallagan, aholisining 6% ini o'z ichiga olgani holda, butun Afrikada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 40% ini, po'latning 80% ini beradi. Qit'adagi jami temiryo'llarning 1/3 qismi, avtoyo'llarning deyarli yarmi Janubiy Afrika Respublikasiga to'g'ri keladi.



Uran ma'dani.



Oltin.

Vitvatersrant rayoni nafaqat Janubiy Afrika Respublikasining, balki butun Afrikaning eng yirik sanoat rayonidir. Bu rayon «Afrika Ruri» nomini olgan. Janubiy Afrika Respublikasining iqtisodiy poytaxti Yoxannesburg shu rayonda joylashgan boʻlib, eng yirik va zamonaviy shahardir. Vitvatersrant rayoni toshkoʻmir, uran, oltin, platina, xromid, olmos, asbest konlari asosida tashkil topgan.

Oʻtgan XX asrda 100 yildan ortiq vaqt davomida JAR iqtisodining asosini oltin qazib olish tashkil etdi. Olmos qazib olish va uning zaxirasi boʻyicha JAR dunyoda 5-oʻrinda turadi. Afrika-da birinchi olmosni 1869-yil hozirgi Kimberli shahri oʻrnidan bir choʻpon bola topgan. Shuning uchun tarkibida olmos boʻlgan togʻ jinsi kimberlit deyiladi. 3 t kimberlitdan 1 karat (0,2 gr) olmos olinadi. Dunyoda qazib olinayotgan barcha olmosning (yiliga 100 mln karat) 10% i JARGa tegishli. JAR yiliga 3,5 ming t uran qazib oladi va bu soha boʻyicha u dunyoda Kanada va AQSHdan keyin 3-oʻrinda turadi.

Mamlakatda yiliga 3,5 mln t xrom rudasi, 3,7 mln t marganes, 10 mln karat olmos va boshqa foydali qazilmalar qazib olinadi.

JAR da yiliga 100 mlrd kVt/s elektr energiyasi hosil qilinadi. Uning asosiy qismini Vitvatersrand rayonidagi IESlar va Keyptaun AESi beradi. Asosiy sanoat tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati.

Yirik sanoat markazlari: Yoxannesburg, Pretoriya, Keyptaun, Durban, Ist-London, Port-Elizabet, Nyukasl.

JAR ning barcha hududini birday iqtisodiy rivojlangan deb bo'lmaydi. Chunki «aparteid» (alohida rivojlanish) siyosiy chuqurlashgan davrda, ya'ni 1976–1981-yillar sovuq rezervatsiyalar o'rnida 10 ta «qoralar mustaqil davlati» yoki bandustan tarkib topgan. U yerlarda, asosan, qora tanlilar yashaydi. Yerlari kamunum, qishloq xo'jaligi esa kam mahsul. Yirik shaharlari yo'q. JAR dagi unumdor yerlarning 87% i oq tanlilarga tegishli.



Yoxannesburg shahri ko'chalarida.

Shunday qilib, JAR xo'jaligida iqtisodiy rivojlangan mamlakatni ham, iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatni ham ko'rish

mumkin. Shuning uchun JAR iqtisodi ikki yoqlama mamlakat deyiladi. Qishloq xo'jaligida asosiy o'rinda dehqonchilik turadi. Mamlakatda yiliga 15 mln t g'alla yetishtiriladi. G'allaning 4/5 qismini makkajo'xori tashkil etadi. JAR da yiliga 2 mln t bug'doy, 500000 t sargo yetishtiriladi. G'alladan tashqari yana yeryong'oq, tamaki, kungaboqar, paxta, sitrus mevalar ham yetishtiriladi.

JARda 13 mln bosh qoramol, 31 mln bosh qo'y, 1,5 mln bosh cho'chqa boqiladi. Chorvachilikning bunday rivojlanishida yevropaliklarning roli katta.

Transporti. Avtomobil transporti mamlakat ichkarisida yo'lovchi va yuk tashishda muhim ahamiyatga ega. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 40 ming km. Temiryo'llarning yuk tashishdagi roli yuqori. Temiryo'llarning umumiy uzunligi 23 ming km dan ortiq.

Havo transporti yaxshi rivojlangan bo'lib, eng yirik universal porti Durban porti, eng yirik ko'mir va ruda eksport qiluvchi maxsus porti Richards-Bey portidir. Mazkur portlardan yiliga 50100 mln t yuk o'tadi. Port-Elizabet va Keyptaun portlari kichikroq portlardir.

Asosiy eksporti: temir, marganes, xrom, nikel, oltin, mis, fosforit, ko'mir, uran, olmos, makkajo'xori, chorva mahsulotlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, kimyo sanoati mahsulotlari, bug'doy, sanoat buyumlari.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya.

Pul birligi — rand.

VI bob. AVSTRALIYA VA OKEANIYA MAMLUKATLARI GEOGRAFIYASI

6.1. Avstraliya, Yangi Zelandiya va Okeaniya mamlakatlari geografiyasi

Avstraliya soʻzi «janubiy» maʼnosini bildiradi. Haqiqatan ham u janubiy yarimsharda joylashgan. Eng kichik materik. Maydonining kattaligiga koʻra dunyoda 6-oʻrinda turadi (7,750000 km²). Avstraliya maydoni shimoldan janubga 3200 km, gʻarbdan sharqqa 4100 km ga choʻzilgan (*164-betga qarang*). Iqtisodiy geografik oʻrnida uning AQSH, Yaponiya, Xorijiy Yevropa davlatlaridan uzoqda joylashganligi noqulayroq. Masalan, AQSH dan 11–15 ming km uzoqda joylashgan. Lekin hozirgi zamonaviy dengiz va havo transporti bu toʻsiqqa barham bermoqda.

Avstraliya iqlimi subekvatorial, tropik va subtropik mintaqalarda joylashgan. Iqlimi quruq tropik, sharqiy sohillari esa nam tropik. Buning sabablari, asosiy daryosi Murrey (Darling bilan) bilan bogʻliq.

Foydali qazilmalarga boy. Asosan, temir rudasi, mis, titan, nikel, uran, boksit, oltin, olmos, koʻmir kabilar. Masalan, temir rudasi qazib olish boʻyicha dunyoda 3-oʻrinda (yiliga 110 mln t), marganes qazib olish boʻyicha 3-oʻrinda, boksit qazib olish boʻyicha 1-oʻrinda, nikel qazib olish boʻyicha 3-oʻrinda, qalay va rux qazib olish boʻyicha 2-oʻrinda, mis qazib olish boʻyicha 9-oʻrinda, koʻmir qazib olish boʻyicha 6-oʻrinda (yiliga 210 mln t), olmos qazib olish boʻyicha 1-oʻrinda turadi.

Aholisi 2008-yildagi hisob-kitoblarga koʻra 20,6 mln kishi yashaydi. Tugʻilish koeffitsienti 13%, oʻlim 7%. 15 yoshgacha boʻlganlar jami aholining 20% ini, 64 yoshdan oshganlar 13% ini tashkil etadi. Oʻrtacha umr 77–82 yosh. Bir ayolga 1,7 bola toʻgʻri keladi. YMD 24630 AQSH dollari (2008).

Aholisining 77% ini Buyuk Britaniyadan koʻchib kelganlarning avlodlari, qolganini Yevropaning boshqa xalqlari, metislar va aborijenlar (250 ming kishi aborijen va metislar) tashkil etadi. Aholisining oʻrtacha zichligi 1 km² 2,5 kishi boʻlib, juda notekis joylashgan. Masalan, Avstraliya maydonining 65% ida mamlakat

aholisining 1% i, mamlakatning janubi-sharqini egallagan 10% maydonida 91% aholi yashaydi. Eyr ko'li atrofida doimiy aholi umuman yo'q, lekin janubi-sharqiy sohillarida 1 km² joyga 250 tagacha odam to'g'ri keladi.

Avstraliyaga xos bo'lgan asosiy jihatlar:

AVSTRALIYA ITTIFOQI:

Maydoni — 7687, 0 ming km kv

Aholisi — 20,3 mln kishi

Hamdo'stlik tarkibidagi davlat

Davlat tili — ingliz tili

Davlat dini — xristian dini

Aholi zichligi — 1 km² da 2 kishi

Aholisining 97 % i anglo-avstraliyaliklar

Urbanizatsiya darajasi — 85%.



Urbanizatsiya darajasi materiklar bo'yicha eng yuqori, ya'ni 86% tashkil etadi. Millioner shaharlari 5 ta: Sidney (3,7 mln kishi), Melbrun, Brisben, Pert, Adelida.

Avstraliya hududidan Buyuk Britaniya dastlab surgunchilar uchun joy sifatida foydalangan. XIX asrning 50–60-yillarida oltin konlarining ochilishi Avstraliyaga aholi kelishini kuchaytirdi. 1901-yil Avstraliyadagi mustamlakalar birlashtirilib Avstraliya Ittifoqini tashkil etdi. 1931-yildan boshlab Avstraliya mustaqillikka erishdi. Avstraliya Ittifoqi federativ davlat bo'lib, hozirda u 6 ta shtat va 2 ta hududdan tashkil topgan. Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibiga kiradi. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Avstraliya leyboristik partiyasi (1891).
2. Avstraliya milliy-agrar partiyasi (1916).
3. Avstraliya sotsialistik partiyasi (1972).

Avstraliyaning jahonda tutgan o'rni: maydonining 5,2% ini, aholisining 0,3% ini, YID ning 1,2% ini, eksport mahsulotlarining 1,1% ini o'z ichiga oladi.

Avstraliyada mahalliy xomashyolarga asoslangan holatda tog'-kon sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Avstraliyada AESlar yo'q. Asosan, IESlar, qisman GESlardan yiliga 200 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Mamlakatda yiliga 30 mln t dan ortiq neft qazib olinadi, lekin u ehtiyojni qondirmagani uchun OPEK davlatlaridan neft sotib olinadi. 30 mlrd m³ dan ortiq tabiiy gaz qazib olinadi va uni Yaponiyaga eksport qiladi. Yiliga 240–250 mln t ko'mir qazib oladi (Nyukasl, Yangi J. Uels) va ortiqchasini, asosan, Yaponiya va Xorijiy Yevropaga eksport qiladi. Mamlakatda yiliga 10 mln t atrofida po'lat quyiladi. 300 ming donadan ortiq yengil avtomashinalar ishlab chiqariladi.

Yengil sanoatining ip-gazlama, jun-gazlama va ko'n-poyabzal tarmoqlari rivojlangan. Eng yirik to'qimachilik korxonalari Sidney, Adelida, Melburn, Pert shaharlarida joylashgan. Neftni qayta ishlash va baliq konserva sanoati dengiz bo'yidagi port shaharlarda rivojlangan. Eng yirik sanoat markazlari: Sidney va Melburn; yirik sanoat markazlari: Brisben, Adelida, Pert, Kanberra, Nyukasl.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakatda 500 mln gektardan ortiq yerlardan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligidagi yetakchi tarmoq chorvachilikdir. Avstraliyada 30 mln bosh qoramol, 150 mln bosh qo'y (Xitoydan keyin 2-o'rinda), 2,5 mln bosh cho'chqa boqiladi. Mamlakatda yiliga o'rtacha 4 mln t go'sht, 8 mln t sut tayyorlanadi. Avstraliya «shipsteynz»larida merinos qo'ylari boqiladi.

Mazkur davlatda yiliga 800000 t dan ortiq mayin qimmatbahonun yetishtiriladi.

Avstraliyada yiliga 20 mln t dan ortiq g'alla yetishtiriladi, uning 16 mln t sini bug'doy tashkil etadi. Avstraliya bug'doy eksporti bo'yicha dunyoda AQSH, Kanada, Fransiyadan keyin 4-o'rinda turadi. Bug'doyni, asosan, Xitoy va Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlariga eksport qiladi. Avstraliyada yiliga 200000 t dan ortiq paxta tolasi yetishtiriladi. Paxta yetishtirish bo'yicha Avstraliya dunyoda 10-o'rinda turadi. Paxta tolasi Avstraliyaning o'zida qayta ishlanadi.





Avstraliya va Okeaniya qirg'oqlari.

Transporti. Avstraliya jahonda temiryo'llarning uzunligi bo'yicha (6-o'rin) ham, avtoyo'llarning uzunligi bo'yicha ham 1-o'nlikka kiradi. Temiryo'llarning umumiy uzunligi 41 ming km, avtoyo'llarning uzunligi 900000 km. Mamlakat ichida yuk va yo'lovchi tashishning 3/4 qismi avtotransportga to'g'ri keladi. Yuk aylanmasining asosiy qismi dengiz transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Eng yirik universal dengiz portlari: Sidney, Pert, Gladston, Dampir. Ko'mir va ruda porti — Port-Xedlend.

Tashqi savdo aylanmasi 50 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Uning 60% i eksportga, 40% i importga to'g'ri keladi. Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa, Buyuk Britaniya. Keyingi paytlarda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining tashqi savdodagi o'rni o'sib bormoqda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Avstraliya qancha maydonga ega?

2. Aholisining umumiy soni qancha?
3. Avstraliyaning davlat tuzumi xususiyatlarini aytib bering.
4. Avstraliya tabiiy geografik o'rnining davlat iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri haqida gapiring.
5. Nima uchun Avstraliyaning janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy qismlari uning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra rivojlangan qismlari hisoblanadi?
6. Avstraliyada qanday tabiiy resurslar milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan?

6.2. Antarktida va Arktika geografiyasi

Bugungi kunda Antarktida va Arktika geografiyasi haqida ma'lumotlar turlicha bo'lib, ushbu regionlar global ekologik muammolar regionlariga aylanib bormoqda. Chunki ushbu regionlar ham XX asrning oxirlariga kelib jahon iqtisodiyotining bir bo'lagiga aylanib bormoqda. Ushbu hududlarda neft, tabiiy gaz, turli ma'danlarning katta zaxiralari mavjudligi aniqlangan. Shuning uchun jahon hamjamiyati ushbu regionlarni ekologik xafvsiz hudud deb e'lon qilishga va ekologik muammolarning oldini olishga harakat qilmoqda. Chunki ushbu regionlar o'zlarining nozik tabiati, biologik xilma-xilligi va Yer shari-da o'ziga xos o'rinni egallaganligini e'tirof etish zarur. Ushbu regionlarni o'zlashtirishda insoniyatning global ekologik muammolarining hisobga olinishi eng muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, ushbu regionlarda baliq ovlash, yirik dengiz hayvonlarini muhofaza qilish masalasi, ozon qatlami muammosi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Antarktida Yer sharining janubiy qutb o'lkasi, uning nomi grekcha «*anti*» — qarshi va «*artikos*» — shimol so'zlaridan olingan. Antarktika tarkibiga muz bilan qoplangan juda katta Antarktida materigi, uni o'rab turgan janubiy qutb suvlari va uning atrofidagi orollar kiradi. Unda doimiy yashaydigan aholi yo'q. Antarktida qirg'oqlari va Antarktikaga tegishli ko'p orollar rus dengizchilar F. Bellinsgauzen va M.P. Lazerev boshchiligidagi 1819–1821-yillarda maxsus tashkil etilgan ekspeditsiya tomonidan kashf etilgan. 1911–1912-yillarda norvegiyalik qutb tadqiqotchi R. Amundsen va ingliz tadqiqotchisi R. Skottlar deyarli

bir vaqtda janubiy qutbga yetib borishadi. Antarktikaning o'ziga xos sharoiti juda katta quruqlik va suv havzasida hukmron. Antarktika atrofidagi orollar arxipelaglariga quyidagi orollar kiradi: Aleksandr I Eri, Janubiy Shotland, Janubiy Orkney, Janubiy Sandvich, Janubiy Georgiya, Ballen va boshqa orollar. Antarktida qirg'oqlarini Tinch, Atlantika, Hind okeanlari dengizlari suvlari yuvib turadi. Ular Uedell, Bellinsgauzen, Amundsen, Ross, Jamiyat, Kosmanavtlar dengizlaridir. Antarktida janubiy yarimsharidagi boshqa materikdan minglab kilometr uzoqda joylashgan. Uning yagona yarimoroli Antarktika yarimorolining chekka nuqtasidan Janubiy Amerikagacha bo'lgan eng yaqin masofa 1000 km dan oshadi. Antarktidaning asosiy xususiyati uni qalin materik muzligi qoplanganligidir. Materik muzi va shelf muzi tagidagi quruqlik maydoni, orollar bilan birga 1,4 mln km² ga teng. Buning taxminan 10% i shelf muzliklariga to'g'ri keladi. Muz bosmagan maydon 2500km² yoki materik maydonining 0,2% iga teng. Antarktidadagi muz qoplamining qalinligi o'rtacha hisobda 1720 m, lekin ayrim rayonlarda 4000 m ga ham yetadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra materik muzining umumiy hajmi 24 mln km² teng va Yer sharidagi hozirgi zamon muzliklarining 90% ini tashkil etadi.

Iqlimi va organik dunyosi

Yer sharining hech bir joyida Antarktida materigi kabi butun yil bo'yi havo harorati muttasil past bo'lmaydi va bunchalik past harorat qayd qilinmagan. Qishda materikni bir necha oy davomida qutb tuni qamrab oladi.

Antarktida materigining ichki qismlarida, ayniqsa, uning sharqiy sektorida havo harorati juda past bo'lgan ochiq va quruq iqlim mavjud. Eng past harorat Rossiyaga tegishli Vostok stansiyasida $-88,3^{\circ}\text{C}$ haroratni qayd etgan. Materikda iyulning o'rtacha harorati -50°C , o'rtacha avgust harorati -52°C ga teng. O'rtacha iyul harorati -60° dan -70°C gachadir. Umuman olganda, materikni o'rab turgan okean halqasi materikning chekka qismlari yozda ancha sovuq, qishda iliqroq bo'ladi. Materikdagi shamollarning tezligi ko'pincha sekundiga 30–50 m ga, ba'zan 90 m ga yetadi.

Organik dunyosi. Antarktidaning katta qismida o'simliklar va hayvonot dunyosi rivojlanmagan, sovuq sahrodan iborat. Materikda o'simliklar faqat chekka qismlarida va subartika orol-larda uchraydi, boy va o'ziga xos hayvonot dunyosi esa, asosan, Antarktika suv havzalari va qisman materikning chekka qismi bilan bog'liq. Antraktida o'simliklaridan faqat moxlar, lishay-niklar, tuban suvo'tlar, zamburug'lar va bakteriyalar uchraydi. Lishayniklarning turlari eng ko'p: ularning 200 ga yaqin turi bor, muzdan xoli bo'lgan hamma joyda ularni uchratish mumkin. Antarktikada hammasi bo'lib 75 turga yaqin mox bor.

Antarktikada quruqlikda yashaydigan hayvonlar juda kam. Sutemizuvchilardan suv hayvonlari qirg'oqlarda uchraydi. Ularga morjlar, tulenlar, suv qoplani va yaqin suvlarda uchraydigan kit-simonlar oilasi vakillari kiradi. Materikda chuvalchanglar, tuban qisqichbaqalar va qanotsiz hasharotlar uchraydi.

Uzunquloq tyulenlar vakillaridan Antarktikaning chekka qismlarida dengiz sherlari uchraydi. Antrarktika suvlarida hozir-gi vaqtdagi eng yirik sutemizuvchilar — kitsimonlar yashaydi. Dunyodagi eng yirik hayvon — ko'k kit hisoblanadi, uning uzun-ligi o'rtacha 26 m ga, vazni 160 tonnagacha yetadi, 20 tonna sof yog' beradi.

Antraktika qushlari ham o'ziga xos. Bu yerda, asosan, ping-vinlar tarqalgan. Ularning asosiy turlari adeyli, imperator va qi-rol hisoblanadi. Ular dengiz mollyuskalar, baliqlar, mayda den-giz hayvonlari, qisqichbaqalarni yeb oziqlanadilar.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Materikning kashf etilishi haqida so'zlab bering.
2. Materikning boshqa materiklardan farqini ko'rsating.
3. Materik iqlimi qanday shakllanagan?
4. Materikda organik turlar qanday tarqalgan?

ILOVALAR

I. GLOBAL MUAMMOLAR

Tinchlik va qurolsizlanish. Taxminan 14,5 ming marta urush bo'lgan, 3,5 mlrd odam qirg'inbarot urushlar oqibatida o'lgan. 1980-yili qurollanishga 1 trln AQSH dollari sarflangan.

«Kosmosga ekologik chiqindi»ni uglerod oksidi sulfat gazi (Tursunzodada ftor gazi, mol tishi, anor guli) SO_2 ning atmosferada ko'payib borishi havo haroratini $3-4^\circ\text{C}$ ga ko'taradi. Yana $+20^\circ\text{C}$ isisa, muz erib, dunyoni yarim metr suv bosadi, iqlim o'zgaradi.

Atmosferasi uglerod oksidi bilan eng ko'p ifloslangan davlatlar: Yaponiya (2,9 ming t 1 km^2 hududga), Germaniya (2,5), Buyuk Britaniya (2,4), Fransiya (0,7), AQSH (0,5), Rossiya (0,1), Xitoy (0,3).

Demografik o'sish. BMT tomonidan oilani rejalashtirish. Dunyo aholisining o'sishi 1960-yil — 2%, 1980-yil — 1,6%, asr oxiriga borib 1,5%, 2100-yillar — 1,2% bo'ladi.

Aholi → ekologiya → iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish.

Energetika va xomashyo muammolari. Mazkur muammo ke-lib chiqishining birinchi sababi jahon xo'jaligining energetika va xomashyoga nisbatan «ishtahasi» juda oshib borayotganligidir. Masalan, XX asrda qazib olingan butun ko'mirning 40%, temirning 55%, neft va tabiiy gazning, boksitning 80% i so'nggi yigirma yillikka to'g'ri keladi. Ikkinchi sababi esa tekshirilgan zaxiralarning cheklanganligi. Uchinchi sababi — dunyodagi ayrim regionlar va mamlakatlarning tabiiy resurslar bilan bir xil ta'minlanmaganligi. Masalan, Fors ko'rfazi bo'yi mamlakatlarida jahonda aniqlanilgan neft zaxirasining 2/3 qismi mavjud. Saudiya Arabistonida YIMning 95% i neftdan keladi.

Oziq-ovqat muammosi. Tibbiy hisob-kitoblarga ko'ra inson iste'mol qiladigan taomning kaloriyalik tibbiy me'yori sutkasi-ga 2300–2600 Kkal va 7–700 g oqsildan kam bo'lmasligi kerak. Lekin BMT ma'lumotiga ko'ra dunyo aholisining 1/3 qismi (rivojlangan mamlakatlar)gina shunday oziq bilan ta'minlangan, xolos.

Oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha aholi jon boshiga hisoblanganda Italiya 1-o'rinda turadi, Afrikada esa Liviya.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat muammosi ancha murakkab. Dunyoda yetishtiriladigan g'alla hosilining 1/3 qismi, go'sht, sut, tuxumning 15–20% i shu mamlakatlarga to'g'ri keladi. Masalan, Indoneziya, Pokistonda aholi jon boshiga go'sht iste'mol qilish 4 kg (yiliga). Hindistonda 1,5–2 kg ni tashkil etgani holda AQSH, Fransiya, Avstraliyada bu ko'rsatkich 100 kg dan ortiq.

Oziq-ovqat muammosini hal qilish uchun ikki xil usuldan foydalanish mumkin:

1. Ekstensiv yo'l.
2. Intensiv yo'l.

XX asr mobaynida sug'oriladigan yerlar maydoni 4 mln gektardan 350 mln gektarga ko'paymoqda. Obikor dehqonchilik jahonning 135 mamlakatida tarqalgan bo'lib, uning yarmidan ortig'i Osiyoga to'g'ri keladi.

Dunyo okeanidan foydalanish muammosi. Dunyo okeanining har tomonlama tadqiq etilishi va o'zlashtirilishi «Dunyo okeani muammosi»ni keltirib chiqardi. Energetika va xomashyo muammosini bartaraf etish uchun okean biologik resurslaridan foydalanish zarur. Hozircha dunyo okeani insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojining 2% ini ta'minlasa-da, okeandan hayvon oqsilining 12–15% i olinmoqda.


Xaoqaro mehnat geografik taqsimoti (XMGT) tufayli jahonda xalqaro savdoning tezkorlik bilan o'sishi dunyo okeanida yuk tashish ishlari hajmini tobora oshirmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qoloqligi. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish eng katta umumbashariy muammo hisoblanadi. Hozirda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholisining 40% i qashshoq yashaydi. 70 dan ortiq davlat oziq-ovqat mahsulotlarini chetdan keltiradi. Qashshoqlik, ochlik sababli turli kasalliklar va bolalar o'limi yuqori. «XX asr o'lati» (SPID) tropik Afrikaning qashshoq mamlakatlarida keng tarqalgan.


Kosmosdan tinch maqsadda foydalanish.

II. DUNYO MAMLAKATLARI GEOGRAFIYASIGA OID BA'ZI MA'LUMOTLAR

Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha ba'zi ma'lumotlar.
Avtomobilsozlik. XXI asr



Mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlar




Bugungi kunda O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 ta mamlakatlar qatoridan joy olgan. Jahonning 40 dan ortiq davlatlariga mineral o'g'it eksport qilmoqda. Uning katta qismi Osiyo, Yevropa va MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Mineral o'g'it ishlab chiqaruvchi mamlakatlar (XXI asrning birinchi o'n yilligi)

Fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish			Azotli o'g'itlar ishlab chiqarish			Kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish		
T/r	Mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	Mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	Mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)
1	AQSH	8,0	1	Xitoy	23,6	1	Kanada	10,2
2	Xitoy	7,9	2	Hindiston	10,6	2	Rossiya	5,3
3	Hindiston	3,9	3	AQSH	9,4	3	Belorussiya	4,0
4	Rossiya	2,5	4	Rossiya	6,0	4	Germaniya	3,7

5	Brazi- liya	1,5	5	Kanada	3,8	5	Isroil	2,1
6	Marok- ko	1,2	6	Indo- neziya	2,9	6	Iordani- ya	1,2
7	Tunis	1,0	7	Ukraina	2,3	7	AQSH	1,2
8	Avstra- liya	0,7	8	Pokiston	2,2	8	Xitoy	0,7
9	Polsha	0,4	9	Misr	1,5	9	Buyuk Britani- ya	0,6
10	Ispani- ya	0,4	10	Saudiya Arabis- toni	1,3	10	Ispaniya	0,5

O'rmon sanoati xomashyosidan xo'jalik maqsadida foydalanish



O'zbekistonda tabiiy gaz 1932-yildan boshlab qazib olinadi. 1962-yil Gazli gaz-neft konining ochilishi bilan gaz sanoati tez rivojlana boshladi, ulkan magistral gaz quvurlari yaratildi. Hozirda Ustyurt, Buxoro – Xiva, janubi-g'arbiy Hisor, Farg'ona, Surxondaryo kabi geft va gazga boy hududlarda 175 ta neft va gaz

konlari ochilgan. Respublika gaz sanoatida Qashqadaryo viloyati katta salmoqqa ega bo'lib, Muborak, Shoʻrtan kabi gaz konlari eng yiriklari hisoblanadi. Qazib olinayotgan gazni qayta ishlash maqsadida Shoʻrtan gaz kimyo majmuasi tashkil etilgan.

Oʻrmon sanoati mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar

T/r	mamlakat	Yogʻoch tayyorlash (mln m ³)	T/r	mamlakat	Yogʻoch-taxta mahsulotlari ishlab chiqarish (mln m ³)	T/r	mamlakat	Qogʻoz va karton ishlab chiqarish (ming t)
1	AQSH	503	1	AQSH	116	1	AQSH	83,6
2	Xitoy	315	2	Kanada	64	2	Xitoy	53,5
3	Hindiston	309	3	Xitoy	28	3	Yaponiya	29,2
4	Braziliya	220	4	Yaponiya	24	4	Kanada	20,6
5	Indoneziya	205	5	Rossiya	20	5	Germaniya	20,4
6	Kanada	200	6	Braziliya	19	6	Finlyandiya	14,0
7	Nigeriya	117	7	Hindiston	17	7	Shvetsiya	11,6
8	Rossiya	85	8	Shvetsiya	15	8	Koreya R.	10,5
9	Shvetsiya	60	9	Germaniya	15	9	Fransiya	10,2
10	Finlyandiya	50	10	Finlyandiya	10	10	Italiya	9,7
11	Qolgan davlatlar	1286	11	Qolgan davlatlar	172	11	Qolgan davlatlar	91,7
12	Butun dunyo	3350	12	Butun dunyo	500	12	Butun dunyo	355,0

Oʻzbekistonda rangli metallurgiya tarmogʻi asosiy eksport mahsulotlarini ishlab beruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. U asl va nodir metallarni qazib olish, boyitish va eritishni oʻz

ichiga oladi. Asosan, Toshkent, Navoiy, Jizzax, Surxondaryo viloyatlaridan oltin, mis, polimetall, volfram, molibden kabi metallar qazib olinadi. Yirik metallurgiya korxonalari esa Toshkent, Navoiy viloyatlarida tarqalgan.


**Polimerlar ishlab chiqaruvchi asosiy davlatlar
(XXI asrning birinchi o'n yilligi)**

Sintetik mum va plastmassa ishlab chiqarish			Kimyoviy tola ishlab chiqarish			Sintetik kauchuk ishlab chiqarish		
T/r	mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	Mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)	T/r	Mamlakatlar	Ishlab chiqarish (mln t)
1	AQSH	31,0	1	Xitoy	15,0	1	AQSH	2,5
2	Yaponiya	14,8	2	AQSH	4,2	2	Yaponiya	1,5
3	Germaniya	11,2	3	Tayvan	3,3	3	Rossiya	0,8
4	Koreya Resp.	8,4	4	Koreya Resp.	2,3	4	Fransiya	0,6
5	Tayvan	8,3	5	Hindiston	2,2	5	Germaniya	0,6
6	Xitoy	6,2	6	Yaponiya	1,2	6	Xitoy	0,5
7	Fransiya	6,0	7	Indoneziya	1,2	7	Koreya Resp.	0,5
8	Niderlandiya	4,5	8	Germaniya	1,1	8	Tayvan	0,4
9	Buyuk Britaniya	3,6	9	Turkiya	1,1	9	Buyuk Britaniya	0,3
10	Belgiya	3,5	10	Tailand	0,9	10	Braziliya	0,3
11	Qolgan davlatlar	32,5		Qolgan davlatlar	8,6		Qolgan davlatlar	1,8
12	Dunyo bo'yicha	130,0		Dunyo bo'yicha	41,1		Dunyo bo'yicha	9,8

Agrosanoat majmuasi XXI asr boshida.
XXI asr boshida qand ishlab chiqaruvchi, eksport va import
qiluvchi asosiy davlatlar



Asosiy qand yetishtiruvchilar			Asosiy eksport qiluvchilar			Asosiy import qiluvchilar		
T/r	Mamlakatlar	yetish-ti-rish (mln t)	T/r	Mamlakatlar	Ek-sport (mln t)	T/r	Mamlakat-lar	Import (mln t)
1	Braziliya	21	1	Braziliya	4,9	1	AQSH	2,9
2	Hindiston	17	2	Avstraliya	4,5	2	Rossiya	2,6
3	Xitoy	8	3	Kuba	2,6	3	Yaponiya	1,9
4	AQSH	7,5	4	Tailand	1,5	4	Koreya Resp.	1,4
5	Avstraliya	6	5	Gvatemala	1,3	5	Buyuk Bri-taniya	1,3
6	Tailand	5,5	6	JAR	0,9	6	Malayziya	1,2
7	Fransiya	5	7	Kolumbiya	0,7	7	Misr	1,1
8	Meksika	4,8	8	Mavrikiy	0,6	8	Kanada	1
9	Germaniya	4,5	9	Meksika	0,3	9	Xitoy	0,9
10	Pokiston	4	10	Dominikan Respublikasi	0,3	10	Hindiston	0,6

Jahon donli ekinlar maydonining tarkibiy tuzilishi




Madaniy ekinlarining kelib chiqish markazlari

Markazlar	Geografik oʻrni	Madaniy ekinlar
Oʻrtayer dengizi boʻyi	Oʻrtayer dengizi qirgʻoqlari mam-lakatlari (Italiya, Ispaniya, Gretsiya)	Zaytun, qizilcha, turp, sholgʻom, karam, piyoz, shivit, kashnich, yalpiz, kanop, zigʻir
Old Osiyo	Eron, Kavkaz, Ki-chik Osiyo	Yumshoq bugʻdoy, javdar, ar-pa, suli, dukkaklilar, uzum, olma, nok, olcha, anor, xurmo, qovun, atirgul
Oʻrta Osiyo	Afgʻoniston va Oʻrta Osiyo	Noʻxat, yasmiq, qovoq, ismaloq, sabzi, boshpiyoz, shaftoli, oʻrik, grek yongʻogʻi, bodom
Sharqiy Osi-yo (Xitoy)	Sharqiy va Janubiy Xitoy, Koreya	Tariq, arpa, Xitoy qoʻnogʻi, marju-mak, soya, kivi, dolchin, choy
Janubiy Osi-yo (Hindis-ton)	Gang daryosi mansabi	Sholi, baqlajon, bodring, mango, limon, apelsin, shakarqamish, jut, qisqa tolali gʻoʻza
Hind-Ma-laya	Hindixitoy va Malakka	Yams, banan, kokos palmasi, non daraxti, qora murch, muskat yongʻogʻi
Efiopiya	Efiopiya	Qattiq bugʻdoy, sorgo (qoʻqonjoʻxori), xantal, kunjut, kofe daraxti
Meksika (Markaziy Amerika)	Meksika va Markaziy Amerika	Makkajoʻxori (mais), pomidor, batat, kungaboqar, qalampir, in-gichka tolali gʻoʻza, kakao, tamaki
And (Janu-biy Ameri-ka)	Peru, Ekvador, Boliviya	Kartoshka, maniok, loviya, ananas, yeryongʻoq, geveya
Chili	Markaziy Chili	Kartoshka, qulupnay
Braziliya	Janubiy Braziliya va Paragvay	Maniok, yeryongʻoq, ananas, kakao, geveya



Kartoshka hosili eng yuqori bo'lgan mamlakatlar (mln t)



Shakarqamish va qandlavlagi yetishtiruvchi asosiy davlatlar

Shakarqamish			Qandlavlagi		
T/r	Mamlakat	Yillik hosil (mln t)	T/r	Mamlakat	Yillik hosil (mln t)
1	Braziliya	333	1	Fransiya	33
2	Hindiston	282	2	AQSH	30
3	Xitoy	89	3	Germaniya	27,6
4	Pokiston	54	4	Turkiya	20
5	Tailand	53	5	Rossiya	15
6	Meksika	46	6	Xitoy	14,6
7	Avstraliya	37	7	Italiya	14
8	Kolumbiya	36,9	8	Ukraina	13,9
9	Kuba	35	9	Polsha	12,6
10	AQSH	32,5	10	Buyuk Bri-taniya	10,3
11	Qolgan davlatlar	258,6	11	Qolgan davlatlar	72
12	Butun dunyo	1257,0	12	Butun dunyo	263,0

Tetiklashtiruvchi ichimlik beradigan ekinlar yetishtiruvchi davlatlar

Choy			Kofe			Kakao		
T/r	Mam-lakatlar	Yetish-tirish (mln t)	T/r	Mam-lakatlar	Yetish-tirish (mln t)	T/r	Mam-lakat-lar	Yetish-tirish (mln t)
1	Xitoy	841	1	Braziliya	1172	1	Kot d'Ivuar	1286
2	Hindiston	823	2	Kolumbiya	856	2	Indoneziya	610
3	Shri-Lanka	306	3	Indoneziya	370	3	Gana	599
4	Keniya	256	4	Meksika	356	4	Nigeriya	441
5	Indoneziya	158	5	Gvatemala	212	5	Braziliya	236

Eng ko'p paxta tolasi ishlab chiqaradigan va eksport qiladigan davlatlar o'nligi

T/r	Mamlakat	Paxta tolasi ishlab chiqarish (mln t)	T/r	Mamlakat	Paxta tolasi-ning eksporti (mln t)
1	Xitoy	4,3	1	AQSH	1,6
2	AQSH	4,1	2	O'zbekiston	1,0
3	Hindiston	2,7	3	Avstraliya	0,6
4	Pokiston	1,6	4	Suriya	0,23
5	O'zbekiston	1,1	5	Argentina	0,22
6	Turkiya	0,8	6	Gretsiya	0,19
7	Avstraliya	0,7	7	Mali	0,17
8	Braziliya	0,4	8	Benin	0,14
9	Suriya	0,3	9	Burkina-Faso	0,12
10	Gretsiya	0,3	10	Turkiya	0,11

Chorvaning asosiy turlari soni bo'yicha yetakchi davlatlar


T/r	Mamlakat	Yirik shox- li qoramol (mln bosh)	T/r	Mamlakat	Cho'chqa (mln bosh)	T/r	Mamlakat	Qo'y (mln bosh)
1	Hindiston	222,2	1	Xitoy	465,0	1	Xitoy	133
2	Braziliya	176,0	2	AQSH	59,1	2	Avstraliya	123
3	Xitoy	106,7	3	Braziliya	30,0	3	Hindiston	57
4	AQSH	96,7	4	Germaniya	26	4	Eron	52
5	Argentina	50,1	5	Ispaniya	23,9	5	Yangi Zelandiya	48
6	Rossiya	36,1	6	Rossiya	19,5	6	Buyuk Britaniya	43
7	Eftopiya	34,2	7	Polsha	18,2	7	Turkiya	33
8	Avstraliya	21,3	8	Vyetnam	18,0	8	Pokiston	31
9	Meksika	19,0	9	Hindiston	17,5	9	JAR	29
10	Kolumbiya	18,1	10	Meksika	15,5	10	Sudan	26

Jahon transport majmuasi XXI asr boshida.


Temiryo‘llar uzunligi bo‘yicha dunyo mamlakatlarning birinchi o‘nligi

T/r	Mamlakat	Temiryo‘llar uzunligi (ming km)	T/r	Mamlakat	Temiryo‘llar uzunligi (ming km)
1	AQSH	175,9	6	Germaniya	41,4
2	Rossiya	87,5	7	Avstraliya	36,2
3	Kanada	84,7	8	Argentina	34,1
4	Hindiston	62,2	9	Fransiya	32,3
5	Xitoy	54,0	10	Braziliya	32,0

Jahon tarmoqlarining xalqaro yuk va yo‘lovchi tashishdagi ulushi



Xalqaro yuk va yo'lovchi aylanmasi (%)




Quvur transporti bo'yicha yetakchi davlatlarning birinchi o'nligi.

T/r	Mamlakat	Neft quvurlari-ning uzunligi (ming km)	T/r	Mamlakat	Gaz quvurlari-ning uzunligi (ming km)
1	AQSH	325	1	AQSH	440
2	Rossiya	66	2	Rossiya	150
3	Kanada	50	3	Kanada	95
4	Xitoy	8	4	Germaniya	55
5	Saudiya Arabistoni	8	5	Fransiya	30
6	Hindiston	6	6	Italiya	18
7	Meksika	6	7	Niderlandiya	16
8	Fransiya	6	8	Polsha	10
9	Eron	5	9	Ruminiya	7
10	Jazoir	4	10	Meksika	7

Dunyodagi eng yirik aeroportlar yo'lovchi aylanmasi.

O'rin	Aeroport nomi	Shahar	Mamlakat	Yo'lovchi aylanmasi (yiliga mln kishi)
1	Xartfild	Atlanta	AQSH	80,2
2	O'Xara	Chikago	AQSH	73,1
3	Los-Anjeles	Los-Anjeles	AQSH	65,8
4	Xitrou	London	Buyuk Britaniya	65,2
5	Dallas	Dallas	AQSH	60,9
6	Xaneda	Tokio	Yaponiya	55,6
7	Reyn-Mayn	Frankfurt – Mayn	Germaniya	49,0
8	Sharl de Goll	Parij	Fransiya	48,3
9	San-Fransisko	San-Fransisko	AQSH	41,1
10	Sxipxoll	Amsterdam	Niderlandiya	40,2

**Dengiz savdo tonnaji bo'yicha yetakchi davlatlar o'nligi
(mln t)**



Eng yirik universal dengiz portlari

T/r	Port nomi	Mamlakat	Yuk aylanmasi (mln tonna)
1	Shanxay	Xitoy	460
2	Singapur	Singapur	323
3	Rotterdam	Niderlandiya	307
4	Tyantszin	Xitoy	243
5	Janubiy Luiziana	AQSH	240
6	Kobe	Yaponiya	235
7	Syangan (Gonkong)	Xitoy	227
8	Tiba	Yaponiya	219
9	Nagoya	Yaponiya	215
10	Ninbo	Xitoy	212

Dunyodagi eng muhim dengiz kanallari

Kanal no-mi	Mamlakat	Ochilgan yili	Uzunligi (km)	Maksimal kengligi (m)	O'rtacha chuqurligi (m)
Suvaysh	Misr	1869	193	365	20
Kil	Germaniya	1895	99	104	11
Panama	Panama	1920	82	150	12,5


III. DUNYO XARITALARI



Ukrainaning xaritasi.



Moldaviyaning xaritasi.



AQSH xaritasi.




Kanadaning xaritasi.



Janubiy Amerikaning xaritasi.



Afrikaning xaritasi.



Avstraliyaning xaritasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. *«O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»*. — T.: 1997.
2. Атлас. *«Экономическая и социальная география мира»*. — М.: «Драфа», 2006.
3. Атлас *«Экономическая и социальная география мира»*. — М.: «Аст-Пресс школа», 2005.
4. Атлас *«Экономическая и социальная география мира»*. — М.: «Аст-Пресс», 2000.
5. *«Атлас мира»*. Страны мира в картах и цифрах. — М.: «Аст-Пресс», 2000.
6. Ahmedov B. *Lotin Amerikasi*. — T.: O'z dav nashr. 1963.
7. В. Волский и б. *«Экономическая география капиталистических и развивающихся стран»*. 2-нашр. — М.: МГУ. 1986.
8. *«География: страны и народы»* — Россия. г. Смоленск: «Русиш», 2000.
9. Интернет маълумотлари: *«Основные демографические показатели по всем странам мира в 2007 году»*. — Раздел I—II.
10. Кузнецов А. *«Страны, хозяйство, люди»*. Просвещение, — М.: 1988.
11. *Латинская Америка*. Справочник. М.: Политиздат. 1990.
12. Максаковский В.П. *«География»*. Справочные материалы — М.: «Просвещение», 1989.
13. *Населения мира*. Демографический справочник. — М.: Мысль, 1989.
14. *«Океан»*. Россия, г. Смоленск: «Русиш», 2003.
15. Soliyev A., Safarov I. *«Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari»*. — T.: «Talqin», 2003.
16. *Страны Африки*. Справочник. М. Политиздат. 1988.
17. *Современные Соединенные штаты Америки*. Справочник. — М.: Политиздат. 1988.
18. *Страны Мира совр.* Сп. — М.: «Дом Славянский книги», 2005.
19. Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M. *«Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi»*. — T.: «O'zbekiston», 2006.
20. *Зарубежная Азия*. — М.: Мысль, 1972—1982.
21. *Земля и человечество*. I—IV қисм. — М.: Мисл, 1982—1990.
22. Shodiyev R.X., Mahmudov E.R. *«Jahon iqtisodiyoti»*. — T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 2005.
23. *Экономика зарубежных стран*. Учебник — М.: Высшая школа. 1990.
24. *«Экология»*. Россия. г. Смоленск: «Русиш», 2001.

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

I bob. XALQARO ALOQA XIZMATI	5
------------------------------------	---

1.1. Xalqaro aloqa xizmati va uning ish faoliyati	5
1.2. Aloqa informatsiyasini ta'miniash. Aloqa turlari va vositalari.	7
1.3. O'zbekiston Respublikasi pochta aloqasi.	10
Qo'shimcha ma'lumotlar	12

II bob. OSIYO QIT'ASI MAMLAKATLARI MA'MURIY GEOGRAFIYASI	19
---	----

2.1. Osiyo qit'asi mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi.	19
2.2. Osiyo mamlakatlari aholisi.	21
2.3. Osiyo davlatlarining ma'muriy bo'linishi	22
2.4. Osiyo mamlakatlarining rivojlanish omillari va unda aloqa tizimini o'rni	23
2.5. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi	25
2.6. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi	36
2.7. G'arbiy Osiyo mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi	41
2.8. Markaziy Osiyo mamlakatlari geografiyasi.	47
2.9. Osiyoning yirik mamlakatlari. Rossiya. Xitoy.	59

III bob. YEVROPA QIT'ASI MAMLAKATLARINING MA'MURIY GEOGRAFIYASI	68
--	----

3.1. Yevropa mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi.	68
3.2. Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar geografiyasi.	70
3.3. Sharqiy Yevropa mamlakatlarining ma'muriy bo'linishi	82
3.4. Sharqiy Yevropa MDH mamlakatlari.	94

**IV bob. AMERIKA QIT'ASI MAMLAKATLARI
MA'MURIY GEOGRAFIYASI. 103**

- 4.1. Shimoliy Amerika mamlakatlari geografiyasi 103
4.2. Markaziy Amerika davlatlari. 111
4.3. Janubiy Amerika mamlakatlari geografiyasi 113

**V bob. AFRIKA QIT'ASI MAMLAKATLARINING
MA'MURIY GEOGRAFIYASI. 121**

- 5.1. Afrika qit'asi mamlakatlarining ma'muriy
geografiyasi 121
5.2. Shimoliy Afrika mamlakatlari geografiyasi. 123
5.3. Markaziy Afrika mamlakatlari geografiyasi 125
5.4. Janubiy Afrika mamlakatlari geografiyasi. 126

**VI bob. AVSTRALIYA VA OKEANIYA
MAMLAKATLARI GEOGRAFIYASI. 133**

- 6.1. Avstraliya, Yangi Zelandiya va Okeaniya mamlakatlari
geografiyasi 133
6.2. Antarktida va Arktika geografiyasi 148

ILOVALAR 141

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 165

Abduraxmanova Dilfuza Baxtiyorovna,
Abdullayev Ilhom Hotamovich,
Rahimov Polvonnazir

MA'MURIY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llanma

Muharrir: *N. Uralova*
Dizayner sahifalovchi: *A. Aubakirov*

«Faylasuflar» nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №255, 16.11.2012.

Bosishga ruxsat etildi 06.02.2014. «Uz-Times» garniturası. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Bosma tabog'i 10,5. Nashr hisob tabog'i 11,0. Adadi 279 nusxa. Buyurtma №__.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.